

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT  
UNIVERSITETI**

Qo‘lyozma huquqida

*UDK: 373.3.015.31:159.955*

**ABDIRIMOV INOYATBEK AXMEDOVICH**

**BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARI KREATIV FIKRLASHINI  
RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang‘ich ta’lim)**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)**

**ilmiy darajasini olish uchun yozilgan**

**DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar: pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dots.**

**E.M.Xudoynazarov**

**Urganch – 2026**

## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b> .....	3
<b>I BOB. BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING KREATIV FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI</b>	
1.1. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ fikrlashini rivojlantirish metodikasi pedagogik muammo sifatida.....	12
1.2. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ fikrlashini rivojlantirishning pedagogik-psixologik jihatlari .....	27
Birinchi bob bo‘yicha xulosalar .....	50
<b>II BOB. BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING KREATIV FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDA IJODIY MAZMUNDAGI MASHQLARDAN FOYDALANISH METODIKASI</b>	
2.1. Ijodiy mazmundagi mashqlar yordamida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari kreativ fikrlashini rivojlantirishning didaktik asoslari .....	51
2.2. O‘quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirishga yo‘naltirilgan model va undan foydalanishning didaktik shart-sharoitlari .....	69
2.3. O‘quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda evristik ta‘lim metodidan foydalanish metodikasi .....	94
Ikkinchi bob bo‘yicha xulosalar .....	112
<b>III BOB. BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARI KREATIV FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINING SAMARADORLIGI</b>	
3.1. O‘quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishga yo‘naltirilgan tajriba-sinov ishlari .....	113
3.2. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ fikrlashini rivojlantirishga yo‘naltirilgan tajriba-sinov ishlarining statistik tahlili .....	131
Uchinchi bob bo‘yicha xulosa .....	140
<b>XULOSA</b> .....	142
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI</b> .....	146
<b>ILOVALAR</b> .....	160

## KIRISH

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon miqyosida so‘nggi yillarda boshlang‘ich ta‘lim tizimida mazmun va maqsadlarni qayta talqin qilish, ta‘lim natijalarini aniqlash hamda rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash borasida sezilarli o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Raqamli avlodning o‘qish xususiyatlariga mos samarali pedagogik texnologiyalarni ta‘lim jarayoniga tatbiq etish, xususan, umumiy o‘rta ta‘lim maktablari o‘quvchilarida kreativ fikrlashni rivojlantirish bugungi ta‘lim siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. Boshlang‘ich ta‘limning zamonaviy konsepsiyasini ishlab chiqish jarayonida kam vaqt sarflab yuqori natijalarga erishishga yo‘naltirilgan yondashuvlar hamda ta‘lim ishtirokchilarining o‘zini-o‘zi rivojlantirish, o‘z faoliyatini boshqarish va nazorat qilish mexanizmlaridan keng foydalanilayotgani globallashtirish sharoitida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O‘quvchilarning bilim va ma‘rifiy salohiyatini oshirish, ta‘lim jarayoniga zamonaviy yondashuvlarni joriy etish bilan bir qatorda, umumiy o‘rta ta‘lim oluvchilarning kognitiv qobiliyatlari hamda faoliyat usullarini bosqichma-bosqich rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslar kuchayib bormoqda. Shu bilan birga, o‘quvchilarning umumiy (funktional) savodxonligini yuksaltirishga qaratilgan samarali pedagogik loyihalar amaliyotga izchil tatbiq etilmoqda<sup>1</sup>.

Dunyo ilmiy tadqiqotlarida umumiy o‘rta ta‘lim maktabi tizimining boshlang‘ich ta‘lim amaliyotida amalga oshirilayotgan bir qator o‘zgarishlarning kognitiv, reflektiv, motivatsion bilimlarning yuqori darajadagi ko‘rsatmalar bilan shartligi to‘g‘risidagi ilmiy izlanishlar bajarilayotganligi bilan ahamiyatlidir. Shu sababli, ta‘lim tizimidagi o‘qituvchilar va o‘quvchilarning shaxsiy tashabbuslari har qachongidan ko‘ra ko‘proq qo‘llab quvvatlanmoqda. Bugungi jamiyatning tobora globallashtirish ta‘lim tizimini tashkil etish jarayonida yangi talab va yondashuvlarni aniqlashtirishni taqozo etmoqda hamda ushbu jarayon umumiy o‘rta ta‘limda mavjud bir qator muammolarni aniqlash, ularni tahlil qilish va

---

<sup>1</sup> Partnership for 21st Century Learning. *P21 Framework for 21st Century Learning* [Electron resource]. <https://www.battelleforkids.org/networks/p21>

bartaraf etish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ fikrlashni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Respublikamizda ijodkor o'quvchilarni tayyorlashning strategik maqsadlari va ustuvor yo'nalishlarini belgilash, pedagogik ta'lim-tarbiya sohasini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim<sup>2</sup> g'oyalari bilan rivojlantirish, yangicha va kreativ fikr yurita oladigan boshlang'ich sinf o'quvchilarini tayyorlash sifatini oshirish sohasida ham samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Ta'lim sohasining yana bir muhim vazifasi - faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan, Vatan va xalq manfaatlarini qat'iy himoya qila oladigan, zamonaviy, keng fikrlaydigan yoshlar avlodini shakllantirishdan iborat<sup>3</sup>. "Yangi O'zbekiston – yangi ta'lim" konsepsiyasi doirasida ta'lim tizimini tubdan modernizatsiya qilish, o'quvchilarda mustaqil, tanqidiy va kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb vazifalardan biri sifatida belgilangan. Mazkur konsepsiyadan kelib chiqqan holda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ fikrlash qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish masalasi alohida ilmiy-pedagogik ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu jarayonning nazariy-metodologik asoslarini aniqlash, pedagogik va psixologik jihatlarini o'rganish, o'quvchilarni kreativ fikrlashga o'rgatishning samarali pedagogik tizimlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni hamda ilg'or xorijiy tajribalarni tahlil qilish zarurati yuzaga kelmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida "Davlat bepul umumiy o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olishni kafolatlaydi. Umumiy o'rta ta'lim majburiydir"<sup>4</sup> deb ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" Strategiyasi to'g'risidagi Farmonida "Umumiy o'rta ta'lim tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish hamda "Ta'lim uchun qulay muhit" yaratish asosiy strategik maqsadlar sifatida belgilangan bo'lib, ushbu jarayonda zamonaviy ta'lim metodikalarini barcha umumiy o'rta ta'lim

---

<sup>2</sup> Педагогика. Энциклопедия. I жилд. жамоа // Тошкент: "Ўзбекистон Миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2017. – 200 б.

<sup>3</sup> Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. – T.: "O'zbekiston". 2023, 6-jild. – 227 b.

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2023-yil 30-aprel, 50-moddasi. <https://lex.uz/docs/-6445145>

muassasalarining o‘quv jarayonlariga joriy etish” ustuvor vazifa sifatida belgilangan<sup>5</sup>. Bu esa, Yangi O‘zbekiston sharoitida kreativ fikrlash, yuqori harakatchanlik, kompetensiya, bag‘rikenglik, doimiy o‘z-o‘zini rivojlantirishga tayyor yuqori malakali mutaxassisni tayyorlashga zamonaviy talab yuqoriligini ko‘rsatadi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi PF-5712-son Farmoni, 2022-yil 11-maydagi “2022–2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-134-son Farmoni, 2023-yil 26-maydagi “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-79-son Farmoni, 2020-yil 29-oktabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmoni hamda sohaga oid boshqa huquqiy-me‘yoriy hujjatlarda ta’kidlangan ustuvor vazifalarni amaliyotga tadbiiq qilishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy–ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Mamlakatimiz yetakchi olimlaridan O.Musurmonova, R.H.Djurayev, Sh.S.Sharipov, N.Saidaxmedov, M.Ochilov, N.Egamberdiyeva, E.Yuzlikayev, M.Quronovlarning ilmiy izlanishlarida o‘quvchilar dunyoqarashi va fikrlash madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy–pedagogik jihatlari, o‘quvchilarda ijodiy va ijtimoiy faollik hamda kreativlikni rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari B.Adizov, G.Tulnova, Z.Raximov, B.Rahimov, N.Muslimov, M.Usmonboyeva, D.Sayfurov, A.To‘rayev,

---

<sup>5</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli Farmoni. <https://lex.uz>

M.Xajiyeva, D.Nafasov o‘quvchilarning bilish faoliyatlarini rivojlantirishda mustaqil hamda kreativ fikr bayon qilish F.Xodjiyeva, V.Karimova, R.Sunnatova, Sh.Nurullayeva, B.Xodjayev, J.Musayev, Z.Nishonova, G.Ne‘matovalar izlanishlarida tadqiq etilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlari olimlaridan I.O.Zagashev, S.I.Zair–Bek, I.V.Mushtavinskaya, K.K.Foster, N.A.Stepanenko, O.V.Andronova, I.A.Morochenkova, R.Bustrom, Y.A.Kukushkina, T.Y.Kopilovanning tadqiqotlarida o‘quvchilarning kreativ fikrlashini shakllantirish masalalari o‘z aksini topgan.

Xorijlik olimlar J.P.Gilford, E.Torrens, Dj.Dyui, D.Halpern, M.Mason, R.Paul, L.Elder, J.Still, K.Meridis, Ch.Templ, D.Xalpern, L.Starkeyning asarlarida kreativ fikrlashini rivojlantirish masalalari uning ijodkorlik, o‘z-o‘zini namoyon qilish, kreativ fikrlashni rivojlantirish muammolari bilan mantiqiy bog‘liqlikda tadqiq etilgan.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatini shakllantirish muammosi ta’lim-tarbiyaning eng muhim masalalaridan biri sifatida tahlil etilganligiga qaramasdan, uni texnologiyasi va didaktik ta’minotini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, bu soha muammosi bo‘yicha xorijiy va respublikamizda amalga oshirilgan tadqiqotlar bilan tanishish mazkur pedagogik hodisaning yagona talqini mavjud emasligini ko‘rsatdi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “O‘quv dasturlari mazmunini optimallashtirish va o‘qitish metodikasini takomillashtirish” mavzusi doirasida bajarilgan (2021-2025 yy.).

**Tadqiqotning maqsadi** umumiy o‘rta ta’lim maktablarining boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kreativ fikrlashga o‘rgatishning pedagogik tizimini takomillashtirish asosida metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning vazifalari:**

boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ fikrlashni shakllantirish va rivojlantirishning psixologik–pedagogik xususiyatlarini aniqlash;

boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ fikrlashini shakllantirish va rivojlantirishga doir loyiha ishlab chiqish va ularning ta'limda multimodal indentivligini ta'minlash, kognitiv generatsiyalashni takomillashtirish;

boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ fikrlashini rivojlantirishning texnologik modelini koloborativ yondashuv asosida ishlab chiqish;

boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ fikrlashni rivojlantirish metodikasini siklik zanjirli kichik prototiplash modelini tatbiq qilish orqali takomillashtirish va samaradorligini baholash.

**Tadqiqotning obyekti sifatida** umumiy o'rta ta'lim muassasalari boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ fikrlashga o'rgatishning pedagogik tizimi belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Namangan, Buxoro va Xorazm viloyatlaridan jami 15 ta umumta'lim maktablaridan 779 nafar o'quvchi jalb etilgan.

**Tadqiqotning predmetini** boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ fikrlashga o'rgatish pedagogik tizimini takomillashtirish mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida o'rganilayotgan muammo bo'yicha falsafiy, sotsiologik, psixologik va pedagogik adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy o'rganish, tahlil qilish, mahalliy va xorijiy ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish, sotsiometrik metodlar (anketa, intervyu, suhbat), pedagogik eksperiment, natijalarni matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ fikrlashni rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari raqamli avlodning “kulminatsiya”ga intilishini “ijodkor o'quvchi” loyihasi orqali sinergiyaning bifurkatsion nuqtasi bilan multimodal indentivligi asosida aniqlashtirilgan;

boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ fikrlashini rivojlantirish metodikasi o'quv mashg'ulotlaridagi “pastdan-yuqori”ga yo'nalganlikdan taksonomik

arxitektonika orqali “yuqoridan-past”ga konstruktiga kognitiv generatsiya asosida o‘zgarishiga ko‘ra takomillashtirilgan;

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ fikrlashini rivojlantirish modeli kolobrativ yondashuvga ko‘ra “o‘rganishga o‘rgatish”ga yo‘naltirilgan subyekt-resursli ma’lumotlarni gemifikatsiyalash jarayoniga metokognitiv refleksiyaning kiritish asosida takomillashtirilgan;

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ fikrlashni rivojlantirish metodikasining samaradorligi metakreativ va reflektiv tafakkurni rivojlantirishning siklik zanjirli kichik prototiplarini generatsiya qilish asosida takomillashtirilgan.

**Tadqiqot amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

-boshlang‘ich sinf o‘quvchilari kreativ fikrlashini shakllantirish va rivojlantirish muammosi yangicha mualliflik qarashlari asosida pedagogik-psixologik talqin etilgan;

-boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ fikrlashini shakllantirish va rivojlantirishning nazariy-didaktik asoslari, metodik ta’minoti va uni baholashning instrumenti takomillashtirilgan;

-sinfda va sinfdan tashqari o‘quv mashg‘ulotlarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan seminar-trening mashg‘ulotlarini o‘tkazish uchun yo‘riqnoma va metodik qo‘llanma ishlab chiqilgan;

-boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ fikrlashni rivojlantirishga yo‘naltirilgan “ijodkor o‘quvchi” to‘garak guruhi faoliyatini tashkil etishga doir uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot metodologik asosining ta’minlanganligi, adekvat metodik tadqiqotlarning amalga oshirilganligi, sinov maydonlarining yetarlicha tanlanganligi, zarur miqdorda sinov ishiga respondentlarning jalb etilganligi, matematik-statistikaning ishonchli metodlari yordamida tajriba-sinov ishlari natijalarini tahlil qilishning reprezentativligi, to‘plangan ma’lumotlar ishonchli, aniqligining isbotlanganligi hamda yakuniy

natijalarni tegishli tizimlar tomonidan o‘z vakolati doirasida tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarini ilmiy ahamiyati o‘quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladigan pedagogik tizim mohiyati ochib berilganligi, kreativ fikrlash tushunchasi mualliflik qarashlari va tahlillari asosida mazmunan boshqa yo‘nalishlarda yoritib berilganligi, kreativ fikrlash qobiliyatini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari va uning tasniflashning mezonlari aniqlashtirilganligi, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning kreativ fikrlash sifatlariga egalik darajasini tashxislovchi yangi o‘chov mezonlarning hamda amaliy ahamiyatga metodik ko‘rsatmalar ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqotning amaliy ahamiyati** boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ fikrlashni rivojlantirish imkoniyatlarining ilmiy-pedagogik jihatdan asoslanganligi, mualliflik maxsus kurs dasturlari, “ijodkor o‘quvchi” loyihasi doirasida tashkil etiladigan to‘garak mashg‘ulotlari faoliyatiga yo‘naltirilgan integrativ o‘quv-metodik majmuaning ishlab chiqilganligi hamda ilmiy tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ fikrlash kompetensiyasini shakllantirish texnologiyasiga doir nazariy-amaliy tavsiyalardan boshlang‘ich sinf darsliklarini loyihalash va mazmunan modernizatsiya qilishda, o‘quvchilarning kreativ tafakkur darajasini rivojlantirish, ularning bilim, ko‘nikma va malakalarini kompetensiyaviy yondashuv asosida baholash, shuningdek, pedagog kadrlarni innovatsion ta‘lim metodikalari va didaktik texnologiyalarga o‘rgatish bo‘yicha malaka oshirish kurslarining ilmiy-metodik ta‘minotini takomillashtirish jarayonida samarali foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kreativ fikrlashini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish yuzasidan olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ fikrlashni rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari raqamli avlodning “kulminatsiya”ga intilishini “ijodkor o‘quvchi” loyihasi orqali sinerjiyaning bifurkatsion nuqtasi bilan multimodal identivligi

asosida aniqlashtirishga oid takliflari “Umumiy pedagogika” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 17-iyuldagi 314-son buyrug‘i, 314642 raqamli guvohnoma). Natijada, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ fikrlashini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga xizmat qilgan;

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ fikrlashini rivojlantirish metodikasi o‘quv mashg‘ulotlaridagi “pastdan-yuqori”ga yo‘nalganlikdan taksonomik arxitektonika orqali “yuqoridan-past”ga konstruktiga kognitiv generatsiya asosida o‘zgarishiga ko‘ra takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalardan “Xalq pedagogikasi” nomli o‘quv qo‘llanmani ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 14-apreldagi 136-son buyrug‘i, 332878 raqamli guvohnoma). Natijada, ijodkorlik faoliyati samaradorligini tashxis etish va korreksiyalash mazmunini jadallashtirishga xizmat qilgan;

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ fikrlashini rivojlantirish modeli kolobrativ yondashuvga ko‘ra “o‘rganishga o‘rgatish” ga yo‘naltirilgan subyekt-resursli ma’lumotlarni gemifikatsiyalash jarayoniga metokognitiv refleksiyaning kiritish asosida takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalari asosida boshlang‘ich ta’lim bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun “Kreativ fikrlash” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 29-maydagi 194-son buyrug‘i, 194-418 raqamli guvohnoma). Natijada, boshlang‘ich ta’lim tizimi oldiga qo‘yilayotgan bugungi strategik talablarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etish imkonini bergan;

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ fikrlashni rivojlantirish metodikasining samaradorligi metakreativ va reflektiv tafakkurni rivojlantirishning siklik zanjirli kichik prototiplarini generatsiya qilish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalaridan “Boshlang‘ich ta’lim konsepsiyasi” g‘oyalarini amaliyotga tatbiq qilishda foydalanilgan (Maktab va maktabgacha ta’lim vazirligining 2025-yil 22-apreldagi 03-33-1118-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, ijodiy mazmundagi topshiriqlar orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ fikrlashni rivojlantirish metodikasini takomillashtirilishiga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 5 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, 180 sahifa matn, rasmlar, jadvallar, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat.

# **I BOB. BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING KREATIV FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI**

## **1.1-§. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ fikrlashini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida**

Kurrai zaminimizda, insonlarning kelajakda qanday yashashlari, mavjud muammolarni to'g'ri yo'llar bilan hal qilishlari, ayniqsa, hozirgi globollashuv jarayonida, yangi ishlab chiqarish texnologiyalarni joriy qilish asosiy masalalardan hisoblanadi. Hozirgi kunda IT texnologiyalar jadal rivojlanayotgan bir vaqtda, jamiyatda insonlardan tezkor fikrlashi, yangi g'oyalarni o'ylab topishi, kutilmagan noan'anaviy qarorlar qabul qilish talab qilinadi. Binobarin, umumiy o'rta ta'lim maktablari oldida turgan eng katta muammolardan biri o'quvchilarni bilimdon, har tomonlama keng fikrlovchi, aqlli va boy tafakkurga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalashdan iboratdir.

O'tgan asrning oxirida olimlar tomonidan ijodiy va kreativ fikrlash muammosini o'rganish natijasida bildirgan xulosalari pedagogika fani uchun juda umidsiz edi, chunki ularning qarashlariga ko'ra ijodiy va kreativ fikrlash jarayonini nazorat qilish imkonsiz, kreativlik qobiliyati, iste'doddir va iste'dod insonga tug'ilishdan beriladi.

So'nggi yillarda ta'lim tizimi mazmuni hamda uning metodologik asoslarini takomillashtirish yo'nalishida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarga faqatgina muayyan hajm va mazmunda bilim berish, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish ta'lim jarayonida hozirgi zamon talabi uchun ko'zlangan natijani ta'minlamaydi. Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarda ta'lim muhitga kirishuvchanlik, kuzatuvchanlik, faollik, zukkolik, ijodkorlik va kreativlik kabi muhim sifatlarni shakllantirish va rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, o'quv-tarbiya jarayonining didaktik ta'minotini takomillashtirish va ta'lim sifatini oshirish maqsadida, raqamli avlod xarakter va hissiyotlarini nazarda tutuvchi interaktiv pedagogik texnologiyalarni

joriy etish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish dolzarb vazifalardandir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yosh iste’dodlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, madaniyat va san’atga e’tibor qaratish, kitobxonlikni rivojlantirish, raqamli iqtisodiyot va innovatsiyalarni rag‘batlantirishga qaratilgan, jumladan, startaplar, madaniy meros, turizm va kreativ (ijodiy) sohani rivojlantirishga oid qator qarorlari mavjud. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar bilan ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risidagi PF-61-son farmonida ijodkor yoshlar uchun imtiyozlar berishga urg‘u berilgan bo‘lib, bunda “Ijodiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish” bo‘yicha alohida strategiyalar ishlab chiqilgan<sup>6</sup>.

O‘quvchilarning mantiqiy, tanqidiy, ijodiy va kreativ fikrlash qobiliyatini tarkib toptirish uchun eng qulay vaqt boshlang‘ich ta’lim oladigan davri ekanligi ko‘pchilik tadqiqotchilar tomonida ta’kidlangan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida dastlabki og‘zaki nutqning rivojlanishi barobarida ularda mustaqil fikrlash qobiliyati ham jadal sur’atlarda shakllana boshlaydi. O‘quvchilarning dastlab predmet va hodisalarni o‘zaro taqqoslash, tasniflash, umumlashtirish, tizimlashtirishga oid ko‘nikmalari shakllanadi.

Yurtimizda ta’lim-tarbiya va odob-axloq masalalariga azal-azaldan katta e’tibor berilgan. Sharqning buyuk mutafakkirlari, olim-u allomalari qadim-qadimdan ta’lim-tarbiya va adab ilmini chuqur o‘rganib, uning rivojlanishiga munosib hissa qo‘shib kelishgan. Ayniqsa, go‘zal odobli, yaxshi xulqli va hayoli bo‘lishga, nafsni poklashga buyuruvchi muqaddas dinimiz bu sohada juda katta o‘zgarishlarning sababchisidir. Zardushtiylarning muqaddas kitobi “Avesto”da “Ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal” qarashlarda yoshlarni tarbiyalashni ahloqiy-falsafiy mohiyati mujassamlashtirilgan. Muqaddas kitobimiz Qur’oni karimda, sahih hadislarda va ulug‘ allomalarning o‘gitlarida ham inson ma’naviy kamolotining asosi bo‘lgan odob-axloq va ta’lim-tarbiyaning barcha qirralari o‘z ifodasini topgan.

---

<sup>6</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 26.03.2025 yildagi PF-61-son. <https://lex.uz/uz/docs/-7451522>

Har bir insonning faqat o'zigagina xos imkoniyatlari mavjudligi va unga hamisha jiddiy e'tibor berish zarurligi haqida buyuk sharq mutafakkirlari Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug'bek, Yusuf Xos Hojib va boshqa ko'plagan buyuk insonlar o'z zamonlarida qimmatli fikrlarini alohida qayd etib o'tganlar. Yusuf Xos Hojibning "O'quv qayda bo'lsa, ulug'lik bo'lar, bilim qayda bo'lsa, buyuklik bo'lar", Mirzo Ulug'bekning "Ishga yarab qolsa ilming bir muddat, yana oshirmoqni aylagil shiddat", A.Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir"<sup>7</sup> degan purma'no hikmatli so'zlarini eslatib o'tish o'rinli. Bolani tarbiyalash uchun, dastavval, uning "betakror olamiga" kira olish va unga mos keluvchi ta'limiy-tarbiyaviy vositalarini aniqlashtirish hamda qo'llash yo'llarini, usullarini ishlab chiqish lozim. Chunonchi, Abu Nasr Forobiy o'zining izlanishlarida, "pedagogik muammolar va ular bilan bog'liq bo'lgan psixologik, fiziologik jihatlarni ijobiy hal etishda insonning aqliy bilimi, ma'naviyati, tafakkuri, intellektual salohiyati va axloqiy fazilatlari, xarakteri, dini, urf-odati, ma'lumoti tashqi muhit hamda boshqa insonlar bilan o'zaro muloqot jarayonida yuzaga kelishini, har bir inson o'z aqli, fikri, ruhiy yuksalishi yordamida ularni egallaydi, ularga erishadi", – deya ta'kidlaydi<sup>8</sup>. Shuningdek, Al-Xorazmiyning ilmiy qarashlarida muammolarni yechishning tizimli usuli yaratilgan bo'lib, u mantiqiy taffakurga tayangan holda masalani bosqichma-bosqich izchil ketma-ketlikda hal qilishni ta'kidlagan va bu keyinchalik "Algoritm" atamasini kelib chiqishiga asos bo'lgan.

Bahouddin Naqshband ilgari surgan "Dil ba yor-u, dast ba kor" tamoyili tasavvufda dunyodan uzilmaslik, aksincha, qalban Yaratganga bog'langan holda jamiyat uchun foydali bo'lish g'oyasini ifodalaydi. Pedagogik tilda aytganda, bu tarbiyaning ichki (aqliy, ruhiy, qadriyatli) va tashqi (faoliyatli, ijtimoiy,

---

<sup>7</sup> Xabibova U. Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot masalasi // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2024. – T. 4. – №. 1. – С. 200-204.

<sup>8</sup> Казибердов А.Л., Муталибов С. А. Абу Наср ал-Фараби // Исследования и переводы. – 1986. – Т. 13. – №. 2.

xizmatkorona) komponentlarini uzviy bog‘lashni anglatadi<sup>9</sup>.

J.S.Ramatovning “Xorazm vohasida ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixi: o‘rta asrlar va yangi davr” mavzusida ilmiy-amaliy anjumanidagi “IX-XI asrlarda Xorazmda ilmiy-madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot” mavzusidagi ma’ruzasida ilk o‘rta asr mutafakkirlari, xususan, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Al-Xorazmiylarning nochiziqli yondashuvlariga to‘xtalib, mutafakkirlar o‘z davrining ijodkor shaxsi, ya’ni hozirgi kundagi kreativ shaxs sifatida ijod etganlarini ta’kidlaydi. Allomalardagi mavjud bo‘lgan nochiziqli yondashuv tafakkuri davrlar oshsa ham o‘zining dolzarbligini bugungi kunda ham yo‘qotmagan, aksincha, zamonlar osha talab darajasiga aylanib borayotganini bildiradi<sup>10</sup>.

Dunyoning bir qator mamlakatlarida (AQSh, Rossiya, Fransiya, Germaniya va boshqalar) kreativ fikrlashni rivojlantirish muammolarini o‘rganish, ayniqsa, jadal sur’atlarda rivojlanmoqda. Olimlar tomonidan o‘tgan asrning ikkinchi yarmida olib borilgan tadqiqot natijalari asosan empirik topilmalar, farazlar va nazariy pedagogik jihatda to‘la asoslanmagan tushunchalar mahsuli edi. Keyinchilik kreativlik tushunchasi pedagogik nuqtayi nazardan qayta ko‘rib chiqishni taqozo etgan. Jumladan, bir qator mualliflar (I.Shtayn<sup>11</sup>, A.Rotenberg, K.R.Hausman, A.Xatson va boshqalar) kreativlikning o‘ziga xos ta’rifini berib, ularning yondashuvlarida, bildirilgan fikrlarida umumiylik mavjud emas, ya’ni ular kreativlikni turlicha tasniflaganlar. A.Rotenberg va K.Hausmanlar “Biz kreativ faoliyat va yangilikning mezon xususiyatlariga ega deb taxmin qildik<sup>12</sup>” deya ta’kidlashadi.

So‘nggi yillarda xorijlik psixologlar, pedagoglar, faylasuf va sotsiologlarning ko‘plab guruhlarini inson tafakkuri, ijodiy va kreativ fikrlash muammolarini o‘rganishga alohida e’tibor qaratdilar. Ushbu guruh olimlarning

---

<sup>9</sup> Aqilxonov S.A. Naqshbandiya ta’limidagi “Dil ba yor-u, dast ba kor” tamoyilining zamonaviy tarbiya nazariyasidagi talqini // “Zamonaviy dunyoda ijtimoiy fanlar: nazariy va amaliy izlanishlar” nomli ilmiy, masofaviy onlayn konferensiya. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17512498>. – 62 b.

<sup>10</sup> Ramatov J.S. IX-XI asrlarda Xorazmda ilmiy-madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot // “Xorazm vohasida ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixi: o‘rta asrlar va yangi davr” mavzusida ilmiy-amaliy anjuman. Urganch, 2024. – 21 b.

<sup>11</sup> Stein M.I. Creativity and Culture. – New York: Harper & Brothers, 1953. – 241 p.

<sup>12</sup> Rothenberg A., Hausman C.R. The Creativity Question. – Durham, NC: Duke University Press, 1976. – 448 p.

ishlarini turli monopoliyachilar va konsern (ilmiy tadqiqot markazlari) egalari sahiylik bilan subsidiyalashtirganlar (moliyalashtirganlar). Xususan, so‘nggi yillarda kreativ fikrlash muammosi bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Kreativlik hodisasi turli pozitsiyalarda o‘rganilgan, ya’ni ijodkorlik va kreativlikni o‘rganuvchi pedagogik yondashuvlar ishlab chiqilgan, kreativlik va kreativ fikrlash qanday hodisaligi to‘g‘risida gipotazalar ilgari surilgan va ko‘rib chiqilayotgan konsepsiyaning konseptual (kasbiy-pedagogik faoliyatning nazariy asoslarini tushunish, pedagogik metodologiya sohasiga oid umumiy, falsafiy yondashuvlarni egallash<sup>13</sup>) apparatini ishlab chiqishga urinishlar qilingan.

Shu sohada shug‘ullanayotgan ko‘pgina olimlarning fikriga ko‘ra, kreativlik har bir kishiga ozmi-ko‘pmi xosdir: shaxs o‘zini namoyon qilish, yangilikka intilish, yangi, o‘ziga xos g‘oyalarni amalga oshirish istagi bilan ajralib turadi. Shaxs kreativligining muhim tarkibiy qismi bu *harakat qilish istagi – yangilik yaratish – faol harakat* mahsulidir.

G‘arb olimlari M.Csikszentmihalyi<sup>14</sup>, R. Sternberg<sup>15</sup>ning asarlariga tayangan holda, kreativ shaxs – bu tinchlikni bilmaydigan odam. U juda intizomli emas, ko‘p narsalarni shubha ostiga qo‘yadi, qiziquvchan va keng qiziqishlarga ega. Ko‘pincha, u hazil tuyg‘usiga ega va hatto u o‘zining ustidan kulishga ham qodir, go‘zallik tuyg‘usiga ega. Ko‘p hollarda kreativ odam o‘z qarorlariga bog‘liq emas, boshqalarni dunyo haqidagi tasavvurlariga moslashtirishga harakat qiladi. U nimani bilishini va nimani bilmasligini aniq biladi, aynan shu sifat uning faoliyatini boshqaradi, yangi savollar tug‘diradi, yangi kashfiyotlarga olib keladi. Kreativ shaxs yangi samarali g‘oya bilan birga bo‘lishga qodir, garchi bu uning qarashlariga zid bo‘lsa ham, lekin shu bilan birga u boshqalarning nuqtayi nazarini qabul qilmasligi mumkin bo‘lgan darajada mustaqil va mustahkamdir. Bir qarashda u yangi farazlarni ilgari surishga qodir, guruhda insonlar bilan qanday ishlashni juda yaxshi biladigan shaxs.

---

<sup>13</sup> Mamurov B.B., Davronov I.E. Pedagogik kompetentlik. – Buxoro. “Durdona”. 2021. – 232 b.

<sup>14</sup> Csikszentmihalyi M. Creativity: Flow and the Psychology of Discovery and Invention. – New York: Harper Collins, 1996. – 456 p.

<sup>15</sup> Sternberg R. J. The Nature of Creativity. – Cambridge: Cambridge University Press, 1988. – 512 p.

Biz inson tafakkurining rivojlanish jarayonini tarkibiy va funksional elementlardan tashkil topgan va energiya manbayiga ega bo'lgan o'z-o'zini rivojlantiradigan ta'lim tizimida amalga oshirilishini aniqladik, bunda tizimli yondashuvdan foydalanib, biz tizimning elementi sifatida kreativlikni ajratdik. Rus olimi L.Veritinnikova kreativlik tushunchasini aniqlab, uning "zamonaviy sharoitda ahamiyatini ko'rsatib, uni ta'lim tizimining o'quvchi va subyektlar orasida rivojlantirish imkoniyatini ko'rib chiqish zarur" deya e'tirof etadi<sup>16</sup>.

Shu o'rinda O'zbekiston xalq shoiri, yozuvchi va jurnalist Anvar Obidjonning ijodkorlik va kreativlikning cheksiz imkoniyatlari haqidagi fikr, g'oyalarini bir qator ijod mahsulida, xususan, quyidagi "Tafakkur" she'rida ham ko'rishimiz mumkin:

"Ko'z ilg'amas ummonning bor adog'i,  
Bog'-u dala, o'rmonning bor adog'i,  
Hatto moviy osmonning bor adog'i,  
Ammo oliy tafakkurda sarhad yo'q.

Poyon bordir barcha azim daryoda,  
Poyon bordir tog'larda-yu sahroda.  
Poyon bordir hatto yorug' dunyoda,  
Ammo faraz deganlarda sarhad yo'q<sup>17</sup>".

Kreativ fikrlash muammoga kutilmagan yechim topish hamda uni hal qilishda xilma-xil usullari va metodlarining qo'llash, noodatiy xulosalarga kelish va shu asnoda insonning o'z ustida mustaqil ishlash va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga olib keladi. J.P.Gilford kreativlikning asosini umumiy ijodiy salohiyat tashkil etadi va bu asosda kreativ fikrlash rivojlanadi deb tushuntiradi<sup>18</sup>. J.P.Gilfordning<sup>19</sup> mavzuga doir asarlarini tahlil qilganimizdan

---

<sup>16</sup> Веретенникова Л. К. Подготовка будущих учителей к формированию творческого потенциала школьников [Текст]: диссертация ... доктора педагогических наук : 13.00.01 Количество страниц . – С. 340.

<sup>17</sup> Obidjon A. "Ey, yorug' dunyo..." Qissa. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti. 1983. – 64 b.

<sup>18</sup> Гилфорд Дж. Три стороны интеллекта // Психология мышления. – М., 1969. – С. 433-456.

<sup>19</sup> Guilford, J. The nature of human intelligence / J. Guilford – New York : Graw Hill. 1968. – 334 p.

so'ng, kreativ fikrlashning bir qator asosiy sifat va tamoyillarini ajratib ko'rsatishimiz mumkin bo'ladi. Kreativ fikrlash to'rtta asosiy tamoyillari bilan ajralib turadi: tezkorlik, moslashuvchanlik, originallik va aniqlik. Kreativ fikrlashning tamoyillariga quyidagicha ta'rif berib o'tamiz:

– tezkorlik – ma'lum bir vaqt ichida eng ko'p miqdordagi g'oyalarni ifoda eta olish va qaror qabul qilishga zamin tayyorlay olish qobiliyati. Bunda ularning sifati emas, balki ularning miqdori muhim ahamiyat kasb etadi.

– moslashuvchanlik – keng tasavvurga ega g'oyalarni ifoda eta olish qobiliyati. Tafakkur moslashuvchanligining bir nechta shakllarini quyidagicha ta'riflash mumkin:

a) semantik moslashuvchanlik, ya'ni obyektning yangi nuqtayi nazardan ko'ra olish, undan har qanday holatda foydalana olishni aniqlash, funksional va amaliy qo'llanilishini kengaytirish qobiliyati;

b) obrazli adaptiv moslashuvchanlik: obyekt haqidagi odatiy idrokni va an'anaviy fikrlashni o'zgartirish, uning yangi, zamon va davr talablariga chambarchas bog'liq bo'lgan yashirin tomonlarini ko'ra olish qobiliyati;

d) semantik spontan moslashuvchanlik: mavhum va noaniq vaziyatlarda, xususan, ushbu g'oyalar uchun ko'rsatmalar mavjud bo'lmagan holda, noan'naviy turli xil g'oyalarni yarata olish qobiliyati.

– originallik – yangilik, notriviallik<sup>20</sup>, noodatiy g'oyalar o'ylab topish. U umumiy qabul qilingan me'yorlardan farq qiladigan javoblarda ham namoyon bo'lishi mumkin.


– aniqlik – yakunlanganlik, o'z xulosalari natijasiga mukammallik yoki yakunlanganlik ko'rinishini bera olish qobiliyati (1.1-rasm).

Ilmiy manbalarda "kreativ fikrlash" tushunchasi ko'pincha "ijodkorlik" va "yaratuvchanlik" atamalarini bilan izohlanadi. Mazkur tushunchalar mazmunan bir-biriga yaqin bo'lsa-da, ular aynan bir xil ma'noni anglatmaydi. Yaratuvchanlik va ijodkorlik shaxsda izlanuvchan xulq-atvor hamda yangicha yondashuvlarning

---

<sup>20</sup> Notriviallik – bu yechim, g'oya yoki hodisaning sodda, oson va oldindan ma'lum bo'lmaganligi; u o'zida yangilik, noodatilik va murakkablik elementini mujassam etadi.

shakllanishiga xizmat qiladi, biroq hosil bo'ladigan g'oyalarning barchasi ham amaliy va samarali bo'lavermaydi. Shu jihatdan, g'oyalar xilma-xilligi ijodkor shaxslarga xos fikrlashning muhim belgisi sifatida qaraladi. Kreativ fikrlash esa yanada kengroq tushuncha bo'lib, uning negizida noodatiy va original fikrlarni ilgari surish qobiliyati, ya'ni ijodkorlik yotadi.



### 1.1-rasm. Kreativ fikrlashning xususiyatlari va asosiy fazilatlarini

Qayd etilgan psixologik hodisaning mazmun va mohiyatini, uning diagnostikasi va shakllanishining murakkabligini aks ettiradigan divergent fikrlash<sup>21</sup> konsepsiyasini aniqlashda ko'plab yondashuvlar mavjud.

Ijodkorlik va kreativlik individual tarzda ta'lim topshiriqlarini o'rganish, ularga yechim izlash, muammoli vaziyatlarni nostandart qaror qabul qilish jarayonida rivojlanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini divergent fikrlashga

<sup>21</sup> Divergent fikrlash – bu ijodiy fikrlashning bir shakli bo'lib, mavjud masala yoki vaziyatga bir nechta, turlicha va noodatiy yechimlar topishga yo'naltirilgan fikrlash jarayonidir.

yo‘naltirilgan vaziyatlar bilan tanishtirish natijasida, ular ta‘lim jarayoniga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi<sup>22</sup>.

Zamonaviy ta‘lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarga nafaqat bilim berish, balki ularning erkin, noodatiy va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim pedagogik muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda. Chunki boshlang‘ich ta‘lim bosqichi shaxs tafakkurining shakllanishida asos bo‘lib, aynan ushbu davrda o‘quvchilarda fikrlashning konvergent tafakkur<sup>23</sup>, tasavvur doirasi va yangicha yondashuv ko‘nikmalari rivojlanadi (L.S.Vygotskiy, J.Piaje).

Pedagogik tadqiqotlarda kreativ fikrlash, muammoni yechishning samarali tarzda hal etish, yangi va original fikrlarni ilgari surish qobiliyati sifatida talqin qilinadi. Ushbu qobiliyatning shakllanishi divergent va konvergent tafakkur jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, divergent tafakkur ko‘plab g‘oyalarni ishlab chiqishga, konvergent tafakkur esa ularning ichidan eng maqbul yechimni tanlashga xizmat qiladi. Biroq an‘anaviy boshlang‘ich ta‘lim amaliyotida, asosan, konvergent, ya‘ni yagona chiziqli yondashuv ustuvor hisoblangan va shu boisdan faqat to‘g‘ri javobga yo‘naltirilgan topshiriqlar berilgan, bu holat o‘quvchilarning ijodiy fikrlash imkoniyatlarini cheklab qo‘ymoqda (D.B.Bogoyavlenskaya).

Shu nuqtayi nazardan kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish masalasi pedagogik jihatdan murakkab muammo hisoblanadi, chunki u nafaqat bilim mazmuni, balki o‘quv faoliyatining tashkil etilishi, metod va vositalarning tanlanishi, shuningdek, pedagogik muhitning xususiyatlari bilan ham belgilanadi. A.M.Matyushkin ta‘kidlaganidek, ijodiy fikrlash faqat tayyor bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida emas, balki muammoli vaziyatlarni anglash va ularni mustaqil hal etish jarayonida shakllanadi.

---

<sup>22</sup> Adizova N.B. Zamonaviy ta‘limda divergent idrok nazariyasining psixopedagogik tahlillari masalasi. “Pedagogik mahorat” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2023. № 8. – 12-16 b.; Adizova N.B. Development of Divergent Thinking in Students by Teaching Methodology of Study Lessons. European International Journal of Pedagogics, 2024. 4(11). – P. 31-35.; Adizova N.B. The Place of Concepts Such as Creativity and Intelligence in Divergent Thinking. European International Journal of Pedagogics, 2025. 5(04). – P. 175-178.

<sup>23</sup> Konvergent tafakkur – bu muammoni mantiqiy tahlil qilish, mavjud ma‘lumotlarga tayangan holda eng to‘g‘ri, yagona va optimal yechimni topishga yo‘naltirilgan fikrlash turidir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh-psixologik xususiyatlari ham mazkur muammoni alohida pedagogik yondashuv asosida ko'rib chiqishni taqozo etadi. Ushbu yosh davrida bolalarda obrazli va intuitiv tafakkur ustuvor bo'lib, ular abstrakt mantiqiy tahlildan ko'ra vizual, o'yin va amaliy faoliyat orqali samaraliroq o'rganadilar (V.V.Davidov). Shu sababli kreativ fikrlashni rivojlantirish metodikasi ham o'quvchilarning tabiiy bilish ehtiyojlari va faoliyatiga mos bo'lishi zarur.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, respublika va xorijiy pedagogik amaliyotda kreativ fikrlashning ahamiyati e'tirof etilgan bo'lsa-da, uning boshlang'ich ta'limdagi rivoji ko'pincha umumiy tavsiyalar darajasida qolib ketgan. Divergent va konvergent tafakkurni uyg'unlashtiruvchi, dizayn tafakkuri va simulyatsion prototiplashga tayanadigan, o'quvchining fikrlash jarayonini ongli ravishda boshqarishga imkon beruvchi yaxlit metodik tizim yetarli darajada ishlab chiqilmagan (Y.A.Ponomaryov, R.Paul, L.Elder).

Shu bois boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ fikrlashni rivojlantirish masalasi bugungi kunda mustaqil pedagogik muammo sifatida namoyon bo'lib, u zamonaviy ta'lim talablariga javob beruvchi yangi metodik yondashuvlarni ishlab chiqishni taqozo etadi. Mazkur tadqiqot ana shu pedagogik muammoni hal etishga yo'naltirilgan bo'lib, kreativ fikrlashni boshqariladigan va bosqichma-bosqich rivojlantiriladigan jarayon sifatida talqin etadi.

Mamlakatimizda bolalarni o'qitishda ilg'or xorijiy mamlakatlar ta'lim texnologiyalaridan foydalanish tizimini "sifat bosqichi" rejimiga o'tkazish va rivojlantirish uchun zarur bo'lgan mazmunli hamda tarkibiy o'zgartirishlarni ta'minlab borish bugungi va ertangi ta'limning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Albatta, bu kabi o'zgarishlarning maqsadi ta'limning paradigma (paradigma -grekcha – "namuna, andoza" – ilmiy yutuqlar majmui. Paradigma u yoki bu davrda ilmiy hamjamiyat tomonidan tan olingan va yangi ilmiy tadqiqot uchun namuna asos bo'lib xizmat qilishi zarur <sup>24</sup>)sini o'zgartirish, yangi

---

<sup>24</sup> Bo'ronov S. O'zbekiston geosiyosati. O'quv qo'llanma. – Toshkent: «EFFECT-D», 2021. – 220-b.

metodologik ta'minotini ishlab chiqish va takomillashtirib borish zarurligini ko'rsatib bermoqda.

Xulosa qilib aytganda, globallashtirish sharoitida ta'lim sohasini mazmunan yangi bosqichga olib chiqish, avvalo, tizimli va o'zaro hamkorlikka asoslangan yondashuvni talab etadi. Bu jarayonda ta'lim maqsadi, jarayoni va natijalari o'zaro uyg'unlikda tashkil etilishi, yangilanib borayotgan boshlang'ich ta'lim birliklarini fanlar integratsiyasi asosida samarali yo'lga qo'yish, metodik va texnologik yondashuvlar hamda amaliy tajribalar ko'lamini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ fikrlashni rivojlantirish va shaxsga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan pedagogik ta'limdagi o'zgarishlar ustuvor vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda.

Mazkur pedagogik omillar boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ fikrlashni rivojlantirish bilan bog'liq muammolarni tizimlashtirishga xizmat qiladi. Jumladan, ta'limning asosiy yo'nalishlarini saqlab qolgan holda o'quvchilarda o'z-o'zini rivojlantirish maqsadining yetarli darajada shakllanmaganligi, o'quv fanlarining parchalanishi natijasida ta'lim tajribasining yaxlitligi buzilishi mazkur jarayonga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, ta'lim jarayonida bilimga haddan tashqari urg'u berilishi o'quvchilarning tashabbuskorligi, qiziquvchanligi, ijodiy salohiyati va individualligini cheklaydi. Bu holat fanlararo uzilishlarda namoyon bo'ladigan "oqim" effekti hamda reproduktiv faoliyatning ustunligi bilan bog'liq "ko'payish" effekti orqali samarali faoliyatga to'sqinlik qiluvchi omil sifatida baholanadi.

Yuqoridagi kabi sabab va omillarning barchasi, bizning fikrimizcha, boshlang'ich ta'limning ta'lim tizimi sifatida o'zgartiruvchanligini aks ettiradi, bu esa o'z navbatida o'quvchilarning avtoritar, me'yoriy-majburiy o'zaro ta'siridan ustun foydalanishini anglatadi, bunday holatda bilim oluvchilar faqat passiv-ijro etuvchi rolni bajaradi. Demak, boshlang'ich ta'limdagi "shaxsiylashtirish", "parchalanish", "tekislash" va boshqa salbiy tendensiyalarning yuzaga kelishiga

sharoit yaratmaslik maqsadida o‘quvchilarni kreativ fikrlashga o‘rgatish zarurligini taqozo etadi.

Har bir bolaning subyektivligini qabul qilish, uning shaxsiyatini rivojlantirish, ota-onalarini va bolaning o‘zi tomonidan akademik, ijtimoiy, kommunikativ, istiqbollari va tegishli ta‘lim vazifalarini belgilashni nazarda tutadigan ta‘lim tizimining samaradorligini asosiy mezon sifatida qabul qilishdan iborat<sup>25</sup>.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ fikrlashni rivojlantirishga to‘sqinlik qilayotgan salbiy tendensiyalarni bartaraf etish maqsadida boshlang‘ich ta‘limning yangi maqsadlari belgilab olinmoqda. Ular, avvalo, o‘quvchini faol subyekt sifatida rivojlantirishni, ya‘ni tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, erkin va tavakkalona g‘oyalarini ifodalashga sharoit yaratish, mustaqil fikrlash hamda ijobiy o‘z-o‘zini baholashni rivojlantirishni nazarda tutadi. Shuningdek, o‘quvchining individualligini saqlash va uni qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu esa boshlang‘ich ta‘limni yangilash jarayonida ko‘zlangan maqsadlarni amalga oshirish uchun o‘quvchilarda bilim, ko‘nikma va malaka kabi kompetensiyalarni egallashlarini hamda intellektual rivojlanishini ta‘minlovchi muayyan psixologik va pedagogik shart-sharoitlarga rioya etishni taqazo qiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ fikrlashni shakllantirish va rivojlantirish metodikasiga oid mavjud tadqiqotlar tahlili bir qator muhim masalalar xususida xulosalarni chiqarishga imkonini beradi, ya‘ni o‘quv jarayonida o‘quvchining subyekt sifatida shakllanishiga erishish va mustaqillik, tashabbuskorlik va adekvat o‘z-o‘zini baholashning rivojlanishini ta‘minlash. Shu bilan birga, umumiy o‘rta ta‘limda kompetensiyalar, umumta‘lim ko‘nikmalari (muloqot, hamkorlik, o‘quv va kognitiv vazifalarni belgilash hamda hal etish) hamda asosiy fan ko‘nikmalarini (o‘qish, yozish, nutq va hisoblash) shakllantirishga ustuvor e‘tibor qaratilishi lozim.

---

<sup>25</sup> Nafasov D.Sh., Axmedova G.F., Yusupova F.X., Saidmuratova M.B. Inklyuziv ta‘lim. Gospital pedagogika. – Toshkent: “BOOKMANY PRINT”, 2025. – 48 b.

Shuningdek, ta'lim mazmunini samarali o'zgartirishning muhim sharti sifatida boshlang'ich sinf o'qituvchilari va o'quvchilar o'rtasidagi avtoritar munosabatlarga asoslangan yopiq modeldan voz kechish zarurligi ta'kidlanadi.

Boshlang'ich ta'limda ta'lim mazmunini o'zgartirishga qaratilgan yo'nalish qanchalik haqiqiy ekanligini tushunish uchun boshlang'ich ta'limning Davlat ta'lim standartini tahlil qilishga to'xtalib o'tamiz.

Ta'limni takomillashtirish konsepsiyasi doirasida umumiy o'rta ta'lim Davlat ta'lim standarti zamonaviy ta'lim mazmuni va natijalarini yangilashni talab qiladi. Ushbu me'yoriy hujjat boshlang'ich ta'limning shaxsga yo'naltirilgan rivojlanish komponentlarini amalga oshirish va quyidagi maqsadlarga erishishni nazarda tutadi:

**1. Ta'limiy maqsadlar:** o'quvchining shaxsiyatini va qobiliyatlarini rivojlantirish, o'rganishga o'rgatish va o'zini o'zi tarbiyalashni rag'batlantirish, ijobiy o'z-o'zini baholashni shakllantirish.

**2. O'quv maqsadlari:** bilim, ko'nikma va malakalarni egallash, faoliyat turlari bo'yicha tajriba orttirish, umumiy ta'lim qobiliyatlari va faoliyat usullarini o'zlashtirish.

**3. Tarbiyaviy maqsadlar:** sog'likni mustahkamlash, o'quvchining individualligini qo'llab-quvvatlash, axloqiy-estetik tuyg'ular va kreativ fikrlashni tarbiyalash, shuningdek, o'ziga va atrof-muhitga ijobiy munosabatni rivojlantirish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish, aqliy salohiyatini tarbiyalash kabi maqsad Davlat ta'lim standarti mazmunida aks ettirilgan bo'lsa-da, maxsus a'lohida ustuvor yo'nalish sifatida ko'rsatilmagan.

Boshlang'ich ta'lim mazmunida yangi birliklarni ajratishni anglatadi. Shu munosabat bilan turli xil faoliyat turlari tajribasini boyitish, fanlararo aloqalar va integratsiya orqali, ta'lim mazmunidagi nazariy va amaliy tarkibiy qism o'rtasidagi muvozanatni saqlash orqali amalga oshiriladigan boshlang'ich ta'limning faol

amaliy mazmunining ustuvorligini qayd etish muhimdir<sup>26</sup>.

Boshlang'ich ta'lim tizimi mazmunini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, o'quvchida kreativ fikrlashni rivojlantirish, uning individualligini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish, uning odamlar va dunyo bilan munosabatlar subyektivi sifatida rivojlanishi shular jumlasidandir. Ta'lim mazmunining yangiligi bilim, ko'nikma va qobiliyat mazmunining yangi umumlashtirilgan – kompetensiyaga integratsiyalash bilan amalga oshiriladi.

Davlat ta'lim standarti talablari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ fikrlashini rivojlantirish metodikasini tahlil qilish bir qator qarama-qarshiliklarni aniqlashga imkon beradi. Avvalo, boshlang'ich ta'lim mazmunini innovatsion asosda yangilash jarayonida umumiy ta'lim ko'nikmalarini aniq tavsiflash zarurati mavjud bo'lib, ko'plab dasturlar va materiallarda ularning kognitiv faoliyat (kuzatish, taqqoslash, o'lchash) va amaliy kundalik ko'nikmalar asosida aniqlanishi lozim. Shuningdek, ta'lim hamkorligini rivojlantirish va o'quv muloqotida ishtirok etish istagi mavjud bo'lsa-da, tegishli ko'nikmalar Davlat ta'lim standarti matnida minimal darajada ifodalangan. Bundan tashqari, ta'lim maqsadlari va natijalarini yangilashga bo'lgan intilish bilan boshlang'ich ta'lim fanlari mazmunida tub o'zgarishlarning yetishmasligi o'rtasidagi nomuvofiqlik, bizning fikrimizcha, o'quv jarayonida ta'limni shaxsga yo'naltirish va rivojlantirish imkoniyatlarini to'liq ta'minlay olmaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ fikrlashini metodik rivojlantirish jarayonida shaxsiy tajriba subyektiv xarakterga ega bo'lib, odamlar va atrof-muhitni idrok etish hamda tushunish orqali orttiriladigan hayotiy tajribani ifodalaydi. Bu tajriba har doim ma'lum bir shaxsga tegishli bo'lib, avtobiografik, kundalik yoki tabiiy ravishda yuzaga keladigan xususiyatga ega. Shu bois, boshlang'ich sinf o'qituvchisi uni bevosita o'quv jarayonining obyektivi sifatida o'rganmaydi, balki subyektiv tajribaning tashuvchisi sifatida rol o'ynaydi.

---

<sup>26</sup> Abdirimov I.A. Boshlang'ich sinf o'quvchilari kreativ fikrlashini rivojlantirishning psixologik va pedagogik xususiyatlari. // Yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiyasi. 2024. – 22-24 b.

Boshlang'ich ta'limning ma'lum bir ijtimoiy tajribani allaqachon mavjud bo'lgan subyektiv tajriba bilan uchrashuv sifatida izohlaydi, uning davomida o'zgarishi, aniqlanishi, ishlatilishi, boyitilishi va madaniyati sodir bo'ladi. Umumiy o'rta ta'lim maktabining asosiy vazifasi o'quvchilarning kreativligini ijtimoiy-tarixiy tajriba natijalari bilan boyitish orqali uni maksimal darajada aniqlash, amaliyotga joriy qilish va kompetensiyalarni egallashdir.

Boshlag'ich sinf o'quvchisining fikrlari, his-tuyg'ulari, xatti-harakatlari, shaxsiy yo'nalishlarini bugungi kun talabi darajasida yo'naltiradigan tarbiyaviy kuchga ega deb hisoblaymiz. Taassurotning hissiy mohiyati shundaki, boshlang'ich sinf o'quvchisi taassurotlar ostida dunyoni harakatga keltiradi, o'ylaydi, idrok etadi, hissiy va irodaviy komponent boshlang'ich ta'limda pedagogik vaziyatlar o'quvchining shaxsiy va yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda bevosita to'plangan tajribasi materialiga asoslanishi kerak.

## **1.2-§. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ fikrlashini rivojlantirishning pedagogik-psixologik jihatlari**

Zamonaviy ta‘lim tizimida ta‘lim mazmuni va metodik ta‘minot uzluksiz takomillashtirilmoqda. Ilmiy tadqiqotlar ta‘lim jarayonida faqat bilim va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish bilan cheklanib qolish yetarli emasligini ko‘rsatmoqda. Shu bois boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijtimoiy tajribasi, kreativ va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish ta‘lim jarayonining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, ta‘lim jarayonining metodik tarkibini boyitish, pedagogik texnologiyalarni samarali qo‘llash va ta‘lim muhitini optimallashtirish orqali pedagogik metodologiyani <sup>27</sup> takomillashtirish dolzarb muammoligicha qolmoqda.

O‘quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish muammosi alohida dolzarblik va ijtimoiy ahamiyatga ega. Bugungi kunda mamlakatimizda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni o‘rnatish nafaqat ilg‘or ilmiy, texnik va texnologik g‘oyalarning boshqaruvchisi bo‘lgan mutaxassislarning malakasiga bog‘liq, balki ko‘p jihatdan ularning kreativ fikrlash darajasi bilan belgilanadi. Sivilizatsiya rivojlanishining hozirgi bosqichida O‘zbekistonning jahon hamjamiyati taraqqiyotida faol ishtirok etish zarurati ham paydo bo‘ldi.

Hozirgi ilm-fan nafaqat haqiqatlar to‘plamini, balki ularga prognostik xususiyat beruvchi kognitiv va transformatsion jarayonlar majmuasini ham o‘z ichiga oladi.

Ilmiy bilimlarning tuzilishi va mohiyati haqidagi zamonaviy falsafiy hamda ilmiy qarashlar an’anaviy yondashuvlardan sezilarli darajada farq qiladi.

Ilm-fan sohasidagi mutaxassislar ilm-fan rivojlanishining qonuniyatlarini o‘rganib chiqib (so‘zning keng ma‘nosida), ilmiy bilimlarni o‘zlashtirishning ijtimoiy protseduralari mavjud degan xulosaga kelishdi: yangisini aniqlash, uni qayta ishlash, tuzish, transformatsiya va boshqalar. Jahon hamjamiyatining

---

<sup>27</sup> Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. – T.: “Sani-standart” nashriyoti, 2017-yil, 416 b

iqtisodiy, ijtimoiy rivojlanishidagi keyingi taraqqiyot tobora dinamik va ilm-fanni talab qiladigan xarakterga ega bo'lmoqda.

Ilmiy bilimlar tuzilishiga, fan va ishlab chiqarishning o'zaro ta'siri natijasida yangi bilimlar o'quv jarayonining mazmun-mohiyatini qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Ta'lim endi o'qituvchi va o'quvchilar, shuningdek, o'quvchilarning o'zaro faol va kreativ, samarali, intellektual ta'siri sifatida qaraladi. Maktabgacha davrda asosiy faoliyat bolalar uchun ixtiyoriy va minimal jismoniy harakatlar hamda sodda aqliy zo'riqish talab qiladigan o'yinlardan iborat bo'lgan ta'lim-tarbiya jarayoni edi.

Bugungi kunda tizimli o'quv mashg'ulotlari boshlang'ich sinf o'quvchisini ilgari o'zlashtirgan xatti-harakatlar va yangi turmush sharoitlari o'rtasidagi tafovut sababli turli ziddiyatlar bilan yuzma-yuz qiladi.

Tadqiqot mavzusini mazmunini tashkil qilgan "kreativlik", "kreativ faoliyat" va "kreativ fikrlash" tushunchalarining mohiyati aniqlash uchun ilmiy tadqiqotlar va ularni izohlari o'rganildi. Psixologik va pedagogik adabiyotlar tahlili ushbu tushunchalarni tavsiflovchi bir qator muhim yo'nalishlar toifalarni ko'rsatadi. Bugungi kunda kreativlikning dolzarbligi butun dunyoda oshgan bo'lib, ilmiy rivojlanish, fan va ishlab chiqarishning integratsiyasi hamda g'oyalar va texnologiyalarning doimiy yangilanishi bilan bog'liq.

Kontent tahliliga ko'ra, "kreativlik" so'zi yoki iborasi pedagogika, psixologiya, sotsiologiya, falsafa va siyosatshunoslikda eng ko'p ishlatiladigan atamalardan biridir. Mazmunan kreativ fikrlashning samaradorligi aqliy qobiliyat darajasiga bog'liq bo'lib, yuqori intellektual solohiyatga ega subyektlarda ham ba'zan kreativlik past bo'lishi mumkin. Umuman olganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari nafaqat ularning rivojlanish xususiyatlariga, balki o'quv-tarbiya muhiti, mazmuni va metodik vositalardan samarali foydalanuvchi o'qituvchining mahoratiga ham bevosita bog'liqdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ fikrlashini rivojlantirish nafaqat maxsus fan bilim va ko'nikmalarini egallashga, balki umumiy savodxonlikni

oshirishga qaratilgan faoliyatdir. Ushbu ta'limiy maqsadlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- o'quvchilarning barcha a'zolari mukammal taraqqiy etgan bo'lish;
- mustaqil va o'zini o'zi tashkil etish, nazorat qilish ko'nikmalarini shakllantirish;
- muammoni tez va to'g'ri tushunadigan, uning ma'nosini anglay olishi qobiliyatlarini shakllantirish;
- so'zlari aniq, fikri va aytmoqchi bo'lgan mulohazalari ravon bo'lish, muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirish;
- bilim olishga chanqoqlik, kreativ fikrlashning yuqori darajasini egallash;
- xotirasini kuchaytirish, intellektual solohiyatini rivojlantirish, shaxsiy, kommunikativ va axborot sohalarida bilimlarini shakllantirish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ fikrlashini rivojlantirish asosan o'qitish samaradorligi bilan, boshqa tomondan, ta'lim mazmuni bilan bog'liq. Nazarimizda, bunday paydo bo'ladigan qobiliyat "rasmiy bilim qobiliyati" emas, balki samarali harakat qilish, turli xil muammolarni hal qilish uchun o'zlashtirilgan tajribadan nihoyatda sezgirlik bilan foydalanish muhimligini anglatadi. Natijadorlikni ta'minlovchi asosiy ko'nikmalar: kommunikativ, kognitiv, amaliy-faoliyatli, qiymatga yo'naltirilgan va boshqalardir.

O'tkazgan pedagogik tahlillarimiz, boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ fikrlashni rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari raqamli avlodning "kulminatsiya"ga intilishini ta'minlashda biz "ijodkor o'quvchi" loyihasini amalga oshirishni bosh omil deb hisobladik va uning dasturini ishlab chiqdik.

Kreativlikni rivojlantirish murakkab tuyulishi mumkin, chunki u standart bilim va amaliyotlar orqali samarali uzatilmaydi. Biroq har bir inson maqsadli va izchil mashqlar orqali kreativ qobiliyatlarini shakllantirishi mumkin. Ba'zilar bu qobiliyat keng rivojlansa, ba'zilar cheklangan bo'lishi mumkin, lekin har bir bola faoliyatda kreativ yondashuvni rivojlantira oladi.

Kreativlik subyektlari ijtimoiy munosabatlarning har qanday sohasida kuzatilishi mumkin. Kreativlik – bu obyektiv yoki subyektiv ravishda sifat

jihatidan yangiliklarni keltirib chiqaradigan jarayondir. Bu yangi kashfiyotga qaratilgan<sup>28</sup>.

Kreativlik muammoli vaziyatda harakat qilish qobiliyatini, oldindan bilmagan holda, ya'ni namunalarsiz kutilgan natijaga erishish qobiliyatini anglatadi. Bu turli xil hodisalardagi o'xshash xususiyatlarni va juda o'xshash obyektlardagi sezilarli farqlarni ko'rish qobiliyatidir. Bu bilim va tajribani yangi vaziyatga o'tkazish qobiliyati, mavzuning tuzilishi va uning boshqa funksiyalari haqidagi tasavvurlar, qo'yilgan vazifaga muvofiq harakat usulini moslashuvchan ravishda o'zgartirish qobiliyati. Kreativlik bilim, ko'nikma, hal qilinadigan muammolar va vazifalarning turlari va chuqurligi kengayishi bilan boyitiladi hamda rivojlanadi. Kreativlikni rivojlantirish – bu shaxsni maqsadli va har tomonlama rivojlantirish hamda tarbiyalashning integral jarayonidir.

Ko'pincha kundalik ongda kreativlik turli xil badiiy faoliyat turlari, chiroyli rasm chizish, she'rlar yozish, musiqa bastalash qobiliyati bilan tenglashtiriladi. Kreativlik aslida nima?

Ijod fenomenini tushunish va tasvirlashga urinishlar qadim zamonlardan beri mutafakkirlar tomonidan amalga oshirilgan (Aflotun, Sokrat, Aristotel va boshqalar). Ijod faylasuflar tomonidan “dunyoning kosmik prinsipi, inson faoliyatining eng yuqori shakli” (I.Kant), “dunyoning ma'rifati va o'zgarishi” (N.A.Berdayev). Zamonaviy tadqiqotlar (V.S.Bybler, M.S.Kagan va boshqalar) kreativlikni inson faoliyatining eng yuqori va eng murakkab shakli sifatida aniqlashga imkon beradi, bu inson tajribasining barcha jismoniy, ma'naviy kuchlarini faollashtirishni o'z ichiga oladi, yangi narsalarni keltirib chiqaradi va ijtimoiy-tarixiy o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Kreativlikni o'rganish bo'yicha tadqiqot ishlarini olib borgan va katta tajriba ega rus olimlar (Y.A.Ponomarev, P.M.Yakobson, L.S.Vigotski<sup>29</sup>, A.M.Matyushkin va boshqalar) va xorijiy olimlarning (Dj.Guilford, E.Torrens va boshqalar)

---

<sup>28</sup> Веретенникова Л.К. Подготовка будущих учителей к формированию творческого потенциала школьников [Текст]: диссертация ... доктора педагогических наук : 13.00.01. – С. 340.

<sup>29</sup> Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте [Текст] – М., Просвещение, 1991. – С. 104.

psixologik va pedagogik tadqiqotlarida tadqiq qilingan. Ammo shunga qaramay, zamonaviy psixologik va pedagogik fanda “kreativlik” tushunchalari ijodning umumiy qobiliyati sifatida noaniq talqin etiladi. Ijodkorlikni baholashda esa ko‘pchilik hollarda Guilford va Torrance tomonidan taklif etilgan ravonlik, moslashuvchanlik, originallik va batafsillashtirish kabi kognitiv o‘lchamlar keng qo‘llaniladi<sup>30</sup>. S.L.Rubinshteyn kreativlikni yangi, o‘ziga xos bir narsa yaratadigan faoliyat sifatida tavsifladi, keyinchalik u nafaqat kreativlikning o‘zi, balki fan va san’at tarixiga ham kiradi<sup>31</sup>. Kreativlikning ushbu ta’rifi S.I.Ojegovning rus tili lug‘atida bayon etilgan tushunchaga o‘xshaydi, unda yangi madaniy va moddiy qadriyatlarni yaratish sifatida tavsiflanadi. Ushbu talqinlarda kreativlikning mohiyati inson tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotning yangiligi kabi ochib beriladi. Biroq kreativlikni faqat mahsulotning yangiligi bilan tavsiflash tabiat va uning mexanizmlari haqida tushuncha bermaydi<sup>32</sup>.

Ijodning to‘liqroq tushunchasi “psixologiya” lug‘atida shakllantirilgan bo‘lib, u yangi moddiy va ma’naviy qadriyatlarni yaratishga olib keladigan faoliyat sifatida ham tavsiflanadi. Biroq bunda muhim qo‘shimcha mavjud: kreativ faoliyat shaxsning o‘ziga xosligi bilan ajralib turadigan mahsulot olinadigan faoliyati, motivlari va qobiliyatlari mavjudligini anglatadi. Yuqoridagi ta’riflarda nafaqat ijodning yakuniy natijasi, balki uning shakllanish omillari ham tasvirlangan: qobiliyatlar, motivlar, bilimlar<sup>33</sup>.

Kreativlikning to‘liq ta’rifi tadqiqotchi Y.A.Ponomarev tomonidan taklif etiladi. Uning so‘zlariga ko‘ra, kreativlik “materiyaning rivojlanishi, uning yangi usullarining shakllanishi, paydo bo‘lishi bilan birga, kreativlik shakllarining o‘zi ham o‘zgarishi uchun zarur shartdir. Inson ijodi ana shunday shakllardan biridir<sup>34</sup>”.

---

<sup>30</sup> Almeida L.S., Lola Prieto Prietob L.P., Mercedes Ferrando M., Oliveira E., Ferrandiz C. Torrance Test of Creative Thinking: The question of its construct validity. *Thinking Skills and Creativity* 3 (2008). – P. 53–58.

<sup>31</sup> Рубинштейн С. Л. Основы общей психологии [Текст]. – СПб.: Питер, 2000. – С. 712.

<sup>32</sup> Ожегов С.И., Шведова Н.Ю. Толковый словарь русского языка: 72500 слов и 7500 фразеологических выражений / Рос. АН, Ин-т рус. яз. , Рос. фонд культуры. – М.: Азъ, 1992. – С. 944.

<sup>33</sup> Психология: Словарь [Текст] / Под общ. ред. А.В. Петровского, М.Г. Ярошевского. – М.: Политиздат, 1990. – С. 494.

<sup>34</sup> Пономарев Я.А. Психологическое моделирование научного творчества. – М., “Научное творчество”. 1969. – С. 233.

Hozirgi kunda olib borilayotgan tadqiqotlarda ijodiy va kreativ fikrlash tushunchasining ta'lim jarayonidagi o'rni chuqur analiz qilinmoqda. Inson tafakkurining durdonasi hisoblangan kreativ fikrlash va tayanch bilimlar asosida qayta shakllangan reproduktiv fikrlashni alohida o'rganish lozim. Yangilik yaratishda ularning o'rin butunlay boshqachadir.

Ushbu nuqtayi nazarga L.S.Vigoskiy amal qiladi. U kreativlik borligini quyidagicha ta'kidlaydi: "...yangi narsalarni yaratadigan har qanday inson faoliyati, bu tashqi dunyoning biron-bir narsasining kreativ faoliyatini yaratish yoki insonning o'zida yashaydigan va kashf etadigan ong yoki hissiyotning ma'lum qurilishi bo'lishiga ahamiyat bermaydi<sup>35</sup>".

A.V.Brushliskiy kreativlikni "inson ilgari noma'lum bo'lgan yangi narsani topishiga olib keladigan jarayon" deb ta'riflaydi. Ushbu pozitsiyani ko'plab tadqiqotchilar, xususan, A.Mateyko mavjud tajribani takrorlash va uning asosida yangi kombinatsiyalarni shakllantirishda kreativlik jarayonining mohiyatini ko'rib chiqdi.

Ikkinchi nuqtayi nazarga ko'ra, har qanday fikrlashning kreativ bo'lish huquqi, bu har bir insonning kreativ bo'lish huquqidir. Bu yo'nalishda B.P.Nikitin ta'kidlashicha "bizning davlatimiz, maktabimiz, tarbiyachilarimiz va otalarimiz oldida o'ta muhim vazifa o'sib borayotganini, har kimga nafaqat sog'lom va kuchli inson, balki – tashabbuskor, fikrlaydigan, har qanday masalaga kreativ yondashishga qodir kadrlar lozimligini bayon qilishadi, faol hayotiy pozitsiya, agar odam kreativ fikr yuritsa, atrofda yaxshilanish imkoniyatini ko'rsa, ijodkorlikga ega bo'lishi mumkin".

Shuningdek, B.P.Nikitin: "... kuzatish, taqqoslash va tahlil qilish, birlashtirish, aloqalar va bog'liqliklarni, xususiyatlarini va boshqalarni topish qobiliyati<sup>36</sup>" deya ta'kidlaydi.

N.A.Menchinskaya kreativ faoliyatning quyidagi xususiyatlarini ochib beradi: "harakat usullarini keng o'zgartirish, qidiruv yo'nalishini vazifaga

---

<sup>35</sup> Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте [Текст] – М., Просвещение, 1991. – С. 206.

<sup>36</sup> Никитин Б.П. Развивающие игры [Текст] – 5-е изд. доп. – М.: Знание, 1994. – С. 364.

bo‘ysundirish, qabul qilingan fikr harakatlarini bekor qilish, vazifaga muvofiq harakat usullarini moslashuvchan ravishda o‘zgartirish qobiliyati” deya tariflaydi<sup>37</sup>.

I.Y.Lerner uni “inson tomonidan aniq tavsiflangan va qat’iy tartibga solinadigan operatsiyalar yoki harakatlar tizimlari sifatida tasavvur qilib bo‘lmaydigan o‘ziga xos intellektual protseduralar orqali obyektiv yoki subyektiv ravishda sifat jihatidan yangi yaratish jarayoni<sup>38</sup>” deb ta’riflagan. Shuningdek, Lerner kreativlikning eng yuqori darajasi kreativ fikrlash – samarali o‘qitish usullaridan foydalangan holda shakllanadi, chunki “kreativ faoliyat protseduralarini insonni ma’lum kreativ xususiyatlarning namoyon bo‘lishini talab qiladigan va shu bilan ushbu xususiyatlarni shakllantiradigan mumkin bo‘lgan faoliyatga kiritishdan boshqa narsa bilan yetkazish mumkin emas” deb fikr bildiradi<sup>39</sup>.

Amerikalik tadqiqotchilarning bolaning kreativ fikrlashini rivojlantirishda irsiyatning roli haqidagi ishlari ham qiziq. Kreativlikni o‘lchash tizimining yaratuvchisi E.Torrensning aytishicha, irsiyat kelajakdagi kreativ mahsuldorlikning muhim ko‘rsatkichi emas. Bolaning kreativ impulslari kreativ tabiatga qay darajada aylanishi ko‘proq ta’lim va rivojlanish jarayoniga hamda uy sharoitiga bog‘liq. Oila yoshligida bolaning kreativligini rivojlantirishi yoki nolga tushirishi mumkin<sup>40</sup>.

S.G.Gluxovaning ta’rifida “kreativlik – bu kreativ faoliyatning zaruriy sharti va natijasi bo‘lgan, shaxsning kreativlikda o‘zini namoyon qilish yo‘nalishi, tayyorligi va qobiliyatini belgilaydigan shaxsning dinamik integral xususiyati<sup>41</sup>” tarzida izohlanadi.

Kreativ fikrlashni rivojlantirishning ichki mazmuni nima, bu rivojlanish nimaga asoslanadi, uning mexanizmlari qanday? Olimlarning ishlari shuni

---

<sup>37</sup> Менчинская Х.А. Проблемы обучения и умственного развития школьника: Избранные психологические труды. – М.: Педагогика, 1989. – С. 222.

<sup>38</sup> Лернер И.Я. Процесс образования и законность. – М.: Педагогика, 1992. – С. 119.

<sup>39</sup> Лернер И.Я. Проблемное обучение, – М.: Знание, 1974. – С. 184.

<sup>40</sup> Torrance E. P. Lessons about giftedness and creativity from a nation of 115 million overachievers. Gifted Child Quarterly. 1980. 24 (1), – P. 10-14.

<sup>41</sup> Глухова С.Г. Развитие творческого потенциала младших школьников в учебной деятельности [Текст]: дис. ... канд. пед. наук: 13.00.01 / С.Г.Глухова. – Москва, 1997. С. – 13.

ko'rsatadiki, kreativ faoliyat o'quv jarayonining eng yuqori darajasidir. Ammo kreativlik prinsipi, ya'ni pedagogikadagi kreativ jarayonlarga, kreativ shaxsni shakllantirishga yo'naltirish hozirgi paytda maktabda yetarli darajada foydalanilmaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ fikrlashini rivojlantirish masalasi hozirgi kunda pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. An'anaviy ta'lim tizimida o'quvchilar bilimlarni qabul qilish, tushunish va yodlashga yo'naltirilgan bo'lib, kreativ tafakkur yetarlicha shakllantirilmaydi<sup>42</sup>. Shu sababli, zamonaviy ta'limda o'quvchida faol, izlanishga qodir va kreativ shaxsni tarbiyalashga e'tibor qaratish zarur. Buning amalga oshishi yangi avlod o'qituvchilari tayyorlash va ularni kreativ yondashuv bilan jihozlash orqali mumkin.

Davlat ta'lim standartlari va "Yangi O'zbekiston" milliy ta'lim tashabbusi doirasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Tadqiqotchilarning xulosasiga ko'ra, o'quvchining kreativ fikrlashini shakllantirish, shaxsni yaxlit va serqirrali tizim sifatida rivojlantirishni, uning individual salohiyatini va o'z-o'zini rivijlantirish qobiliyatlarini mustahkamlashni nazarda tutadi. Shu bilan birga, pedagogik amaliyotda samarali sharoit yaratish va kreativ yondashuvni tizimli joriy etish dolzarb vazifa hisoblanadi.

"Potensial" tushunchasi turli fanlarda ko'rib chiqiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, "o'quvchining kreativ fikrlashi" murakkab va ko'p qirrali hodisa bo'lib, uning turli talqinlari mavjudligi tabiiy hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ fikrlashini rivojlantirishga bag'ishlangan asarlarda tasvirlangan ba'zi ta'riflarni ko'rib chiqamiz:

"Kreativlik – bu kreativ faoliyatning zaruriy sharti va natijasi bo'lgan, shaxsning kreativlikda o'zini namoyon qilish yo'nalishi, tayyorligi va qobiliyatini belgilaydigan shaxsning dinamik integral xususiyati<sup>43</sup>".

---

<sup>42</sup> Mamurov B.B., Davronov I.E. Pedagogik kompetentlik. – Buxoro. "Durdona". 2021. – 232 b.

<sup>43</sup> Давыдов В.В. О понимании развивающего обучения // Педагогика. 1995. № 1. – С. 29-30.

Ushbu konsepsiya funksionallikning uslubiy prinsipiga rioya qilgan holda, boshlang'ich sinf o'quvchisining kreativ fikrlash fenomenini faqat uning funksional maqsadi nuqtayi nazaridan tavsiflaydi.

“Kreativlik – bu insonga obyektiv va subyektiv ravishda yangi natijalarga erishishga imkon beradigan integral ko‘p darajali ta‘lim. Bu insonning kreativlikni amalga oshirish uchun shaxsiy imkoniyatlari, ularning namoyon bo‘lish xususiyati shaxs o‘zini namoyon qiladigan voqelikning o‘ziga xos xususiyatlariga va o‘ziga (uning motivatsiyasi, irodaviy fazilatlarini, kreativligi, mustaqilligi, o‘ziga bo‘lgan ishonchi va boshqalar) bog‘liq<sup>44</sup>”.

Ushbu ta‘rif, ushbu konsepsiyaning mohiyatini qisqacha aks ettirsa-da, shu bilan birga, o‘quvchining ma‘lum sharoitlarda rivojlanishining asosiy qiymatini hisobga olmagan holda, faqat maqsadlarga (ma‘lum natijalarga) erishishni ta‘kidlaydi.

“Kreativ fikrlash – bu shaxsning o‘ziga xos xususiyati bo‘lib, uning kreativ o‘zini-o‘zi amalga oshirish, ma‘naviy va axloqiy qadriyatlar asosida o‘zini rivojlantirish imkoniyatlarini belgilaydi<sup>45</sup>”.

Ushbu ta‘rifda jamiyatning rivojlanish va ko‘rib chiqishdagi pozitsiyasi faqat salbiy oqibatlariga olib kelmaydigan (jinoiy, axloqsiz faoliyat) o‘quvchilarning imkoniyatlari uchun milliy boylik sifatida ko‘rsatilgan.

“Kreativlik insonning o‘zini-o‘zi rivojlantirish uchun boshlang‘ich shartdir. Bu shaxsning faoliyatni amalga oshirishga tayyorligi, qobiliyati va qobiliyatining mavjud to‘plamidir, uning maqsadi, uning o‘zini ifoda etishdir<sup>46</sup>”.

“Kreativlik – yaratish, yangisini topish, qaror qabul qilish, original va shakldan tashqarida harakat qilish qobiliyatining asosidir<sup>47</sup>”.

---

<sup>44</sup> Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии [Текст] / С.Л. Рубинштейн. – СПб. : Питер, 2000. – С. 712.

<sup>45</sup> Самигуллина Г.С. Развитие творческого потенциала личности: автореф. дисс... канд. пед. наук / Г.С. Самигуллина. – Казань, 2006. – С. 25.

<sup>46</sup> Safarova R., Musayev U., Musayev P., Yusupova F., Nurjanova R. O‘zbekiston Respublikasida umumiy o‘rta ta‘lim strategiyasi muammolari va ta‘lim mazmunining yangi modellari, ularni tadbiiq etish yo‘llari O‘zRFA Fan, – T.: “Sharq” nashriyot-matbaa konserni, 2005. – 256 b.

<sup>47</sup> Adizov B.R. Boshlang‘ich ta‘limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. Ped. f. d...diss. – T., 2003. – 280 b.

Yashirin qobiliyatlarning namoyon bo'lishi uchun shart sifatida quyidagi ta'rif tanlash holatini taklif qiladi:

“Kreativlik – bu shaxsning sifati, bir tomondan, uning yangi tadbirlarda ishtirok etishga tayyorligini, turli xil muammolarni hal qilishda kreativ yondashuvni namoyon etishini, boshqa tomondan, tanlov vaziyatlarida mavjud imkoniyatlarni amalga oshirish qobiliyatini namoyish etadi<sup>48</sup>”.

Tizim-faoliyat yondashuviga asoslangan boshlang'ich umumiy ta'limning federal davlat standartini joriy etish sharoitida B.P.Nikitinning ta'rifi e'tiborga loyiqdir. U o'z asarlarida “o'quvchining kreativ fikrlashini shaxsning integral xarakteristikasi sifatida taqdim etadi, shu jumladan, o'quvchining faoliyatga bo'lgan qiymat-semantik munosabati, faoliyat turlarini tanlashda mustaqillik, harakatlar, qabul qilingan qarorlar va o'z-o'zini anglashdan qoniqish<sup>49</sup>” ekanligini ta'kidlagan.

Har qanday jozibali g'oya, eng avvalo, alohida bir shaxs tafakkurida qaror topadi. Keyin yuksak ijtimoiy mazmunga ega bo'lgani, millat yoki ijtimoiy guruhlarning jamiyat ravnaqi yo'lidagi ezgu intilishlarini ifoda etgani tufayli umuminsoniyat mulkiga aylanadi. Ana shu shaxs o'zi yashagan ijtimoiy muhit talablariga javob tariqasida o'z ta'limotini ishlab chiqadi<sup>50</sup>.

O'quvchining “kreativ fikrlashi” tushunchasiga berilgan ta'riflarni tahlil qilib, shunday xulosaga kelish mumkin: kreativlik – muammoni yechish jarayonida, ya'ni muammoli vaziyatda o'quvchining yangi original g'oyalarni yaratishi, nostandart qarorlar qabul qilishi va noodatiy harakat qilish qobiliyatini belgilovchi tafakkur mahsulidir.

Agar biz shaxsning kreativ fikrlashining tarkibiy qismlariga murojaat qilsak, I.V.Kurisheva bolaning kreativ fikrlashining quyidagi tarkibiy qismlarini aniqlaydi:

---

<sup>48</sup> Mavlonova R., To'rayeva O., Xoliqberdiyev K. Pedagogika. – Toshkent: O'qituvchi. 2004. – 512 b.

<sup>49</sup> Овчинникова А.Ж. Гносеологические аспекты процесса обучения младших школьников в творчестве С. П. Баранова [Текст] / А. Ж. Овчинникова // Начальная школа : журнал. 2014 . – №4 . – С. 96.

<sup>50</sup> Xajiyeva M.S. O'zbekistonda tolerantlik jarayoni. – Toshkent. “ABU MATBUOT-KONSALT”. 2008. – 44 b.

- motivatsion <sup>51</sup> (shaxsning qiziqishlari va sevimli mashg‘ulotlarining darajasi, o‘ziga xosligi, kreativ faoliyatda ishtirok etishning qiziqishi hamda faolligi, kognitiv motivatsiyaning ustunligi);
- hissiy (jarayonga hissiy munosabat va xayoliy faoliyat natijalari, hissiy fon, tajribalar boyligi va boshqalar );
- ixtiyoriy (o‘zini-o‘zi boshqarish va o‘zini-o‘zi boshqarish qobiliyati, mustaqillik, e‘tibor sifati, irodaviy zo‘riqish qobiliyati, o‘z ishining natijalariga talabchanlik)<sup>52</sup> (1.2-rasm).



**1.2-rasm. Kreativ fikrlashning tarkibiy qismlari**

Shaxsning kreativ tafakkuri tarkibida tasavvur jarayonlarining o‘rni muhim ahamiyatga ega. Aqliy obrazlarni shakllantirish jarayonida bola avvalgi tajribasiga tayanadi, uni tahlil qiladi, undagi tarkibiy unsurlarni ajratib oladi, ulardan ayrimlarini tanlab qo‘llaydi, o‘z g‘oyasiga muvofiq tarzda qayta guruhlaydi yoki tasodifiy kombinatsiyalar asosida yangi mahsulotni yaratadi. Agar bola o‘zaro chuqur bog‘liqlikka ega bo‘lgan alohida elementlarni osonlik bilan birlashtira olsa, bu uning tasavvuri boy darajada rivojlanganligidan dalolat beradi.

E.Torransning ta’kidlashicha, samarali kreativ faoliyat uchun mantiqiy fikrlash yaxshi rivojlangan bo‘lishi kerak, chunki kreativ jarayon muammoli

<sup>51</sup> Фалсафа. Қомусий луғат. “Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти”. – Тошкент: “ШАРҚ” нашриёт -матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти. 2004. – 496 б.

<sup>52</sup> Леонтьев А.Н. Общее понимание деятельности. – М.: Наука, 1977. – С. 368.

vaziyatni shakllantirishdan boshlanadi. J.Guilford shaxsning kreativ fikrlashining tarkibiy qismlari orasida asosiy o‘rinni fikrlash fazilatlariga bag‘ishlaydi. Uning ta’kidlashicha, “kreativlik uchun tezlik, moslashuvchanlik, o‘ziga xoslik va aniqlik kabi fikrlash belgilari alohida ahamiyatga ega<sup>53</sup>”.

Kreativ fikrlash tarkibidagi bir xil darajada muhim xususiyat bu maqsadga erishishda qat’iyatlilikdir. Bu yerda kreativ muammoni hal qilish jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni yengishga qaratilgan ixtiyoriy harakatlar ajralib turadi.

Shaxsning kreativ fikrlashida muhim tarkibiy unsurlardan biri sifatida oddiy hodisalarga nisbatan murakkablikka ustuvorlik berish, tashqi shakl bilan chegaralanib qolmasdan, mazmun-mohiyatni anglashga intilish namoyon bo‘ladi.

Shaxsning maqsadga yo‘naltirilganligi uning kreativ faoliyati natijalarida o‘z ifodasini topadi. Tarkibiy jihatdan kreativ fikrlash shuningdek, shaxsning o‘z faoliyati mahsulotlariga nisbatan talabchanlik va baholash muvozanatida namoyon bo‘ladi. Shaxsga xos muhim qadriyatli sifatlar sirasiga mavjud bilim va g‘oyalarni tartibga solish hamda tizimlashtirishga bo‘lgan ichki ehtiyoj ham kiradi. Shuningdek, shaxsning kreativ fikrlash tuzilmasiga uning ma’naviy kamoloti ham uzviy ravishda bog‘liqdir.

“Boshlang‘ich sinf o‘quvchisining kreativ fikrlashi” tushunchasini aniqlashtirish uchun biz boshlang‘ich sinf o‘quvchisining yosh xususiyatlariga e’tibor qaratamiz. Ushbu yosh L.S.Vigoskiy<sup>54</sup>, P.Y.Galperin<sup>55</sup>, V.T.Kudryavsev, D.B.Elkonin<sup>56</sup> va boshqalarning asarlarida to‘liq hamda mazmunli tasvirlangan.

---

<sup>53</sup> Гилфорд. Д. Три стороны интеллекта // Психология мышления / Ред. А.М.Матюшкин. – М.: Прогресс, 1965. – С. 525.

<sup>54</sup> Волкова В.Н., Черненькая Л.В., Магер В.Е. Классификация моделей в системном анализе // Научно-технические ведомости Санкт-Петербургского Государственного политехнического университета, № 3 (174), 2013.

<sup>55</sup> Гальперин П.Я., Котик Н.Р. К психологии творческого мышления // Вопр. психология, 1982. № 5. – С. 80-84.

<sup>56</sup> Эльконин Д.Б. Психическое развитие в детских возрастах. Избранные труды. – Москва-Воронеж. 2001. – С. 417.

G.V.Axmetjanovanning soʻzlariga koʻra, boshlangʻich maktab yoshi shaxsning kreativ fikrlashini rivojlantirishning eng samarali davrlaridan biridir, shuning uchun kreativ rivojlanish ushbu bosqichda dominant hisoblanadi<sup>57</sup>.

Boshlangʻich maktab davrida oʻquv faoliyati yetakchi faoliyat turi sifatida birinchi oʻringa chiqadi, biroq mehnat va boshqa faoliyat shakllari bilan bir qatorda oʻyin faoliyatiga boʻlgan ehtiyoj ham oʻquvchining shaxs sifatida shakllanish jarayoniga muhim taʼsir koʻrsatishda davom etadi. Shu bilan birga, boshlangʻich sinf oʻquvchilarida nisbatan barqaror qiziqishlar shakllanib boradi, ular esa bosqichma-bosqich oʻquv faoliyatining asosiy motivlariga aylanadi.

Boshlangʻich sinf davrida bolalar yangi ijtimoiy muhitga moslashib, tizimli oʻquv faoliyatiga kirishishi natijasida aqliy rivojlanishning sifat jihatdan yangi bosqichiga koʻtariladi. Mazkur bosqichda eʼtibor, idrok, tafakkur va xotira kabi asosiy psixik jarayonlar jadal rivojlanadi, ogʻzaki tafakkur shakllanadi hamda oʻquvchilar oʻz faoliyatini ongli ravishda rejalashtirish va nazorat qilish koʻnikmalarini egallay boshlaydi. Toʻrtinchi sinfga kelib, koʻplab bolalar oʻziga xos individual oʻquv uslubini shakllantiradi, bu ularning bilimlarni sifatli oʻzlashtirish va mustaqil yaratish qobiliyatini namoyon qiladi. Shuningdek, yangi faoliyat va ijtimoiy vaziyatlar bolalarni shaxslararo munosabatlarga moslashishga, oʻquv koʻnikmalarini egallashga hamda intizom va tashkilotchilikni rivojlantirishga undaydi. Boshlangʻich maktab yoshi tasavvurning faol rivojlanishi, hissiy sezgirlik va yuqori qiziquvchanlik bilan tavsiflanadi, biroq standartlashtirilgan maktab sharoiti va rivojlanmagan iroda oʻquvchilarda istak va majburiyat motivlari oʻrtasidagi qarama-qarshilikni yuzaga keltiradi, bu giperaktivlik, bezovtalik yoki tushkunlikka olib kelishi mumkin.

Baholashga bogʻliqlik, kattalar va boshqalarning taʼsiri, salbiy his-tuygʻular oqimiga ishonchsizlik boshqalar tomonidan oʻz-oʻzini anglash va baholashda iz qoldiradi. Yuqoridagilardan tashqari, ushbu yosh uchun kreativ oʻzini-oʻzi

---

<sup>57</sup> Axmetjanova G.V., Lifanova T.V., Chernova Yu.K. Педагогическая технология формирования творческих способностей детей на основе системы Станиславского [Текст]: Метод, пособие. / Г.В.Ахметжанова, Т.В.Лифанова, Ю.К.Чернова Тольятти: ТолПИ, 1998. – С. 17.

anglashga bo'lgan ehtiyojning zaif "axborot qurollari", bolalar tasavvurlarining taklif etilishi va cheklanganligi ham xarakterlidir, boshlang'ich sinf o'quvchilari identifikatsiya qilish, nusxalash va taqlid qilishga moyil<sup>58</sup>.

Boshlang'ich sinf o'quvchisida kreativ fikrlash mohiyatini aniqlash maqsadida ushbu yosh davriga xos bo'lgan kreativ fikrlash xususiyatlari tahlili obyektlarning tuzilishi va rivojlanish qonuniyatlarini ramziy va mazmunan qayta ifodalash qobiliyati; o'quv materialining tarkibiy qismlarini kompleks tizimga birlashtirish va ularni chuqur tahlil qilish imkoniyati; xayoliy va amaliy tajribalar orqali obyektning yangi sharoitlarda qayta ko'rib chiqish; kreativ qarorlarning qayta shakllantiruvchi xususiyatga ega bo'lishi; shuningdek, muammolarni hal etishda tashabbuskorlik ko'rsatish, yangi yechimlar hamda muammolarni mustaqil shakllantirish qobiliyatlari bilan tavsiflanadi<sup>59</sup>.

Boshlang'ich sinf o'quvchisida ta'lim asosi shakllanadi, bu davrda tasavvur va obrazli tafakkur, kreativ fikrlash, ma'naviy qadriyatlar hamda bilishga bo'lgan qiziqishlar izchil rivojlanadi. Ushbu davrda voqelikka kreativ munosabat va ijtimoiy faollik ehtiyojlari kuchayib, shaxsning kreativ fikrlashini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yuzaga keladi. Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarda mustaqillik, faollik, tashabbuskorlik, tahlil va umumlashtirish, tanqidiy fikrlash ko'nikmalari shakllanadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, "kreativ fikrlash" tushunchasiga oid yagona ta'rif mavjud emas, biroq ko'pchilik olimlar har bir inson kreativ qobiliyatga ega ekanligini va zamonaviy ta'limning asosiy vazifasi maktab ta'limi davomida ushbu qobiliyatlarni rivojlantirish uchun zarur sharoitlarni yaratishdan iborat, degan xulosaga keladilar.

Boshlang'ich sinf o'quvchisining ijodiy va kreativ fikrlashi tushunchasining bir nechta talqinlari ko'rib chiqildi, asos sifatida ushbu hodisaning mohiyatini eng ko'p aks ettiruvchi ishchi tushuncha sifatida biz N.A.Abidenovning "ijodiy

---

<sup>58</sup> G'ulomov P., Mirzaxmatova Sh. Atrofimizdagi olam. 2-sinf uchun darslik. – Toshkent: Cho'lpon, 2018. – 104 b.

<sup>59</sup> Волкова В.Н., Черненко Л.В., Магер В.Е. Классификация моделей в системном анализе // Научно-технические ведомости Санкт-Петербургского Государственного политехнического университета, № 3 (174), 2013.

salohiyat – yaratish, yangisini topish, qaror qabul qilish va original hamda nostandart harakat qilish qobiliyatining asosidir<sup>60</sup>” degan fikrini keltirishimiz mumkin.

Psixologik-pedagogik adabiyotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchisining kreativ fikrlashi uchta asosiy tarkibiy komponentdan tashkil topganini ko‘rish mumkin. Jumladan, kognitiv komponent o‘quvchining bilimlar darajasi hamda kreativ faoliyatning mohiyatini anglashini ifodalaydi; motivatsion-ehtiyoj komponenti o‘zini kreativ shaxs sifatida namoyon etishga bo‘lgan intilish va kreativ topshiriqlarga nisbatan qiziqishni qamrab oladi; faoliyat komponenti esa kreativ vazifalarni original tarzda bajarish, tasavvurdan foydalanish va nostandart fikrlashni namoyon etish darajasi bilan tavsiflanadi.

Boshlang‘ich sinf yoshidagi o‘quvchilarda suyak tizimi hali to‘liq shakllanmagan bo‘lib, unda ehtiyot choralarini talab etuvchi holatlar saqlanib qoladi. Mushak tizimida sezilarli darajada rivojlanish kuzatilsa-da, u yetarli darajada mustahkam emasligi sababli, bola tez charchashga moyil bo‘ladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisining miya vazni kattalar miyasi vaznining 90 foiziga yetadi. Uning funksional takomillashtirish jarayoni davom etadi.

Nerv-fiziologik faoliyatning qayd etilgan xususiyatlari boshlang‘ich sinf o‘quvchisining hissiyligi, o‘zini tuta olmasligi va harakatlarini nazorat qila olmasligini belgilaydi. Bunday qo‘zg‘aluvchanlik asab tizimini osongina yo‘q qiladi. Bolalar tezda charchashadi, ayniqsa, monoton harakatlardan. Shuning uchun o‘quv jarayonida, dam olishni tashkil qilishda faoliyat turlarini o‘zgartirishga e‘tibor berish kerak. Ta‘lim va tarbiyaning monoton shakllari boshlang‘ich sinflarda mutlaqo qabul qilinishi mumkin emas<sup>61</sup>. To‘g‘ri, uyqu rejimi ham muhimdir. 7-8 yoshli bolalar 11 soat, 9-10 yoshli bolalar esa kuniga kamida 10 soat uxlashlari kerak.

Bilimlarni muntazam ravishda boyitish, yangi bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish boshlang‘ich sinf o‘quvchisining bilim faoliyati uchun tezkor sifatli

---

<sup>60</sup> Adizov B.R. Boshlang‘ich ta‘limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. Ped. f. d...diss. – T., 2003. – 280 b.

<sup>61</sup> N.S.Xujayarova. Pedagogik mahorat // o‘quv qo‘llanma // Qarshi: “Fan va ta‘lim” nashriyoti, 2023. –202 bet.

ta'limga olib keladi. Ushbu faoliyatni boshqarish uchun boshlang'ich sinf o'quvchisining idrok etish, e'tibor, xotira va fikrlash xususiyatlarini yodda tutish kerak.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining diqqati faol xarakterga ega bo'lib, ongni idrok, tasavvur, fikrlash va nutq jarayonlariga yo'naltiradi. Diqqat murakkab kognitiv jarayon bo'lib, faoliyat darajasiga ko'ra beixtiyor va ixtiyoriy, hajmiga ko'ra tor va keng turlarga ajratiladi; u kommutatsiya, taqsimlanish, kuch va barqarorlik kabi xususiyatlar bilan tavsiflanadi.

Ushbu yosh davrida beixtiyor diqqat ustunlik qiladi, ixtiyoriy diqqat esa yetarlicha rivojlanmagan bo'lib, bu ikkinchi signal tizimi regulyativ funksiyasining kam shakllanganligi bilan izohlanadi. O'quvchilarning diqqati hajman cheklangan, barqarorligi past va tez chalg'iydi, bu esa diqqatni taqsimlashda, bir faoliyatdan boshqasiga o'tishda qiyinchiliklar hamda xatolarga olib keladi.

Xotira roli. Xotira bu bo'lib o'tgan voqea hodisalarni suratga olish, saqlash va takrorlashning aqliy jarayonidir<sup>62</sup>. Xotira tufayli o'tmishda sodir bo'lgan fikrlar, his-tuyg'ular izsiz yo'qolmaydi, balki keyingi aqliy faoliyatga kiritiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari vizual-majoziy va mexanik yodlash xotirasi bilan ajralib turadi. Ularning ongida aniq narsalar, faktlar va voqealar osongina eslanadi. Ammo ularning mantiqiy xotirasi yetarli darajada rivojlanmagan bo'ladi. Ular materialni semantik tayanch punktlariga qanday ajratishni, uni o'z so'zlari bilan takrorlashni bilishmaydi. Bu ularga maxsus o'rgatilishi kerak. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlashi, mavhum individual faoliyat qobiliyati zaif shakllangan bo'ladi. O'quvchi hali ham taqqoslashni, tahlil qilishni, sintez qilishni, muhim narsani ta'kidlashni o'rganadi. Shunga qaramay, psixologlari o'zlarining tadqiqotlarida (V.V.Davidova, L.V.Zankova, D.B.Elkonin va boshqalar) hozirda o'quvchilarning fikrlash jarayoni juda tez yaxshilanayotganligini ta'kidlaydilar.

---

<sup>62</sup> Umumiy psixologiya: Pedagogika va psixologiya bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik. / P.I.Ivanov, M.E.Zufarova; Mas'ul muharrir D.M.Mirzajonova; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. — T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. 480 b.

Taxminan uchinchi sinfdan boshlab ayrim o'quvchilarda o'qituvchiga munosabat va o'quv faoliyatiga motivatsiya pasaya boshlaydi. Ta'lim mazmuni va usullarining o'quvchilarning rivojlanish darajasidan ortda qolishi ijtimoiy motivatsiyaning susayishiga olib keladi, jiddiy va ijtimoiy ahamiyatli faoliyatga ehtiyoj kuchayadi. Ushbu holatlarning oldini olish uchun evristik usullardan foydalanish, o'qitishda rasmiyatchilikni kamaytirish hamda ta'limni o'quvchilarning ijtimoiy foydali va kreativ faoliyati bilan bog'lash muhimdir.

Maktab jamoasi bolalar bog'chasidagi guruhdan farqli ravishda ijtimoiy ahamiyatga ega faoliyat asosida shakllanadi va bu ijtimoiylashuv uchun qulay sharoit yaratadi. Biroq 1–2-sinf o'quvchilari sinf jamoasidagi umumiylikni to'liq anglay olmaydi, shaxsiy va guruhiy xatti-harakatlar o'rtasidagi bog'liqlikni yetarli darajada idrok etmaydi. Ularning harakatlari, go'yo birga emas, balki yaqin atrofda sodir bo'ladi. Ular o'rtoqlarining muvaffaqiyatlariga unchalik qiziqmaydilar, bir-birlari haqida tez-tez shikoyatlar qilishadi. Shu bilan birga, bolalar sinf va maktabning ijtimoiy hayotida ishtirok etishni yaxshi ko'radilar, maqsadlari aniq bo'lgan quyidagi ishlarga bajonidil javob berishadi: xiyobonga juda ko'p daraxt ekish, kundalik ishlarni astoydil bajarish – sinfni tozalash, navbatchilik qilish va h.k. Keyinchalik o'zlarini butunning bir qismi deb bilishni boshlaydilar, o'rtoqlarining muvaffaqiyati, bilim ko'rsatkichlari bilan qiziqishadi. Bir-biriga shikoyat qilish holatlari kamdan kam uchraydi.

Boshlang'ich maktab yoshida o'quvchilar o'rtoqlarining axloqiy fazilatlarini baholay boshlaydi va o'qituvchining pedagogik rahbarligi shaxsiy xususiyatlarning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu davrda o'qituvchining baholari o'quvchilar tomonidan so'zsiz qabul qilinadi, biroq o'z-o'zini boshqarish va xulq-atvor ko'nikmalari yetarli darajada shakllanmagan bo'ladi. Shu sababli sinf jamoasini boshqarishda o'qituvchilarning faqat tashkiliy rolga tayanishi o'zini-o'zi boshqarish tizimining rivojlanishini cheklashi mumkin. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarida do'stlik haqidagi tasavvurlar bosqichma-bosqich murakkablashadi: dastlab tashqi omillar asosida shakllangan munosabatlar keyinchalik axloqiy fazilatlar uyg'unligiga tayanadi va qo'shma o'quv hamda

darsdan tashqari faoliyat jarayonida mustahkamlanadi.

Do'stona muloqot bolani ijtimoiy tajriba bilan boyitadi, ijtimoiylashuv tuyg'usini chuqurlashtiradi. O'qituvchilar va rahbarlar o'quvchilarning rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishlari kerak. Bunda to'g'ri tashkil etilgan o'yinlar, ijtimoiy foydali ishlar katta ahamiyatga ega. O'quvchilarda intizomlilik, tashkilotchilik va shaxsiy javobgarlikni shakllantirishda sport musobaqalari, rolli o'yinlardan foydalanish eng samarali vositalardan hisoblanadi.

Asta-sekin boshlang'ich sinf o'quvchilarining qiziqishlari, ayniqsa, kognitiv qiziqishlar yanada xilma-xil va mazmunli bo'lib bormoqda. Agar ta'limning dastlabki bosqichlarida bolalar o'quv jarayonining o'zi bilan ko'proq qiziqsa, keyinchalik texnik vositalar kognitiv faoliyatning mazmuni hisoblanadi. Ular eksperimentlar o'tkazishda, ko'rgazmali qurollar ishlab chiqarib ishtirok etishni yaxshi ko'radilar. Bolalar nafaqat ertaklarni, sarguzasht adabiyotlarini, balki urush yillari qahramonligini, tengdoshlari haqidagi hikoyalar va hikoyalarni ochib beradigan kitoblarni ham yaxshi ko'radilar. Ular xalqaro hayot voqealari, sport, fan va texnika yutuqlari bilan qiziqishadi. Shu bilan birga, bolalarda beqarorlik va qiziqishlarning xilma-xilligi mavjud. Bugun, aytaylik, bola o'zining filatelisti ta'siri ostida markalarni yig'ishni yaxshi ko'radi va ertaga sportga, jumladan, dzyudo kurashiga qiziqib qoladi. O'qituvchilar va ota-onalar barqaror manfaatlarni rivojlantirishga jiddiy e'tibor berishlari kerak.

Bir qator xususiyatlar boshlang'ich sinf o'quvchisining xarakterida iz qoldiradi. Avvalo, bu hissiyot bo'lib u yangi narsalar, voqealar jonli his-tuyg'ularni, qizg'in javobni keltirib chiqaradi. Bolalar o'zlarini qanday boshqarishni bilishmaydi, his-tuyg'ular tashqi tomondan juda to'g'ridan-to'g'ri namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, ular tezda paydo bo'ladi va boshqalar bilan osongina almashtiriladi yoki aksincha bo'lishi ham mumkin. Ta'lim jarayonida bolaning hissiy zaifligini yodda tutish kerak. O'qituvchilar va ota-onalar boshlang'ich sinf o'quvchisining xohish-irodasi xususiyatlarini hisobga olishlari kerak. U o'z harakatlari haqida uzoq vaqt o'ylashga moyil emas, o'zini qanday boshqarishni bilmaydi, qiyin bo'lgan faoliyat bilan shug'ullanmaydi. Har qanday

topshiriq, shuning uchun bir qator aniq yaqin maqsadlarni o‘z ichiga olishi kerak. Murakkab faoliyat alohida bosqichlarga bo‘linishi va ularning bajarilishini qat’iy nazorat qilishi kerak.

Umuman olganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning xarakterida dinamizm kuzatiladi. Insonning shaxsiyatini shakllantirishning murakkab jarayoni mavjud.

O‘quv jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash maqsadida, avvalo, “pedagogik shart-sharoitlar” tushunchasini ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilish lozim. D.N.Ushakovning izohli lug‘atiga ko‘ra, “shart” majburiy holat yoki biror narsaning mavjudligi hamda amalga oshirilishini belgilovchi zaruriy talab sifatida tushuntiriladi<sup>63</sup>.

V.L.Muravyov “shartlar” tushunchasiga pedagogik nuqtayi nazar bilan yondashib, ularni pedagogik jarayonning umumiy tamoyillariga bo‘ysunadigan, pedagogik faoliyatni tashkil etishda qo‘yiladigan talablar va tavsiyalar sifatida ta’riflaydi.

Pedagogik sharoitlar, Y.K.Babanskiyning ta’rifiga ko‘ra, “o‘quv jarayonining tarkibiy qismlari eng yaxshi o‘zaro ta’sirda taqdim etiladigan va o‘qituvchiga samarali ishlashga, o‘quv jarayonini boshqarishga va o‘quvchilar muvaffaqiyatli ishlashga imkon beradigan muhit”<sup>64</sup>.

Zamonaviy jamiyatda inson faoliyatiga turli talablar qo‘yiladi, ularning eng muhimlaridan biri kreativlikdir. Kreativ shaxs inson tafakkuri va ma’naviyatining ajralmas qismi sifatida rivojlanadi; uning mohiyati shaxsning egallagan bilimlarining ko‘p qirrali bo‘lishida emas, balki yangi g‘oyalarga intilishi, mavjud stereotiplarni qayta ko‘rib chiqish va o‘zgartirish, shuningdek, hayotiy muammolarni hal qilish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar qabul qilish qobiliyatida namoyon bo‘ladi<sup>65</sup>. Kreativ fikrlashni rivojlantirishning nazariy darajasida bo‘lgan shaxs kreativlik nazariyasining mohiyati to‘g‘risida bilimlarni

---

<sup>63</sup> Ушаков Д.Н. Толковый словарь русского языка. Том 1. М.: ООО «Издательство Астрель», ООО «Издательство АСТ», 2000 г. – С. 783.

<sup>64</sup> Бабанский Ю.К. Оптимизация учебно-воспитательного процесса. – М.: Просвещение, 1982. – С. 192.

<sup>65</sup> Yuvashov Sh., Akbarov B. Kreativ fikrlash. – Namangan. 2024. – 176 b.

egallash istagi bilan ajralib turadi<sup>66</sup>. Reproduktiv va kreativ darajada kreativ ko'nikmalarni individual reproduktiv darajada rivojlantirish amalga oshiriladi.

Shunday qilib, S.G.Gluxova "kreativlik – bu kreativ faoliyatning zaruriy sharti va natijasi bo'lgan, shaxsning kreativlikda o'zini namoyon qilish yo'nalishi, tayyorligi va qobiliyatini belgilaydigan shaxsning dinamik integral xususiyati" deb ta'kidlaydi<sup>67</sup>.

Ushbu konsepsiyaga muvofiq, N.I.Torsova "o'quvchilarga aniq yo'naltirish berish"ni nazarda tutib, o'quvchining kreativ fikrlashini uning shaxsiy integral xususiyati sifatida ta'riflaydi. Bu, xususan, o'quvchining faoliyatga bo'lgan qiymat-semantik munosabati, faoliyat turlarini tanlash, harakat va qarorlarida mustaqillik hamda o'zini-o'zi amalga oshirishdan qoniqish bilan ifodalanadi.

Kreativ fikrlashni maqsadli va tizimli rivojlantirish jarayoni kreativ-reproduktiv daraja bilan tavsiflanadi, uning yaxlit va barqaror rivojlanishi esa mualliflik darajasiga olib keladi. Bir darajadan ikkinchisiga o'tish shaxsning kreativ fikrlashni yuqori bosqichda rivojlantirishga psixologik, ilmiy va amaliy tayyorgarligi bilan belgilanadi<sup>68</sup>.

Boshlang'ich maktab yoshi bolaning kreativ fikrlashini aniqlash va rivojlantirish uchun eng mos davrdir. Bu bosqichda ta'lim va kreativ trayektoriya poydevori, samarali faoliyatning psixologik asoslari hamda dunyoga kreativ yondashuvga tayangan shaxsiy qadriyatlar va ehtiyojlar shakllanadi. Kreativ fikrlash faqat o'quvchining ichki motivlari va o'qituvchi belgilagan vazifalar uyg'unlashganda samarali namoyon bo'ladi. Shu bois, uning rivojlanishi mos pedagogik shart-sharoitlarni yaratishni talab qiladi, bu jarayon esa o'qituvchi tomonidan boshqarilib, gumanistik va ijodiy yo'naltirilgan ta'lim muhitini tashkil etish va yosh xususiyatlarga mos metodik yondashuvni qo'llashni nazarda tutadi<sup>69</sup>.

---

<sup>66</sup> G'affarova G. Kreativ fikrlash. Darslik. – T.: "SARBON LLS", 2024. – 218 b.

<sup>67</sup> Глухова С.Г. Развитие творческого потенциала младших школьников в учебной деятельности [Текст]: дис. ... канд. пед. наук: 13.00.01 / С.Г.Глухова. – Москва, 1997. – С. 67.

<sup>68</sup> Safarova R., Yusupova F. va b. O'quvchilarda o'zaro do'stona munosabatlarga asoslanib hamkorlikda faoliyat ko'rsatish ko'nikmalarini shakllantirish jarayonini tashkil etish tamoyillari va parametrlari. – T.: Fan va texnologiya nashriyoti, 2013. – 142 b.

<sup>69</sup> Guilford J. The nature of human intelligence / J.Guilford – New York: Graw Hill. – 1968. – P. 334.

Demak, asosiy shartlardan biri o'quvchining o'quv jarayonidagi rolini o'zgartirib, uni bilimlarni faol egallovchi, o'z ehtiyoj va qiziqishlarini tanlay oladigan hamda kreativ faoliyat subyektini sifatida shakllantirishdan iborat. Bu jarayonda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi shaxsiy va faol hamkorlik, to'g'ridan-to'g'ri va teskari aloqaning uzluksizligi muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ faoliyatini samarali qo'llab-quvvatlash uchun ularning imkoniyatlariga ishonish, shaxsiy ehtiyoj va qiziqishlarini hurmat qilish, do'stona hamda me'yoriy talabchanlikka asoslangan psixologik muhitni yaratishni talab qiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ fikrlashni rivojlantirish uchun o'rganishga ichki motivatsiya yaratish muhimdir. Bu motivatsiya o'quvchining ta'limga munosabati, o'zini baholashi va o'ziga bo'lgan ishonchi bilan belgilanadi. Ichki motivatsiya kognitiv ehtiyoj, bilimga va qidiruv jarayoniga qiziqish, ruhiy ko'tarilish orqali bolaga qo'shimcha aqliy faoliyatni samarali amalga oshirish imkonini beradi.

Pedagogik yordam esa subtil, ko'zga tashlanmaydigan va xayrixoh tarzda berilishi lozim. O'quvchi muammo yechimining barcha bosqichlarini to'g'ri bajarayotgan bo'lsa, unga aralashmasdan jarayonni nazorat qilish yetarli hisoblanadi.

Ta'kidlash joizki, kreativ fikrlashni rivojlantirishning muhim sharti turli ish shakllarini oqilona uyg'unlashtirishdir. Bunda topshiriqlarning murakkablik darajasiga qarab frontal, guruhli va individual faoliyatga alohida e'tibor qaratish zarur. O'quvchilar guruh bo'lib ishlaganda ularning muammoga nisbatan yondashuvlari xususidagi bilim va yangi g'oyalari umumlashadi hamda refleksiya intensivligi oshiriladi. Shu bilan birga, o'quvchi kreativ jarayonda o'zini anglab, istaklari, motivlari va imkoniyatlarini idrok etadi, bu esa ta'limiy faoliyat yo'nalishini ongli ravishda shakllantirish imkonini beradi.

Mavzulararo integratsiya ham kreativ fikrlashni rivojlantirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Kreativ muammolarni hal etish jarayonida, odatda, turli fan sohalariga oid bilimlardan kompleks tarzda foydalanish talab etiladi va

vazifa murakkablashgan sari uni bajarish uchun ko‘proq bilim, aqliy kuch hamda sa’y-harakat zarur bo‘ladi.

Shuningdek, muvaffaqiyat holatini yaratish ham muhim pedagogik shart sifatida ajratib ko‘rsatiladi. Kreativ xarakterdagi topshiriqlar butun sinf jamoasi tomonidan hamkorlikda bajarilishi lozim bo‘lib, ularni baholashda asosan erishilgan muvaffaqiyat natijalari inobatga olinadi<sup>70</sup>. O‘qituvchi har bir o‘quvchida individuallikni ko‘ra bilishi zarur. Shu bilan birga, faqat eng muvaffaqiyatli o‘quvchilar uchungina alohida kreativ topshiriqlar tayyorlash va ular bilan barcha sinf uchun mo‘ljallangan umumiy vazifalarni almashtirish pedagogik jihatdan maqbul hisoblanmaydi.

Har bir o‘quvchi uchun kreativ topshiriqlarni mustaqil tarzda bajarish ham muhim pedagogik shartlardan biri hisoblanadi. O‘quvchining eng katta aqliy va irodaviy kuch talab etadigan muammolarni mustaqil hal etishi uning o‘z imkoniyatlari chegarasiga yetib borishi va ushbu chegarani bosqichma-bosqich kengaytirishi bilan tavsiflanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun esa kreativ faoliyatga bo‘lgan qiziqishni faollashtiradigan hamda mazkur faoliyatni amalga oshirishga zarur ko‘nikmalarni shakllantiradigan murakkab, biroq bajarilishi mumkin bo‘lgan topshiriqlarning tashkil etilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Kreativ vazifalarning xilma-xilligi, ularning mazmuni va taqdimot shakllari bo‘yicha ham, murakkablik darajasi bo‘yicha ham boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ fikrlashini rivojlantirish shartlaridan biridir. Kreativ va odatiy o‘quv topshiriqlarining maqbul kombinatsiyasi va almashinuvi boy rivojlanish imkoniyatlariga ega, har bir boshlang‘ich sinf o‘quvchisining proksimal rivojlanish zonasida o‘qituvchining ishini tashkil etishga imkon beradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ fikrlashini rivojlantirishda izchillik muhimdir, chunki epizodik kreativ vazifalar faollikni oshirmaydi. Zamonaviy dunyo muammolarni hal qilishda shaxsdan moslashuvchanlikni talab

---

<sup>70</sup> B.E.Karimova. Kreativ pedagogika. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “Innovatsiya-Ziyo”, 2022. – 320 b.

qiladi. Yosh avlodni tarbiyalashda uning fikrlarining moslashuvchanligini va kreativligini shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

O‘quvchi tafakkurining moslashuvchanligi, tezligi, aniqligi hamda o‘ziga xosligini rivojlantirishda muammoli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish kreativ fikrlashni samarali shakllantirishga imkon beradi.

Shunday qilib, S.G.Gluxova “kreativlik – bu kreativ faoliyatning zaruriy sharti va natijasi bo‘lgan, shaxsning kreativlikda o‘zini namoyon qilish yo‘nalishi, tayyorligi va qobiliyatini belgilaydigan shaxsning dinamik integral xususiyati” deb ta’kidlaydi<sup>71</sup>.

O‘quv jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ rivojlanishi uchun mo‘ljallangan dasturlarning vazifalarni tanlash va tizimlashtirish, muammoli ta’lim texnologiyalaridan foydalangan holda ma’lumotlarni qayta ishlash boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish uchun muammoli ta’lim texnologiyalaridan foydalanishda muhim bosqichdir.

Boshlang‘ich sinf darslarida kreativ fikrlashni rivojlantirish uchun qulay, xayrixoh va erkin muhit yaratish zarur. Bunda o‘quvchilarning yaratish faoliyati interfaol o‘zaro ta’sir orqali amalga oshiriladi, o‘qituvchi esa jarayonni boshqaradi.

Muammoli ta’lim texnologiyalari o‘qituvchiga nafaqat mutaxassislik bilimlarini, balki texnologiyalardan foydalangan holda darsni samarali tashkil etish usullarini beradi. Buning samarali qo‘llanilishi yuqori malakali va tajribali mutaxassislarni talab qiladi.

---

<sup>71</sup> Глухова С.Г. Развитие творческого потенциала младших школьников в учебной деятельности [Текст]: дис. ... канд. пед. наук: 13.00.01 / С.Г.Глухова. – Москва, 1997. – С. 67.

## I bob bo'yicha xulosalar

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ fikrlashi ularning shaxsiy salohiyati sifatida kognitiv, motivatsion va faoliyat komponentlari orqali namoyon bo'ladi. Ushbu jarayon o'quvchining ichki motivlari va o'qituvchi belgilagan vazifalar bilan uyg'unlashganda samarali bo'lib, uning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

2. Kreativ fikrlashni shakllantirish jarayonida frontal, guruhli va individual ishlash shakllari muhim pedagogik vosita sifatida ajralib turadi. Frontal ishlash o'quvchilarni umumiy bilim va ko'nikmalar bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi, guruhli ishlash esa muloqot, hamkorlik va muammolarni birgalikda hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi, individual ish esa har bir o'quvchining shaxsiy qobiliyatlarini chuqurroq rivojlantirishga xizmat qiladi.

3. O'quvchilarning kreativ salohiyatini samarali rivojlantirish uchun o'qituvchi boshqaruv rolini to'liq amalga oshirishi, gumanistik va ijodiy yo'naltirilgan ta'lim muhitini tashkil qilishi hamda yosh xususiyatlariga mos ilmiy-metodik yondashuvni qo'llashi zarur. Shu bilan birga, pedagogik shart-sharoitlarning uyg'unligi va turli ishlash shakllarini maqsadli qo'llash jarayon samaradorligini oshiradi.

4. Natijada, boshlang'ich maktabda kreativ fikrlashni rivojlantirish o'quvchining bilim va ko'nikmalarini kengaytirish bilan birga uning ijodiy, gumanistik va qiymat-semantik yondashuvini shakllantirishga xizmat qiladi, ta'lim sifatini oshirishda, shuningdek, o'quvchilarning shaxsiy va intellektual rivojlanishida muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

5. O'quvchining "kreativ fikrlashi" tushunchasiga berilgan ta'riflarni tahlil qilib, shunday xulosaga kelish mumkin: kreativlik – muammoni yechish jarayonida, ya'ni muammoli vaziyatda o'quvchining yangi original g'oyalarni yaratishi, nostandart qarorlar qabul qilishi va noodatiy harakat qilish qobiliyatini belgilovchi tafakkur mahsulidir.

## **II bob. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ fikrlashini rivojlantirishda ijodiy mazmundagi mashqlardan foydalanish metodikasi**

### **2.1-§. Ijodiy mazmundagi mashqlar yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ fikrlashini rivojlantirishning didaktik asoslari**

Hozirgi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ fikrlashini rivojlantirish jarayonida eng katta e'tibor rag'batlantiruvchi va psixologik jihatdan xavfsiz ta'lim muhitini yaratishga qaratilgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'quv faoliyati maydonlari o'quvchilarning qiziqishi, hissiy ishtiroki va tadqiqot faoliyatini rag'batlantiradigan tarzda tashkil etilganda, ularning tasavvur va ijodiy qobiliyatlari sezilarli darajada rivojlanadi. Sinf xonasi moslashuvchan o'quv zonalari, tematik "kreativ bekatlar" va o'quvchilarga konstruktiv, badiiy, raqamli hamda tabiiy materiallarga erkin kirish imkonini beruvchi resurslarga boy sinf burchaklarini o'z ichiga olgan holda qayta tashkil etilib, qulay ta'lim muhiti yaratilishi kerak. Ushbu yondashuv boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy faoliyatni rag'batlantirish va ularning kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish uchun qulay sharoit yaratadi.

O'quvchilarga mavhum tushunchalarni tasavvur qilish va hayolda paydo bo'ladigan fikrlarni amalda qo'llash imkonini beruvchi real va virtual tashqi ko'rinishga keltirish, kreativlikni o'z-o'zidan paydo bo'ladigan hodisa emas, balki pedagogik jarayonda amaliy topshiriqlar va ijodiy mazmundagi mashqlarni bajarish, "Vertual sxemalar" tuzish, "Qiziqarli o'n minutlik", "Besh minutlik esse" yozish kabi interaktiv metodlar yordamida shakllantiriladi. Shuningdek, kreativ rivojlanishning nazariy konstruksiyalarini haqiqiy sinf amaliyoti bilan bog'lovchi "Vertual muhitlarda tayyorlangan boshqotirmalar", "Gugurt cho'pi topishmoqlari", "Savol-javob zanjiri", "Klaster usuli", "Rolli o'yinlar", "3-2-1", "Qutichadagi savollar"ni yechish singari metodlardan foydalanildi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ fikrlashni rivojlantirish metodikasi o'quv mashg'ulotlaridagi "pastdan-yuqori"ga yo'nalganlikdan taksonomik arxitektonika orqali "yuqoridan-past"ga konstruktiga kognitiv generatsiya asosida

o'zgartirishga ko'ra takomillashtirish maqsadida ijodiy mazmundagi mashqlardan foydalanildi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ijodiy mazmundagi mashqlar – bu o'quvchilarning tayyor bilimlarini takrorlashdan ko'ra, mustaqil tafakkur, tasavvur va yangi g'oyalarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan ta'limiy faoliyat shakllaridir. Ilmiy nuqtai nazardan, bunday mashqlar o'quvchilarning kognitiv faoliyatini faollashtirib, tahlil qilish, solishtirish, umumlashtirish, taxmin qilish hamda muammoli vaziyatlardan innovatsion yechim topish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Ijodiy mashqlarni bajarish jarayonida o'quvchi o'z shaxsiy tajribasiga tayangan holda ijodiy tafakkurini va nutqiy faolligini oshiradi, mustaqil qarorlar qabul qilish qobiliyatini mustahkamlaydi va bilimlarni turli vaziyatlarda qo'llash imkoniyatini beradi. Shu tariqa, bunday mashqlar erkin va tanqidiy fikrlashni shakllantirishga, shuningdek, o'quvchining intellektual va kreativ salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Demak, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ijodiy mazmundagi mashqlar shaxsga yo'naltirilgan pedagogik vosita sifatida o'quv jarayonining sifatini oshirish va individual rivojlanishni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari tasavvurini reallikka implementatsiyalash maqsadida “ijodkor o'quvchi” loyihasi ishlab chiqildi hamda ijodkorlikka asoslangan tamoyillardan foydalanish asosida o'quvchilarni maxsus tanlangan savollar va topshiriqlar bajarishlari natijasida ularning kreativ fikrlash kompetensiyalarini egallashlariga erishildi.

Bunda har bir sinfga mos loyihalar, xayoliy ixtirolar, kelajakdagi modellar, taqdimot qilish, metakognitiv xabardorlik, hamkorlikda o'qitish va refleksiv baholash kabi zamonaviy uslublardan har bir mavzu, sinf, choraklarda tizimli foydalanildi.

Nazariy va metodik tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida raqamli texnologiyalarni integratsiyalash ularning original g'oyalarni amaliyotga tadbiq etish imkoniyatini yaratadi. Ushbu jarayonda hikoya qilish, kodlash, vizual dizayn va animatsiya uchun raqamli platformalardan

foydalanish orqali o'quvchilarga xayoliy g'oyalarni ifoda etishning muqobil metodikalari taklif etiladi. Natijada, raqamli san'at ilovalari va animatsiya dasturlari kabi vositalar yordamida o'quvchilar o'z aqliy tasvirlarini raqamli artefaktlarga aylantirish imkoniga ega bo'ldilar. Ushbu yondashuv natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ fikrlashni rivojlantirish va ularning ijodiy salohiyatini oshirishga erishildi. Portfoliolar, reflektiv jurnallar, kuzatuv ro'yxatlari va tengdoshlarni baholash amaliyotlari o'quvchilarni o'zlarining kreativ jarayonlarini baholashga, tavakkal olishning qiymatini tushunishga va vaqt o'tishi bilan o'z g'oyalarni takomillashtirishga olib kelishi amaliyot natijasida o'z tasdiqini topdi.

O'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishning didaktik asoslari haqida so'z yuritish ekanmiz, fikrlash tushunchasini tasnifiga to'xtalib o'tamiz.

Fikrlash – muayyan voqea-hodisa haqida ma'lum bir xulosaga kelish uchun mulohaza yuritish, o'ylashni ifodalovchi tushuncha. U ham faoliyatga mos bo'lgan harakatga ega bo'lishni talab qiladi<sup>72</sup>.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari kreativ fikrlashini rivojlantirishda o'qitiladigan darslar, tashkil qilinadigan sinfdan tashqari ishlar, ayniqsa, bu jarayonda taqdim etiladigan maqsadga yo'naltirilgan savol va og'zaki mashqlar ham muhim o'rin tutadi<sup>73</sup>. O'z navbatida an'anaviy darslarda o'qituvchilar ko'pincha o'quvchilarga yozma mashqlarni bajarishga alohida e'tibor qaratadilar. Bunday jarayonda o'quvchilarning diqqati asosan topshiriqlarni to'g'ri va aniq yozishga yo'naltiriladi, natijada esa ko'pchilik hollarda masala yoki mashqning mazmuniy jihatlariga yetarlicha e'tibor qaratilmaydi. Shu sababli o'qituvchilar tomonidan maxsus tayyorlangan ijodiy mazmundagi mashqlar tizimidan o'quv-tarbiya jarayonida samarali foydalanish boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ fikrlash qobiliyatini va ijodiy tafakkurini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Ijodiy mazmundagi mashqlar boshlang'ich sinf o'quvchilariga hodisaning

---

<sup>72</sup> Роберт И.В. Современные информационные технологии в образовании [Текст]: Монография. М., 2010. – С. 7.

<sup>73</sup> Зайниддинова М.А. Оғзаки машқлар тизими орқали бошланғич синф ўқувчиларининг ҳисоблаш малакаларини шакллантириш. Пед.ф.н... дисс. – Т., 1996. – 123 б.

mohiyatini tez anglash va uni to'g'ri izohlash imkonini beradi, holbuki an'anaviy yozma mashqlar ko'pincha mazmuniy tushunishni qiyinlashtiradi. Bunday mashqlar turli xildagi bo'lib, obyektlarni berilgan belgilar asosida topish, ularning o'xshashligi va farqlarini aniqlash, shuningdek, qonuniyatlarni tasniflash kabi faoliyatlarni o'z ichiga oladi. O'quvchilarning tanqidiy, ijodiy va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, diqqat va e'tiborini kuchaytirish maqsadida darslarni interfaol va didaktik o'yinlar hamda muammoli vaziyatlar kabi metodlar yordamida tashkil qilish samarali hisoblanadi. Tabaqalashgan ijodiy mashqlar tizimi esa har bir o'quvchining individual aqliy va psixologik imkoniyatlarini hisobga olib, ularning kreativ salohiyatini maksimal darajada rivojlantirishga yordam beradi.

Ijodiy mazmundagi mashqlar fanlarni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyadan foydalanish vositasi hamda o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish, o'quv jarayoni samaradorligini oshirish borasida katta imkoniyatlarga ega bo'lib, o'quvchi shaxsini rivojlantiruvchi asosiy vositadir<sup>74</sup>. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini darslarda kreativ fikrlashga o'rgatish uchun turli metodlar va usullar mavjud. Ochiq savollar berish, guruhda ishlash, ijodiy faoliyatlarni tashkil etish, real hayot bilan bog'lash, xatolarni qabul qilish, vizual vositalardan foydalanish, motivatsiya berish, fikrlarni qabul qilish va baholash, fikrlash jarayonini boshqarish va yangi g'oyalarni taklif etish orqali o'quvchilarni kreativ fikrlashga o'rgatish mumkin<sup>75</sup>. Xususiyl didaktika sohasida o'quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish borasida turli yo'nalishlarda ilmiy yondashuvlar ishlab chiqilgan. Jahonda ilim fan va texnologiyaning jadal suratlarda rivojlanishi ta'lim berishda yangi texnologik yondashuvlarni shakllantirishga olib keldi, natijada o'quvchilarning kreativ fikrlashini optimallashtirish zaruratini keltirib chiqardi. Mutaxassislar fikrlashni

---

<sup>74</sup> Axmetjanov M.M., Tojiyev M., Tosheva G.D. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T., 2018. – 249 b.

<sup>75</sup> Satbayeva M.T. Boshlang'ich sinf o'quvchilarni darslarda kreativ fikrlashga o'rgatish metodlari. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi. Vol. 38 No. 2 (2025). – 296-300 b.

rivojlantirishda turlicha yondashuvlarni taklif qilgan.

Sharqona falsafada inson fikrlashining tabiati keng qamrovli tahlil qilingan. Jumladan, Forobiy inson va borliq munosabatlarini, shuningdek, turli fanlar nuqtai nazaridan fikrlash faoliyatini o'rganishga katta e'tibor qaratgan. Uning qarashicha, inson ma'naviy kamolatining oliy darajasi aql, ruh va tafakkur fikrlash orqali namoyon bo'lib, bu insonning bilish faoliyatiga mos holatda shakllanadi.

Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri" asarida aqliy quvvat haqida, aql va tafakkur, aql va tafakkurdan qanday foydalanish haqida so'z yuritib, ulardan biri sifatida fikrlash qobiliyatiga e'tibor qaratgan. Unga ko'ra, yuqori fikrlash qobiliyatiga ega inson topshiriqlarni tez va to'liq tushunadi, ularning mazmunini ravshan tasavvur qilishini, suhbatdoshini maqsadi va fikrining rostligini aniqlay oladi. Bunday shaxs o'tkir zehinli va zukko bo'lib, quvvai hofizasi u anglagan, ko'rgan, eshitgan, idrok etgan narsalarini xotirasida to'la-to'kis saqlashi, o'z fikrini izchil va mantiqan bayon etish hamda bilimlarni tez va samarali o'zlashtirishni ta'kidlagan<sup>76</sup>.

Abu Ali ibn Sino "O'rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar" asarida fikrlash jarayonini rivojlantirishga oid masalalarga e'tibor qaratadi. "Tadbiri manzil" ("Bolani tarbiyalash va o'qitish") asarida u o'quvchilarning fikrlashini oshirish va bilim berish samaradorligini ta'minlash uchun fan yutuqlariga qiziqish uyg'otish, raqobatlashish imkoniyatini yaratish va o'quvchilarni birgalikda o'qitish zarurligini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, olim suhbatdoshga hurmat bilan munosabatda bo'lishning ahamiyatiga e'tibor qaratadi: "Sening fikring (bolaning) yuragiga yetib borib, unga o'ylab, fikr yuritib ko'rishga imkon bersin... Agarda sening suhbatdoshing yoki do'sting so'zlaringga va nasihatlaringga e'tibor bermayotganini sezsang, suhbatni boshqa vaqtga ko'chir<sup>77</sup>".

Kaykovus "Qobusnoma" asarida inson fikrlashining faqat ilmiy-nazariy bilimlarga emas, balki shaxsiy hayotiy tajribaga tayangan holda, maqsadga

---

<sup>76</sup> Ibragimov R. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida bilish faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari: ped. fan. dok. dis. avt. O'zPFITI – T., 2005. – 41 b.

<sup>77</sup> Гилфорд Д. Три стороны интеллекта // Психология мышления / Ред. А.М.Матюшкин. – М.: Прогресс, 1965. – С. 447.

yo'naltirilgan g'oyalar asosida rivojlanishi mumkinligini ta'kidlaydi. U bu prinsipni o'g'liga nasihat shaklida ifodalaydi: "Ey farzand, bilgilki, barcha hukmni kitob bo'yicha qilmasdan, o'z fikrlari bilan ham hukm qilurlar va bunday tadbirlar bilan ham ishni bilib olurlar<sup>78</sup>".

Inson fikr, aql, sezgilari vositasida bilimlarni egallashi to'g'risida qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy mulohazalarini bayon qilar ekan, shunday yozadi: "Faqat sezgi orqali, sezgi organlari bilan erishilgan bilimlar xatolarga olib kelishi mumkin. Agar inson sezgilardan fikrlash va xulosa chiqarishda foydalansa, ana shu sezgilar yordamida idrok qilinadigan narsalarni o'rganishda juda katta yutuqlarga erishishi mumkin. Istaklarga samarali va mashaqqatli mehnat tufayli erishiladi<sup>79</sup>". Olimning ta'kidlashicha, sezgi organlari orqali qabul qilingan ma'lumotlarni hayotiy vaziyatlarda, mavjud muammolarni yechish jarayonida to'g'ridan-to'g'ri qo'llamasdan, balki idrok qilish, fikrlash va tashxislash orqali tegishli xulosalar chiqarilsa, ana shu bilimgina haqiqiy va mustahkam bo'ladi.

Alisher Navoiy so'z va tafakkurni bir-biriga chambarchas bog'liq birlik sifatida ko'rib, fikrga mas'uliyat bilan yondashish zarurligini o'z asarlarida ta'kidlaydi. "So'zni ko'ngulda pishqormaguncha, tilga keltirma" tamoyili orqali u til va tafakkur uyg'unligi muammosiga e'tibor qaratadi. "Mahbub ul-qulub" asarida esa bilimga ega bo'lsa-da, to'g'ri fikrlay olmaydigan insonni tanqid qilib, bundaylarni "nodon" deb ataydi<sup>80</sup>.

Abdulla Avloniy "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarida badan va fikr tarbiyasining muhimligiga e'tibor qaratadi. U fikr tarbiyasini inson hayotidagi muhim jarayon sifatida baholab, uning shakllanishida muallimning yordami nihoyatda zarur ekanligini ta'kidlaydi<sup>81</sup>.

Tadqiqot jarayonida taklif qilinayotgan ijodiy mazmundagi topshiriqlarni o'quvchilar tomonidan mustaqil yechish jarayonida ularning aqliy faoliyati

---

<sup>78</sup> Kaykovus. Qobusnoma. – Toshkent: Istiqlol, 1994. – 321 b.

<sup>79</sup> Ibragimov R. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida bilish faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari: ped. fan. dok. dis.avt. O'zPFITI – T., 2005. – 41 b.

<sup>80</sup> Navoiy A. Mahbub ul qulub. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1989. – 70 b.

<sup>81</sup> Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'zbekiston, 1992. – 178 b.

kuchayishini, tafakkur qilishi chuqurlashganini va ular moammolarni yechishda rang-barang alaqalarni aniqlashini va bir-biriga bog‘lash qobiliyatlarini shakllanib borayotganligini ko‘rsatadi. Natijada ularning faoliyatning yuqori va izchil darajasi ta‘minlanadi hamda o‘quv-biluv jarayonini jadallashtirishga erishiladi.

Xorijlik olimlar fikrining dastlabki nazariyalaridan biri assotsiativ yo‘nalish bo‘lib, uning vakillari fikrlashni assotsiatsiyalar orqali rivojlanadigan jarayon deb hisoblaganlar. Ushbu yo‘nalish vakillari orasida Angliyada D.Yum, D.Gartli, P.Pristli, Djems Mill, D.Styuart Mil, Aleksandr Ben, G.Spenser; Fransiyada T.Ribo; Germaniyada T.Sigen va Y.Ebbingauzlarni sanash mumkin. “Assotsiatsiya” tushunchasini dastlab D.Lokk izohlagan bo‘lib, u fikrlash va ruhiy kechinmalarni umumiy mexanizm sifatida ko‘rgan<sup>82</sup>. U assotsiativ yo‘nalishda uch asosiy g‘oyani ilgari surgan: ruhiyatdagi assotsiatsiya, bilimning hissiyotdan kelib chiqishi hamda fikrlash jarayonining boshqalardan mustaqil xarakteri. Ushbu nazariyaning asosiy cheklovi shundaki, unda subyektning aqliy faolligi va muammoning mohiyati bilan bog‘liqlikka e‘tibor berilmagan; fikrlash faqat o‘z-o‘zicha, mustaqil jarayon sifatida qaraladi. Shu bilan birga, aqliy faoliyatning eng rivojlangan ko‘rinishini xotiraning qayta ishlash mahsuli sifatida baholash assotsiativ yondashuvga xosdir.

A.I.Golikovning fikricha, fikrlash jarayonining assotsiativ yondashuv tarafdorlari nuqtayi nazaridan tushunish pedagoglar va psixologlar tomonidan keskin tanqid qilingan<sup>83</sup>. Assotsiativ yondashuvga qarshi chiqqan Vyursburg ilmiy maktabi vakillari fikrlash jarayonining sifat jihatdan o‘ziga xosligini ta‘kidlaganlar. Ular fikrlash faoliyatida o‘ziga xos bo‘lgan alohida sezgi organlari bilan anglab bo‘lmaydigan, ongli tarzda boshqarilmaydigan fikrlash komponentlarini ko‘ra bilganlar. Shunga ko‘ra fikrlash jarayonini sof harakat sifatida baholaganlar hamda fikrlash jarayonini tizimli eksperimental o‘rganishga asos solganlar. Bunday yondashuv introspeksiya uslubiga zarba bergan. O‘tkazilgan eksperimentlar

---

<sup>82</sup> Локк Д. Опыт о человеческом разумении. – М., 1898. – С. 739.

<sup>83</sup> Голиков А.И. Теория и методика математического развития младших школьников в учебной деятельности: дисс. докт. пед. наук. – М., 2008. – С. 323.

natijasida subyekt o'zining fikrlash jarayonini doimo anglay olmasligi, masalani yechayotganida nima sababdan uning hayoliga turli fikrlar kelishi mumkinligini tushuntira olmasliklarini ta'kidlaganlar. Olimning fikricha, insondagi fikrlash faoliyatining rivojlanish jarayoni fikrlar o'rtasida yangi munosabatlarning yuzaga kelishi sifatida tushuniladi. Bu munosabatlar oldingi fikrlash jarayonlariga bog'liq bo'ladi. Rivojlanib, o'sib boruvchi, idora qiluvchi odatlar, ko'nikmalar fikrlashning tartibli kechish asosidir.

Fikrlash qonuniyatlarini va ularning o'ziga xos jihatlarini tahlil qilish, yoshlar bilan bog'liq holda o'rganishga taniqli rus olimlari va psixologlaridan eng katta tajribalar, kuzatishlar olib borgan P.P.Blonskiy<sup>84</sup>, A.V.Brushlinskiy, Y.N.Kabanova-Meller<sup>85</sup>, L.S.Vigoskiy<sup>86</sup>, P.Y.Galperin<sup>87</sup>, V.V.Davidov<sup>88</sup>, A.N.Leontev<sup>89</sup>, N.A.Menchinskaya<sup>90</sup>, S.L.Rubinshteyn, D.N.Bogoyavlenskiy<sup>91</sup>, Y.A.Ponomarev<sup>92</sup>, N.F.Talizina<sup>93</sup> va boshqalar katta hissa qo'shganlar.

O'quvchilarni o'qitish nazariyasiga oid L.S.Vigoskiy tomonidan o'qitish nazariyasiga doir bildirilgan fikrga ko'ra o'quvchining aqliy rivojlanganligi shunday: "to'g'ri tashkil qilingan o'qitish bolaning aqliy rivojlanishiga olib keladi". L.S.Vigoskiy va P.P.Blonskiylar yoshlikda olingan ilm fikrlash qobiliyatini jadal rivojlantirishini aniqlaganlar<sup>94</sup>. Bu fikrlar xuddi xalqimiz orasidagi "Yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqsh kabidir" degan ibora mazmunini anglatadi.

### S.L.Rubinshteyn fikrlash jarayoni va uning natijalari bir-biriga

---

<sup>84</sup> Блонский П.П. Психология младшей школы: Избранные психологические труды. – М.: МПСИ, 2006. – С. 631.

<sup>85</sup> Кабанова-Меллер Е.Н. Учебная деятельность и развивающее обучение. – М.: Знание, 1981. – С. 85.

<sup>86</sup> Выготский Л.С. Педагогическая психология. – М.: Педагогика, 1991. – С. 479.

<sup>87</sup> Гальперин П.Я., Котик Н.Р. К психологии творческого мышления // Вопр. психология, 1982. № 5. – С. 80-84.

<sup>88</sup> Давыдов В.В. О понимании развивающего обучения // Педагогика. 1995. № 1. – С. 29-30.; Давыдов В.В. Теория развивающего обучения. – М.: Интор, 1996. – С. 544.

<sup>89</sup> Леонтьев А.Н. Общее понимание деятельности. – М.: Наука, 1977. – С. 368.

<sup>90</sup> Менчинская Н.А. Проблемы обучения, воспитания и психического развития ребенка [Текст] / Н.А.Менчинская. – М.: Институт практической психологии, 1998. – С. 253.

<sup>91</sup> Богоявленский Д.Н. Психология усвоения орфографии. Изд-во Академии педагог. наук РСФСР, 1957 ; Length, – P. 414.

<sup>92</sup> Пономарев Я.А. Знания, мышление и умственное развитие – М.: Просвещение, 1967. – С. 264.

<sup>93</sup> Талызина Н.Ф. Управление процессом усвоения знаний. – М.: Изд.МГУ, 1995. – С. 88.

<sup>94</sup> Блонский П.П. Психология младшей школы: Избранные психологические труды. – М.: МПСИ, 2006. – С. 631.

bog'liqligini ko'rsatib o'tgan. Uning o'qish hali fikrlash emasligi haqidagi nazariyasini shunday izohlash mumkin: Kimdir yo'ning uzunligini bilishi mumkin, ammo undagi burilishlar, o'y dum-chuqurlarni tahlil qilsagina u avtomobilda manzilga eson-omon yetib borishi aniq.

S.L.Rubinshteyn maktabi psixologlari izlanishlari ko'rsatganidek, o'quvchilar oldiga tobora qiyinlashib boradigan masalalarni qo'yish bolaning o'rganish faoliyatini tashkillashtiradi va lozim bo'lgan tomonga yo'naltiradi, uning kreativ fikrlashini rivojlantiradi degan g'oyani ilgari surgan.

A.Savenkov <sup>95</sup> o'quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirish muayyan didaktik tamoyillarga asoslanadi. Muallifning fikricha, mazkur jarayon muammoli vaziyatlarni turli mantiqiy va ijodiy yondashuvlar asosida shakllantirish hamda hal etish, o'quv mazmunini zamonaviy talablar asosida muntazam takomillashtirib borish, shuningdek, o'quvchilarning egallagan bilim, malaka va ko'nikmalarini real amaliy faoliyat jarayonida samarali qo'llay olishlarini ta'minlashga yo'naltirilgan.

Shu bilan birga, o'quvchi intellektual tashabbus ko'rsata olishi, g'oyalarni tahlil qilishi, muammoni chuqur tadqiq qilishi va mustaqil izlanishga erishishi muhimdir. Ta'lim jarayonida individuallashtirish va muammoli vaziyat yaratish orqali har bir o'quvchining shaxsiy salohiyati rivojlantiriladi. Ushbu tamoyillarga asoslangan pedagogik yondashuv o'quvchilarning kreativ fikrlashini yuqori darajada shakllantirishga imkon beradi.

O'quvchilarning an'anaviy ta'limga asoslanib o'qitish jarayoni, ya'ni o'quvchining obyekt, o'rgatuvchining subyekt sifatidagi faoliyatidir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ fikrlashni rivojlantirish metodikasi o'quv mashg'ulotlarida taksonomik tuzilganligi sababli "pastdan-yuqoriga" (soddadan murakkabga) yo'nalganlik muhim bosqichdir. Ta'lim jarayonida olib borilayotgan zamonaviy yondashuvlar, axborotlashgan ma'lumotlar bazasidan oqilona foydalanish esa o'z-o'zidan "yuqoridan-past"ga konstruktiga kognitiv o'tkazish

---

<sup>95</sup> Савенков А.И. Маленькие исследователи в реальной жизни // Дошкольное образование. № 7-2004. – С. 6-19.

imkoniyatini yaratadi. Bunda o'quvchini rag'batlantirishga e'tibor qaratilishi muhimdir. Biz tomonimizdan ihslab chiqilgan ijodiy mazmundagi mashqlar to'plami tizimli ravishda dasr mashg'ulotlarida qo'llanilishi yuqoridagi g'oyani amalga oshirish imkoniyatini yaratdi. O'quvchini ta'limdagi subyektga aylantirilishiga asos bo'ldi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan ijodiy mashqlar quyidagi asosiy turlarga ajratiladi:

### **1. Ochiq yechimli mashqlar**

Bu mashqlarda yagona to'g'ri javob mavjud bo'lmaydi. O'quvchi bir masalaga bir nechta yechim taklif qilishi mumkin. Bundan ko'zlangan asosiy didaktik vazifa fikrlashning moslashuvchanligi va originaligini rivojlantirish.

### **2. Muammoli vaziyatga asoslangan mashqlar**

Muammoli savollar va vaziyatlar orqali o'quvchida kognitiv ziddiyat yuzaga keltiriladi. Ko'zlangan maqsad tahlil qilish, solishtirish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirish.

### **3. Obrazli tafakkur va assotsiativ jarayonlarni faollashtiruvchi mashqlar**

Bir-biriga bevosita bog'liq bo'lmagan tushunchalarni bog'lashga qaratilgan mashqlar. Didaktik vazifasi tasavvur, fantaziya va kreativ kombinatsiyalarni rivojlantirishdan iborat.

### **4. Bilim va ko'nikmalarni yangi shaklga o'tkazishga qaratilgan mashqlar**

Berilgan obyekt yoki vaziyatni o'zgartirish, qayta qurish, yangi shakl berish talab qilinadi. Didaktik vazifa sifatida asosiy e'tibor kreativ transformatsiya va sintez qobiliyatlarini shakllantirishga qaratiladi.

O'quvchilar bilan og'zaki mashqlar ustida ishlashni tashkil etishning ba'zi masalalari A.M.Pishkalo<sup>96</sup>, R.Ibragimov, M.A.Zayniddinova, F.M.Qosimov va boshqalarning ishlarida ma'lum darajada o'z aksini topgan, ammo ko'rsatib o'tilgan mualliflar ijodiy ishlarni o'quvchilarning hisoblash ko'nikma, malakalarini shakllantirish va rivojlantirish bilan bog'laganlar.

---

<sup>96</sup> Пышкало А.М. Обучение младших школьников. – М.: Просвещение, 1973. – С. 247.; Stoylova L.P., Pishkalo A.M. Boshlang'ich matematika kursi asoslari. – T.: O'qituvchi, 1991. – 221 b.

F.M.Qosimovning “Boshlang‘ich sinf matematika darslarida ijodiy topshiriqlar va ular ustida ishlash metodikasi” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida<sup>97</sup> boshlang‘ich sinflarda ijodiy topshiriqlar turlari, ularning tasnifi, yaratish usullari va darslarda qo‘llash metodikasi tadqiq qilingan, biroq og‘zaki mashqlar va ulardan foydalanish masalasi alohida predmet sifatida o‘rganilmagan.

R.Ibragimovning “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilish faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari” nomli doktorlik dissertatsiyasida<sup>98</sup> esa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilish faoliyatini shakllantirish masalalari batafsil tahlil qilingan. Tadqiqotda matematika kursi materiallari asosida bilish faoliyatining shakllanish tizimi, uni o‘rganishning metodikasi, pedagogik shart-sharoitlari mazmuni, shuningdek, o‘quvchilarning bilim olish darajasi aniqlashtirilgan, ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

O.Roziqovning ilmiy-pedagogik tadqiqotlarida<sup>99</sup> o‘quv mashqi o‘quv materiali bilan yonma-yon tahlil qilingan. Muallif o‘quv mashqlarining quyidagi xususiyatlarini qayd etgan: 1) qurish mumkinligi; 2) ta‘lim jarayoni aktlari, bosqichlariga mosligi; 3) u o‘quv materialining shakli ekanligi; 4) qurish va qayta qurish imkoniyatining mavjudligi; 5) bir mashq o‘rnida boshqasini qo‘llash imkoniyatining borligi; 6) bir-birini to‘ldirishi; 7) bilim va faoliyat usullarini o‘rganish hamda takomillashtirish talablariga mosligi; 8) ochiq tizim ekanligi; 9) ta‘lim sharoitida o‘qish va o‘rganish ehtiyojini qondirishi.

E.M.Xudaynazarovning “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari mantiqiy fikrlashini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish” mavzusida pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiyasida<sup>100</sup> boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mantiqiy fikrlash mazmuni, uning egallanishi shart-sharoitlari va o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish tizimi,

---

<sup>97</sup> Qosimov F.M. Boshlang‘ich sinf matematika darslarida ijodiy topshiriqlar tizimi: Ped. fanl. nomz. ... diss. – Buxoro: BDU. 2007. – 202 b.

<sup>98</sup> Ibragimov R. Boshlang‘ich maktab o‘quvchilarida bilish faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari. Ped. fan. dok. ... diss. – Toshkent: TDPU, 2001. – 243 b.

<sup>99</sup> Roziqov O. va boshqalar. Didaktika. – T.: Fan, 1997. – 256 b.

<sup>100</sup> Xudoynazarov E.M. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari mantiqiy fikrlashini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish: P.f.f.d. ... diss. – Termiz: 2022. – 169 b.

didaktik shart-sharoitlari, bosqichlari, shakllanganlik ko‘rsatkichlari hamda ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

A.I.Golikov ilmiy-pedagogik tadqiqotlarida <sup>101</sup> boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv jarayonida matematik fikrlash qobiliyatini, tafakkurini rivojlanishning metodikasini ishlab chiqqan, fikrlash qobiliyatini rivojlanishining mezonlari va darajalarini belgilangan. Metodik tizimni kengaytirish masalasi va unda ijodiy mazmundagi mashqlardan foydalanish obyekt sifatida qaralmagan.

I.G.Lipatnikova ilmiy-pedagogik tadqiqotlarida <sup>102</sup> ijodiy mashqlardan foydalanish mavjud metodik tizimning asosi va to‘liq qamrab olishini ko‘rsatib bergan, ammo o‘quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishning asosiy vositasi ekanligiga va metodik tizimni takomillashtirishga to‘xtalmagan.

L.M.Fridman o‘quv mashqlarining didaktik xususiyatlarini tahlil qilib, ularni aqliy va amaliy mashqlarni bajarishdagi “to‘siqni” bartaraf etish deb qarab, uni ongda hosil bo‘lgan muammoli holatning nutq vositasida berilgan modeli deb tahlil qilgan<sup>103</sup>.

Y.A.Ponomarev tadqiqotlarida <sup>104</sup> mashqlar nazariyasi qator kategoriyalar, jumladan, subyekt va obyektning o‘zaro ta’siridan o‘quv holatining yuzaga kelishi, o‘quv holatida subyektning faol qatnashishi, faol xatti-harakatning bilimlarni egallash va takomillashtirishga yo‘nalganligi sharhlangan.

Mavjud tadqiqotlar biz qo‘ygan muammoning yo‘nalishlarini ma’lum darajada aks ettirsa-da, boshlang‘ich sinf darslarida shaxsni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari darajasida tahlil qilinmagan. Shuningdek, darslarda ta’lim texnologiyalarini qo‘llab, ijodiy mashqlardan foydalanish o‘quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantiruvchi omil sifatida tadqiq etilmagan.

Tadqiqotda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ fikrlashini

---

<sup>101</sup> Голиков А.И. Теория и методика математического развития младших школьников в учебной деятельности: дисс. докт. пед. наук. – М., 2008. – С. 323.

<sup>102</sup> Липатникова И.Г. Устных упражнения и развитие системы обучения математике в начальной школе: дисс. на соискание уч.ст.канд. пед. наука – Екатеринбург., 1999. – С. 168.

<sup>103</sup> Фридман Л.М. Психолого-педагогическое математическое образование в начальной школе. – М.: Просвещение, 1983. – С. 160.

<sup>104</sup> Пономарев Я.А. Знания, мышление и умственное развитие. – М.: Просвещение, 1967. – С. 264.

rivojlantirishda evristik va mantiqiy-algoritmik uslublardan foydalanildi. Evristik uslublar real hodisalarni matematik modellar orqali tushunishga xizmat qilsa, mantiqiy uslublar masalalarni qat'iy talablarga muvofiq yechishga imkon berdi.

Topshiriqlar murakkabligi va fanlarning o'ziga xos xususiyati sababli, o'quvchilarning fikrlash jarayoni turlicha kechadi. Shu bois, murakkab topshiriqlarni yechish va qo'shimcha bo'limlarni egallash jarayonida muammoli-izlanish uslubi talab etiladi.

Bundan tashqari, sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilish orqali o'quvchilarning mantiqiy fikrlash layoqatini rivojlantirish imkoniyatlari kengayadi. Tadqiqotda shu metodik imkoniyatlar va ularni yaratish shart-sharoitlari o'rganildi, bu esa boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ va mantiqiy fikrlash faoliyatini samarali rivojlantirishga zamin yaratadi.

O'quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda maqsadga yo'naltirilgan ijodiy og'zaki savol va mashqlar muhim o'rin egallaydi. Bunda kreativlikni rivojlantiruvchi mashqlarning umumdidaktik jihatlariga alohida e'tibor qaratish lozim. Ijodiy mazmundagi mashqlarni samarali qo'llashda quyidagi didaktik tamoyillarga tayanilgan:

- ilmiylik tamoyili – ilmiy asoslangan, fan yutuqlari va nazariyga mos bo'lishi;
- onglilik va faollik tamoyili – o'quvchini faol fikrlashga, mustaqil qaror qabul qilishga va muammoni anglab yechishga undashi;
- muammolilik tamoyili – muammoli vaziyatlarga asoslanib tuzilishi, o'quvchilarda savol qo'yish, taxmin ilgari surish va muqobil yechimlarni izlash ko'nikmalarini shakllantirishi;
- tizimlilik va izchillik tamoyili – oddiydan murakkabga, ma'lumdan noma'lumga tamoyili asosida ketma-ketlikda berilishi;
- individuallashtirish va differensiallash tamoyili – o'quvchilarning individual qobiliyatlari, tayyorgarlik darajasi va fikrlash uslublarini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi;
- motivatsiya va qiziqishni oshirish tamoyili – mazmunan qiziqarli, hayot

bilan bog‘liq va o‘quvchilarning ichki ehtiyojlariga mos bo‘lishi, ularning bilishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirishi;

- refleksiya va baholash tamoyili – o‘quvchilar o‘z faoliyatini tahlil qilish, o‘z-o‘zini baholash va xulosalar chiqarish imkoniyatiga ega bo‘lishi zarur.

Birinchi navbatda ularning didaktik tasnifini o‘rganish talab etiladi. Muayyan didaktik asosga tayangan holda ta’lim metodlarining quyidagi tasnifi amalga oshirilgan:

1. Bilimlarni o‘zlashtirish darajasiga ko‘ra ta’lim metodlari:

- axborotli-qabul qilish metodlari;
- reproduktiv metodlar;
- qisman izlanishga yo‘naltirilgan metodlar;
- tadqiqot metodlari.

2. Ta’lim jarayonida bilish faoliyatini tashkil etishiga ko‘ra:

- Og‘zaki metodlar;
- ko‘rgazmali metodlar;
- amaliy metodlar.

3. O‘quvchilarning turlicha bilish darajalarini aniqlashga yo‘naltirilgan metodlar qatoriga illyustiratsiyali tushuntirish, reproduktiv, muammoli bayon etish, evristik va tadqiqotchilik metodlari kiradi. I.Y.Lerner<sup>105</sup> va M.N.Skatkin tomonidan ishlab chiqilgan ushbu metodlar rivojlantiruvchi ta’lim metodlarini takomillashtirish va samarali qo‘llashda muhim ahamiyat kasb etadi.

4. O‘quvchilar oldiga maqsad qo‘yish, muammoli ta’lim jarayoniga faoliyatli yondashuv prinsiplarini hisobga olgan holda binar asosida ishlab chiqilgan metodlar. Bunday asosda metodlarni ishlab chiqishga ko‘plab tadqiqotchilarning yondashuvlari bo‘lishiga qaramasdan ular ichida nisbatan mukammali M.I.Maxmutov tomonidan taklif qilingan muammoli-rivojlantiruvchi ta’lim metodlarining didaktik tizimidir<sup>106</sup>. Bu didaktik metodlar tizimiga 7 ta umumiy muammoli-rivojlantiruvchi ta’lim metodlari (monolog, dialog,

---

<sup>105</sup> Лернер И.Я. Процесс образования и законность / Педагогика, – М.: 1992. – С. 119.

<sup>106</sup> Maxmutov M.I. Maktabda muammoli ta’limni tashkil qilish. – Toshkent: 1981. – 185 b.

ko'rgazmali, evristik, tadqiqotchilik, algoritmik, dasturlashtirilgan) kiradi va 5 ta binar metodlar, ya'ni o'qitish va o'qish (o'qitishning an'anaviy metodi va muammoli bayon qilish metodi, tadqiqotga yo'naltirilgan va o'qishning reproduktiv metodi, o'qitishning rag'batlantiruvchi metodi va o'qishning qisman izlanuvchanlik metodi, o'qitishning chorlovchi metodi va o'qishning mustaqil ta'lim metodi, o'qitishning integrativ metodlar va o'qishning amaliy metodi) tashkil qiladi.

**Ta'lim metodlari** – voqelikni amaliy va nazariy egallash, o'zlashtirish, o'rganish, bilish uchun yo'l-yo'riqlar, usullar majmuasi, pedagogik bilimlarni yaratish va asoslash usuli<sup>107</sup>.

Ta'lim metodlari mohiyati bo'yicha turlicha qarashlar mavjud bo'lib, ularni tasniflashda ikki yondashuv asos qilib olindi. Birinchisi, bilim manbalariga ko'ra metodlar: og'zaki, ko'rgazmali va amaliy metodlar; ikkinchisi, faoliyat xarakteriga ko'ra metodlar: illyustratsiyali tushuntirish, reproduktiv, evristik, muammoli ifodalash va tadqiqotchilik usullari orqali o'quvchilarga taqdim etish. Ushbu tasnif og'zaki mashqlarning ta'lim jarayonidagi o'rnini aniqlash va samarali qo'llashga xizmat qiladi.

Tadqiqotimiz natijalari boshlang'ich sinf darslarini o'qitish jarayonida ijodiy og'zaki mashqlardan foydalanish samarali ekanligini ko'rsatdi.

Boshlang'ich sinf darslarini o'qitish jarayonida ijodiy og'zaki metoddan kengroq foydalanilishini hisobga olib, reproduktiv, evristik va tadqiqotchilik metodlarining qo'llanilishiga batafsilroq to'xtalib o'tamiz.

**Reproduktiv ta'lim** [re.. + lot. productio – ishlab chiqarish, hosil qilish] – reproduktiv o'zlashtirish darajasida bir turdagi masala yoki mashqlar (savollar)ni namuna (tayyor yechib ko'rsatilgan)ga qarab yecha olishga mo'ljallangan o'quv materialiga aytiladi<sup>108</sup>.

Reproduktiv metod namunaga qarab o'quv materialini o'zlashtirish

---

<sup>107</sup> Roziqov O. va b. Didaktika. – T.: Fan, 1997. – 256 b.

<sup>108</sup> Falsafa. Qomusiy lug'at. "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti", "SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. – Toshkent. 2004. – 496 b.

metodidir. Har qanday materialni bayon qilishda yoki bu materialni tezroq tushunish uchun (darsliklarda beriladi) tayyor yechib ko'rsatilgan metodik nuqtayi nazardan qulay mashqlar berilishi hozir odatga aylangan. Bunday mashqlar o'rganilgandan so'ng boshqa namunaga o'xshamagan, lekin namunaga qarab yechilishi mumkin bo'lgan mashqlar tushuniladi. Mashqlar (savollar) namunadagi, ya'ni reproduktiv usuldagi o'zlashtirishga mo'ljallangan o'quv material bo'lsa, bularni namuna bilan bir xil turdagi o'quv material deyiladi. Bu metod bilan har qanday materialni o'rganish qulay va materialni o'zlashtirishdagi dastlabki qadamlar bo'ladi. Lekin bu usulda olingan bilim o'quvchining esida turmaydi, ya'ni olingan bilim mustahkam bo'lmaydi. Bu bilimlarni mustahkamlash, chuqurlashtirish va uni amaliyot bilan bog'lash uchun esa boshqa metod, ya'ni produktiv metoddan foydalaniladi. Reprodktiv metoddagi bilimlarni o'zlashtirish darajalari bir xil bo'ladi.

I.Y.Lerner va M.N.Skatkinlar tomonidan ishlab chiqilgan ta'lim metodlari sirasida reproduktiv ta'lim metodlaridan biri algoritmlashdir. Buning mohiyati shundan iboratki, o'quvchiga algoritmlar (ko'rsatma)lar tizimi beriladi, o'quvchi bu algoritmgaga amal qilgan holda ma'lum ko'nikmalarni egallaydi. O'quvchi bir necha belgiga ega bo'lgan murakkab tushunchalar yoki murakkab ko'nikmani egallaganda algoritmlash muvaffaqiyatli bajariladi. Ushbu metod asosida ishlaganda og'zaki mashqlarni bajarish muayyan qulaylikni ta'minlaydi.

**Evristik metod** – o'quvchilarda topqirlik, faollikni rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv jarayonini tashkil etish metodi. Evristik metod yo'naltiruvchi savollar berish yo'li bilan o'qitish tizimi; topqirlik, faollikni rivojlantirishga yordam beruvchi ta'lim metodi; o'quv-izlanishli; optimallashtirilgan tafakkurni rivojlantiradi.

Evristik metodning mohiyati shundaki, o'qituvchi o'quvchilarni muayyan dalillarni tahlil etishga jalb qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. O'qituvchi ushbu metod yordamida shunday og'zaki mashqlarni loyihalashtiradiki, unda mashqlarni qismlarga ajratish va yechimni izlash usullariga ishora qiladi, lekin barcha amallarni o'quvchining o'zi bajaradi. Bunday og'zaki mashqlarni bajarish orqali

o'quvchi dalillar bilan tanishishga, tushuncha va ko'nikmalarni o'zlashtirishga yo'naltiriladi. Ushbu metodning mohiyati yana shunda ko'rinadiki, o'qituvchi maqsadni amalga oshirishga qaratilgan savollar tizimini tuzadi. O'quvchi esa savollarga javob berish orqali ko'zlangan natijaga erishadi.

**Tadqiqotchilik metodi** esa ilmiy bilish jarayonini ta'minlash imkonini beradi. Uning yordamida o'quvchilarda ijodiy faoliyat shakllanadi hamda o'quv jarayoniga nisbatan yangidan-yangi talablar qo'yish zaruriyatini vujudga keltiradi. Tadqiqotchilik metodining mohiyati ta'lim olish jarayonida hosil bo'ladigan yangi muammolarni hal qilishda ijodiy faollik ko'rsatishdan iborat. Bu muammolarni hal qilish tadqiqot bosqichlarini ro'yobga chiqarish va o'quv harakatlarini amalga oshirishni nazarda tutadi. Boshlang'ich ta'limda ijodiy mazmundagi mashqlarni bajarish, odatda, muammoli vaziyatni keltirib chiqaradi. Tadqiqot ishlarini mustaqil amalga oshirish o'quvchidan muayyan ko'nikma va malakalarga ega bo'lishni talab qiladi. Shuning uchun ham o'quvchini bunday ishlarni amalga oshirishga tayyorlab borish kerak. Tadqiqotchilik ko'nikmalarini o'zlashtirish uchun o'quvchi evristik mashqlarni bajara olishi kerak.

Ko'rinib turibdiki, o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishda ijodiy mazmundagi mashqlar ta'lim metodlari tizimida muhim o'rinni egallaydi. Shuning uchun ham ular barcha ta'lim metodlarini amalga oshirishning muhim shakli deyish mumkin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ fikrlash qobiliyatini shakllantirishda ijodiy mazmundagi mashqlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishga yo'naltirilgan darslarda innovatsion metodlar muhim hisoblanadi. Shuning uchun ham boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlarni o'tkazishning zamonaviy metodlarini aniqlash talab etilmoqda<sup>109</sup>.

---

<sup>109</sup> Ишмухамедов Р., Абдукодилов А., Пардаев А. Таълимда инновацион технологиялар. – Тошкент: Истеъдод, 2008. – 181 б.

Xulosa qilib aytganda, ijodiy mazmundagi mashqlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ fikrlashini rivojlantirishda muhim didaktik vosita hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ fikrlash qobiliyatini talab darajasida rivojlantirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlarni o'ziga xos tarzda tashkil etish uchun interfaol metodlardan samarali foydalanish kerak. Chunki o'quv mashg'ulotlari o'quvchilarning o'quv faoliyatini tashkil qilishning asosiy shaklidir. Ular qisman izlanishga undovchi, o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Shuning uchun ham dars mashg'ulotlari o'quvchilarni kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ularning fikrlash faoliyatini samarali shakllantirish funksiyasini bajarishi lozim.

## **2.2-§. O‘quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirishga yo‘naltirilgan model va undan foydalanishning didaktik shart-sharoitlari**

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ fikrlashni rivojlantirishga yo‘naltirilgan maxsus tashkil qilinadigan mashg‘ulotlarda ijodiy mazmundagi mashqlardan unumli foydalanish texnologiyasini bayon qilish, uning tarkibiy qismlari va tuzilishi haqida amalda qo‘llashga doir ko‘rsatmalar ishlab chiqish va tadbiiq qilish lozim. Mazkur maqsadga yo‘naltirilgan o‘quv jarayonining binar yoki majmuaviy xarakterga egaligi, o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilganligi ham ta‘lim oluvchilarda kreativ fikrlashni shakllantirish va rivojlantirishda o‘ziga xos o‘rin egallaydi.

Shaxs xatti-harakati, faoliyatida kreativlik mavjudligini amaldagi an‘anaviy holatlar, tajribalardan farqli o‘laroq muammoni yangicha yondashuv asosida, nostandart uslubda yechish yuzasidan mustaqil qaror chiqara bilish iqtidori mavjudligi bilan belgilanadi. Aslida kreativlikka moyillik tug‘ma tarzda barchada mavjud bo‘lishi mumkin. Kreativlikning namoyon bo‘lishi (yoki namoyon bo‘lmasligi)ning bir qator omillari mavjud. Atrof-muhit hamda ta‘lim mazmuni va metodikasi kreativlikni namoyon bo‘lishi va rivojlanishining bosh omili hisoblanadi.

Kreativ tafakkur shaxsni yangi va noan‘anaviy yondashuvlar, imkoniyatlar, g‘oyalar hamda muammolarga noodatii yechimlarni izlash va tahlil qilishga undaydi.

Ijodiy mazmundagi mashqlar orqali kreativ fikrlashni rivojlantirish quyidagi didaktik shart-sharoitlar mavjud bo‘lgandagina samarali bo‘ladi:

- erkin va qo‘llab-quvvatlovchi ta‘lim muhiti;
- o‘qituvchining fasilitorlik roli;
- xatoga ijobii munosabat;
- rag‘batlantiruvchi baholash;
- tizimli va bosqichma-bosqich mashqlar majmuasi.

O'quvchilarining kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda ijodiy mazmundagi mashqlardan samarali foydalanishning pedagogik tuzilmasi va didaktik vazifalar quyidagilardan topshiriqlardan tashkil topgan. (2.1-rasm)



**2.1-rasm. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ fikrlashini rivojlantirishda ijodiy mazmundagi mashqlardan foydalanish jarayonining tuzilmasi**

O'quvchilarga bilim berish jarayonida ta'lim texnologiyalarini qo'llashda kreativ tafakkurga, ijodiylikka asoslangan metodlardan unumli foydalanish ko'zlangan maqsadga erishishning optimal usullaridan birdir. An'anaviy ta'lim amaliyotida savollar va muammolar yechimini topishda, shuningdek, topshiriqlarni bajarishda asosan yagona, oldindan belgilangan usullardan foydalanib kelinmoqda. Biroq zamonaviy ta'lim talablari o'qitish jarayonida nostandart va innovatsion yondashuvlarni qo'llashni taqozo etadi. Shu bois fanlarni o'qitish doirasida beriladigan savollar va muammoli vaziyatlarga turli xil javoblarni izlash, topshiriqlarni bajarishning bir nechta muqobil yo'nalishlarini ko'rib chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Kreativ kompetentlik vaziyatlarni tez idrok qilish, muammoga

tez kirishish, fikrlash tezligi, fikrlashning keng qamrovliligi, tahliliy malakalar, tanqidiy fikrlash sifatlari, muammolarni aniqlashda va yechimlar taklif etishda yangicha yondashuvning mavjudligi bilan xarakterlanadi<sup>110</sup>.

O'quvchilarda kreativ kompetentlik<sup>111</sup> (kreativ kompetentlik – vaziyatlarni tez idrok qilish, muammoga tez kirishish, fikrlash tezligi, fikrlashning keng qamrovliligi, tahliliy malakalar, tanqidiy fikrlash sifatlari, muammolarni aniqlashda va yechimlar taklif etishda yangicha yondashuvning mavjudligi bilan xarakterlanadi.)ni shakllantirishda quyidagilar asosiy mezon sifatida belgilangan:

- mustaqil qaror qabul qilish;
- o'z imkoniyatlariga ishonch;
- faol izlanuvchanlik;
- fikrlash tezligi;
- fikrlash moslashuvchanligi;
- g'oyaning o'ziga xosligi;
- g'oyaning mukammalligi;
- g'oyaning ijobiy yo'naltirilganligi;
- axborotlarni qayta ishlash va maqsadli qo'llay olish;
- tasavvur kengligi;
- bir-biridan uzoq fikrlarni o'zaro bog'lay olish;
- g'oya salmog'ini baholay olish;
- yechimning nafisligi, bejirim va oddiyliigi;
- ko'plab g'oyalarni yuzaga keltira olish;
- g'oyaning asosligi<sup>112</sup>.

Tadqiqotchilarning ta'kidlashlaricha maktabgacha yoshdagi bolalar ijodiy fikrlashga yo'naltirilgan muammolarini yechishda turli xil og'zaki javoblarni

---

<sup>110</sup> Jumaniyazova M.T. Pedagoglarning kreativ kompetentligini takomillashtirish muammosiga nazariy yondashuvlar. // "Ta'lim maydoni tendensiyalari: kompetensiyalar, innovatsiyalar va texnologiyalar" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman, 2025. – 199-203 b.

<sup>111</sup> Elmuratova D., Misirova N. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. O'quv qo'llanma. – Guliston, 2021. – 161 b.

<sup>112</sup> Xujaniyazova O.R. O'quvchilarda kreativlik va ijodkorlikni rivojlantirish asoslari. – T., "GRAND KONDOR PRINT". 2024. – 142 b.

yaratishlari uchun psixologik asosga e'tibor qaratilish lozim. Mazkur tizimning yaratilishida inson psixologiyasining asosiy sababchisi bo'lgan holat – so'zlar va belgilar hisoblanadi<sup>113</sup>. Ta'lim jarayoni belgilar, ma'nolar va tushunchalar bilan bog'liq bilimlarning rivojlanishini ta'minlovchi muhim hamda qo'shimcha omil sifatida namoyon bo'ladi. Nutq esa idrok va tafakkur jarayonlarining tarkibiy qismi bo'lib, ularni yangi asoslar asosida shakllantiradi va takomillashtiradi. Natijada aqliy faoliyat rivojlanishning yuqori bosqichiga ko'tariladi. Shuningdek, nutq aqliy faoliyatning samarali kechishi uchun zarur bo'lgan yangi shart-sharoitlarni vujudga keltiradi.

Tafakkurni rivojlantirish jarayonida yuzaga keladigan asosiy muammo aqliy amallarni amalga oshirishda qo'llaniladigan vositalar bilan bog'liqdir. Divergensiyaning shakli va mazmunini muhim vazifa sifatida belgilagan holda, tafakkurda bo'linish jarayonlarining yangi shakllari, amallari va mexanizmlarini aniqlash zarurati vujudga keladi. Ushbu jarayonda so'z va belgilar aqliy amallarni farqlash va amalga oshirishda muhim vosita vazifasini bajarishi mumkin. Jumladan, ular abstraksiyalash, tahlil va sintez jarayonlarini amalga oshirishda vosita va omil sifatida xizmat qiladi.

Natijada, tafakkurning har bir yangi bosqichida obyekt predmet tomonidan qayta talqin qilinadi va unda yangi sifatlar hamda munosabatlar shakllanadi. Mazkur obyekt samarali tafakkur faoliyatida turli tizimlarga kiritilib, turli obyektiv aloqalar va fazilatlar bilan boyitiladi, bu esa fikrlash faoliyatining darajasini belgilaydi. Ushbu sharoitda mazmun o'zgarib boradi, ya'ni obyektning xususiyatlari va munosabatlari haqidagi bilimlar izchil ravishda chuqurlashadi.

Mazkur jarayon kreativ tafakkur mexanizmining rivojlanishiga, muammoli vaziyatlarni hal etishda yangi harakat usullarini o'zlashtirishga hamda aqliy faoliyatning o'zini o'zi tartibga solish jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi. Natijada, o'quvchida muammoni hal etishga qaratilgan oqilona strategiyalarni

---

<sup>113</sup> Nishonova Z.T, Kamolova N.G', Abdullayeva D.U, Xolnazarova M.X. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. Toshkent: Print 25. bosmaxonasi. 2019. – 216 b.

izlash va tanlash ko‘nikmalari shakllanadi<sup>114</sup>.

Kreativ fikrlash mexanizmlari, uning tuzilishi va darajalarini o‘rganishda uchta asosiy yo‘nalish ajratib ko‘rsatiladi:

Birinchi yo‘nalish – ta’lim faoliyati doirasida kreativ fikrlashning o‘ziga xos tarkibiy tuzilmasini aniqlashga qaratilgan.

Ikkinchi yo‘nalish – fikrlashning turli darajalari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik hamda ularning bir-biriga ta’sir etish mexanizmlarini tahlil qilishni nazarda tutadi.

Uchinchi yo‘nalish – samarali fikrlash faoliyatining bosqichlaridan kelib chiqqan holda kreativ fikrlash darajalari yoritib beriladi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining yuqori va boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ fikrlashni shakllantirishga yordam beradigan maxsus “Shaxsni rivojlantirish tizimi” taklif qilingan, unda asosiy metodlar tadqiqot turining vazifalari va ijodiy o‘yinlaridir<sup>115</sup>, – deya ta’kidlangan.

Vazifa aniq belgilangan va mantiqiy jihatdan izchil bo‘lib, u ta’lim oluvchining faoliyat sohasi hamda bilish imkoniyatlari bilan uzviy bog‘liq holda aniqlanadi. Vazifa strukturasi tashkil etilishi obyektning muhim va barqaror xususiyatlarini aks ettirishi zarur. Muammoni hal etish jarayoni uning tarkibiy qismlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik va munosabatlarni aniqlashga qaratilgan faoliyatni o‘z ichiga oladi. Ushbu elementlar hamda ular orasidagi munosabatlar dastlab vazifaning tashqi kompetentlik darajasida namoyon bo‘ladi va asta-sekin ichki aqliy faoliyat shakliga o‘tadi.

Ijodiy vazifa esa maqsad va uni amalga oshirish shartlari o‘rtasida yuzaga keladigan dialektik ziddiyat ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Mazkur ziddiyatni bartaraf etish obyektga oid munosabatlarni aniq va tizimli ifodalashni taqozo etadi. Muammoni tashkil etuvchi elementlar o‘rtasidagi aloqalar fazoviy va vaqtinchalik tartibda amalga oshib, natijada yangi mazmuniy birliklarning vujudga kelishiga xizmat qiladi. Ijodiy faoliyatda bunday generativ munosabatlar bolaning ongida

---

<sup>114</sup> Новиков Д.А. Статистические методы в педагогических исследованиях (типовые случаи). – М.: МЗ-Пресс, 2004. – С. 67.

<sup>115</sup> Новиков Д.А. Ko‘rsatilgan manba. – С. 67.

turli holatlarning o‘zaro ta’siri orqali yuzaga chiqadi, xususan, dinamik idrok jarayonlari bilan ichki aqliy harakatlarning uyg‘unlashuvi yangi obyektlar va hodisalar haqidagi tasavvurlarni shakllantiradi. Ushbu o‘zaro ta’sirning natijasi sifatida bilimlarning yangicha mazmuni yuzaga kelib, o‘quvchining bilish faoliyatini kengaytirish imkonini yaratadi.

Agar berilgan savol bolaning bilimini soddalashtirishni talab qilsa, vazifa muammoli bo‘lmaydi – “savol-javob” holatidir. Muammoni hal qilish zarurati uning amaldagi usullari bilan birlashtirilishi kerak. Muammoni hal qilish harakati uning elementlarining o‘zaro bog‘liqligini ochishni namoyon etadi. Elementlar va bog‘lanishlar kabi voqelik vazifaning tashqi kompetentlik darajasida mavjud.

Bog‘lanishning yanada mazmunli tushunchasi uchun elementar tushunchalarni aniqlashtirish kerak bo‘ladi. Umumiy ilmiy rejada ma’lum bo‘lgan vazifa elementi tushunchasi ajralib chiqadigan tafakkur uchun qo‘llaniladigan aniq tarkib bilan to‘ldirilishi kerak. Shu maqsadda har qanday qarorlar jarayonining asosiy tarkibiy qismlari ko‘rib chiqilishi lozim. Ular vazifa sifatida maqsad nuqtayi nazaridan namoyon bo‘ladigan tashqi muhit, tushunchalar, ifodalar, aqliy faoliyatning natijalari bo‘lib, keyinchalik, ijodiy vazifa elementlari va kreativ fikrlashning sifat xususiyatlari darajasini ta’kidlash uchun “muammoning mumkin bo‘lgan elementlari” tushunchasi hisoblanadi. “Muammoning mumkin bo‘lgan elementlari” tushunchasi nafaqat ma’lum bir xususiy vazifaga tegishli elementlarni, balki unga qo‘shilishi mumkin bo‘lgan ko‘plab elementlarni ham ko‘rsatadi<sup>116</sup>. O‘quv tajribasidan olingan ma’lumotlar, aqliy faoliyat natijalari turli xil elementlarni birlashtiradi, ularni vazifaga, munosabatlarni kashf qilish jarayonida o‘z ichiga oladi. Shunday qilib, ijodiy vazifa shakllantirish elementlarini o‘zida namoyon etadi.

Ijodiy vazifaning to‘rt elementi aniqlangan<sup>117</sup>:

Birinchi element analitika bo‘lib, u tahlilni taqdim etadi – ma’lumotlarning

---

<sup>116</sup> Najmiddinova G.N. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘quv-biluv faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari. 13.00.01. Ped. fan. nomz. diss... – T.: 2006. – 139 b.

<sup>117</sup> Новиков Д.А. Статистические методы в педагогических исследованиях (типовые случаи). – М.: МЗ-Пресс, 2004. – С. 67.

yaxlit tuzilishining aqliy bo‘linishidir.

Ikkinchi element sintezga asoslanib, u turli elementlarning integral tizimga aqliy birlashishini namoyon etadi.

Uchinchi element – abstraksiya. Abstraksiya – narsalar va ular o‘rtasidagi munosabatlarning bir qator xossalarni fikran ajratish. Ushbu elementda abstraksiya va umumlashtirish amalga oshiriladi, ular yordamida umumiy, eng muhim belgilar aniqlanadi va tasodifiy belgilar rad etilishi mumkin<sup>118</sup>.

To‘rtinchi element – mustahkamlash. Unda aniqlashtirish, individual o‘ziga xoslikka qaytish, tahlil qilingan holat mavjud bo‘ladi.

Shuni ta’kidlash kerakki, har bir munosabat umumiy tarzda tavsiflanadi, amalda u o‘ziga xos va umumiy ko‘rinishlarda muhim o‘rin tutadi. Vazifalarning tubdan yangi turi – o‘quv vazifasi va talabalarning yangi materialni taqdim etish uslubi o‘rtasidagi obyektiv munosabatlarni o‘rganishga imkon beradi. Ushbu turdagi vazifalar yaxlit analitik va sintetik faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan turli xil tahlil va sintezga asoslangan. Tarmoqlanish faoliyatida yetakchi jarayonlar tahlil va sintezdir, bu assimilyatsiyaning quyi bosqichlaridan tahlil va sintezning yuqori qonuniyatlariga o‘tish mohiyatini kengaytirishga yordam beradi. Tahlilning har xil turlari – bir tomonlama, ko‘p tomonlama, tizimli kabi turlari ajralib turadi. Kreativ fikrlashni rivojlantirish dasturini tuzishda ushbu har xil tahlil darajalarini hisobga olish lozim bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ fikrlashni rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning modelini tuzish orqali tadqiqotimiz davomidagi barcha jarayonlarni bajarilish ketma-ketligini ko‘rsata olishimiz mumkin bo‘ladi. Xususan, model tushunchasi, uning maqsad va vazifalari, xususiyatlari haqidagi quyidagi tushunchalarni keltirib o‘tamiz. Model (fransuzcha *modèle*, lotincha

---

<sup>118</sup> Ilmiy tadqiqot asoslari: O‘quv qo‘llanma /A.Radjabov; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. – O‘.: «Tafakkur-Bo‘stoni», 2012. – 208 b.

modulus “o‘lchov, analog, namuna”) – o‘rganish boshqa tizim haqida ma’lumot olish vositasi bo‘lib xizmat qiladigan tizim hisoblanadi<sup>119</sup>.

Model – bu o‘rganilayotgan obyekt yoki hodisaning ayrim jihatlarini ko‘rib chiqish va o‘rganilayotgan savollarga javob olish imkonini beradigan ma’lum bir obyekt yoki hodisaning qandaydir shaklda (masalan, matematik, fizik, ramziy, grafik yoki tavsiflovchi) tasviri<sup>120</sup>. Model, asosan, namoyish uchun taqdim etiladigan yoki amalga oshiriladigan tadqiqot obyektini belgilarini o‘zida aks ettiruvchi tizim yoki kompleks tushunchani anglatib, u bizga obyekt o‘rnini qisman to‘ldirib, aniqroq ma’lumot olishga yordam beradi. Keng ma’noda model – bu biror bir obyekt, jarayon yoki hodisaning tasviri yoki analogi (hayoliy yoki shartli: tasvir, tavsif, sxema, chizma, grafik, reja, xarita va shu kabilar) bo‘lib, “asl” obyektning o‘rnini bosish uchun ishlatiladi. Ushbu model obyektning (jarayon, hodisa yoki vaziyatning) asosiy tarkibiy qismlarini va ularning o‘zaro bog‘liqligini sxematik shaklda aks ettiradi.

Modellashtirish – atamasi modellarni tuzish (yaratish) va ularni o‘rganishni anglatadi. Agar turli xil modellashtirish maqsadlariga olib boradigan turli xil tadqiqot muammolari hal qilinsa, bitta o‘rganilayotgan obyekt uchun bir nechta modellar yaratilishi mumkin. Modelning o‘ziga xos turini tanlash va uni amalga oshirish tadqiqotchining malakasiga bog‘liq, ammo uning afzalliklari bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkin. Xuddi shu obyekt uchun turli tadqiqotchilar, hatto qo‘yilgan modellashtirish vazifasi bir xil bo‘lsa ham, turli xil modellarni yaratishi mumkin<sup>121</sup>. O‘rganilayotgan obyektning asosiy xossalari va xarakteristikalarini o‘zida ifodalovchi maxsus qurilgan obyektga *model* deyiladi.

Tadqiq etilayotgan obyektning asosiy xarakteristikalarini matematik formulalar va munosabatlar orqali ifodalovchi modelga *matematik model* deyiladi.

---

<sup>119</sup> Фридман Л.М. Психолого-педагогическое математическое образование в начальной школе. – М.: Просвещение, – 1983. С. 160.

<sup>120</sup> Майданник И.А. Построение дивергентного поля деятельности в учебном процессе младшими школьниками / И.А.Майданник // Электронный ресурс. Режим дружелюбный: <http://lotes.narod.ru/bank005.html>. – 202-203 б.

<sup>121</sup> Гальперин П.Я., Котик Н.Р. К психологии творческого мышления // Вопр. психология, 1982. № 5. – С. 80-84.

Ta'lim-tarbiya jarayonidagi muayyan pedagogik hodisa, tizim yoki faoliyatni ilmiy asosda soddalashtirilgan hamda real pedagogik jarayonning muhim xususiyatlari, tarkibiy qismlari, o'zaro bog'liqligi va rivojlanish mexanizmlarini ifodalashga xizmat qiladi modelga pedagogik model deyiladi.

Modellashtirish har doim turli xil taxminlarni qabul qilishni o'z ichiga oladi. Tizim tavsifini shakllantirish bosqichida obyektning tadqiqotchi uchun muhim, ammo ahamiyatsiz xususiyatlarini moslash mumkin<sup>122</sup>.

Ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni modellashtirishda tizimli modellashtirish usulidan foydalaniladi. Har qanday modellashtirishda inson omilini inobatga olinishi shart<sup>123</sup>.

Mazmunli xarakterdagi modelni yaratish tadqiqot obyekti bo'lgan hodisa yoki jarayonning harakati, ichki aloqadorlik qonuniyatlarini aks ettiradi va o'rganish imkonini beradi.

Ravshanki, tadqiqotlarda modellar o'rganilayotgan ob'ektning muhim xususiyatlarini aks ettirish va uni chuqur tahlil qilishga xizmat qiladi. Tadqiqot ob'ekti va o'rganish maqsadlariga ko'ra pedagogik modellar quyidagi turlarga ajratiladi:

- tavsiflovchi modellar – pedagogik jarayon, hodisa yoki tizimning mavjud holatini tavsiflashga yo'naltirilgan;
- tushuntiruvchi modellar – pedagogik hodisalarning sabab-oqibat munosabatlarini ochib berishga qaratilgan;
- prognostik modellar – ta'lim jarayonining kelgusidagi rivojlanish tendensiyalarini oldindan ko'rishga imkon beruvchi modellar hisoblanadi

Shuningdek, tizimning samarali ishlashini ta'minlaydigan ma'lum xususiyatlarini o'rganish uchun mo'ljallangan normativ modellar, loyihaviy modellar, diagnostik modellar, optimallashtiruvchi modellar va boshqa turdagi modellardan ham foydalanish mumkin.

---

<sup>122</sup> Johnson-Laird F. Procedural semantics and psychology of meaning // New in foreign linguistics. – Vol. 23 (Cognitive aspects of language). – M.: Progress, 1988. – P. 234-258.

<sup>123</sup> Зиёмухаммадов Б., Тожиев М. Педагогик технология – замонавий ўзбек миллий модели. – Тошкент: Lider Press, 2009. – 104 б.

Pedagogik tadqiqot jarayonlarni modellashtirishda asosan tarkibiy-funksional modellashtirish usulidan foydalanish samarali boʻlib, bunday modellarni tuzishda oʻrganilayotgan tadqiqot obyekti yaxlit tizim sifatida qamrab olish va unda obyekt barcha tarkibiy qismlari, ichki va tashqi omillarni aloqadorligini hisobga olgan holda, uning elementlari, komponentlari haqida toʻliq maʼlumot olish imkoniyati yaratiladi.

Borliqni aks ettirish holatiga koʻra uchta asosiy evristik, tabiiy va matematik model turlari ajralib turadi.

Evristik modellar, qoida tariqasida, inson tasavvurida chizilgan tasvirlardir. Bunday modellashtirish kundalik va odatiy narsalardan tashqariga chiqishning asosiy vositasidir. Ammo bunday modellashtirish, birinchi navbatda, inson tasavvurining boyligiga, uning tajribasi va bilimiga bogʻliq. Oʻquvchilarining kreativ fikrlashni qobiliyatini shakllantirish va uning samaradorligini tashxislash uchun tayyorlangan modelimizning komponentlari uchta asosiy moduldan iborat:

maqsadli modul;

mazmunli modul;

natijaviy modul.

Maqsadli modulda modelning maqsadi, kreativ fikrlash komponentlari, xususiyatlari, mezonlari va usullari nazarda tutilgan. Ushbu modulning maqsadi boshlangʻich sinf oʻquvchilarida kreativ fikrlashni rivojlantirish tarzida tanlab olindi. Modulning farqliligi va oʻziga xos xususiyati variativlik, qayishqoqlik, intiluvchanlik, kenglik, sezgirlik va fikrlarning originalligidir.

Modelni tuzishda konseptual asos sifatida kreativ fikrlashning quyidagi komponentlari tanlab olindi:

1. Idrok;


2. Intellekt;

3. Tasavvur;

4. Ijodkorlik.

Belgilangan maqsadga erishish uchun toʻrtta meʼzon ajratilib, uni amalga oshirish metodlari ham oʻziga xos uslubda tanlandi. Quyidagi (2.2-rasm)da

boshlang'ich sinf o'quvchilari kreativ fikrlashini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish modeli keltirilgan.



2.2-rasm. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ tafakkurini rivojlantirish modeli

Modelning bosh maqsadi:

- kreativ fikrlashni shakllangan boshlang'ich sinf o'quvchisini tayyorlash;
- multimodal identivligini ta'minlash;
- metakognitiv refleksiya;
- kolaborativ gemifikatsiyalashgan muhit asosida rivojlantirish hamda

kognitiv generatsiyaning siklik prototiplarini shakllantirishdan iborat.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ fikrlashi komponentlaridan kelib chiqqan holda kreativ fikrlashning shakllanganlik mezonlarini ishlab chiqidi. Mezonning har bir ko'rsatkichi kreativ fikrlash komponentlari bilan bog'liq holda quyidagicha ko'rinish kasb etadi:

- idrokning kengligi va sezgirlik;
- variativ intellektga egalik;
- tasavvurning boyligi va qayishqoqligi;
- original va nostandart munosabat bildira olish.

Modelning maqsadli modulini tashkil qiluvchilari yangilik yaratish, qayta o'rganish, tahlil va innovatsion usullar, ya'ni metodologik asoslari quyidagi yondashuvlar sinergiyasiga tayangan:

- metakognitiv yondashuv;
- kolaborativ ta'lim konsepsiyasi;
- sinergetik pedagogika (bifurkatsiya, kulminatsiya);
- Bloom taksonomiyasining qayta konstruksiyasi;
- konstruktivizm va multimodal ta'lim.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ fikrlash qobiliyatini shakllantirish metodikasini ishlab chiqish va tasniflashda kreativ fikrlashni rivojlantirish mezonlari asos qilib olingan<sup>124</sup>.

Ya'ni kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirish mezonlari har bir ko'rsatkichining rivojlantirish yo'nalishlari bo'yicha alohida o'ziga mos bo'lgan metodik texnologiya ishlab chiqilgan. Mazkur model raqamli avlod o'quvchilarining "kulminatsiya"ga intilishi kreativ fikrlashni jadallashtiruvchi ichki drayver sifatida qaraladi hamda raqamli avlod o'quvchilariga xos bo'lgan faollik, tezkorlik kabi tafakkur xususiyatlarini didaktik jarayonning muhim resursiga aylantiradi. Ta'lim jarayonida yuzaga keladigan

---

<sup>124</sup> Abdirimov I.A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ fikrlashni rivojlantirish metodlari va o'quv jarayoning o'rni. // "Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендириў". Илимий-методикалық журнал. 2024. 5/3-сан. 406-411 б.

muammolar yechish yo'llari "ijodkor o'quvchi" loyihasi doirasida turli modal kanallar (vizual, verbal, kinestetik, raqamli) yagona ijodiy faoliyatga integratsiya qilinadi. Bifurkatsion nuqta, ya'ni oddiy topshiriq – kutilmagan nostandart yechim – ijodiy sakrash. Bu fikrlashda hosil bo'lgan burilish nuqtalarini maxsus pedagogik sharoitlar orqali qo'llab-quvvatlash natijasida o'quvchilarda yangi va original g'oyalar shakllanishiga xizmat qiladi. Modelda kreativ fikrlashni rivojlantirish multimodal tarzda bir vaqtning o'zida bir nechta idrok kanallarida, metakognitiv shaklda o'z fikrini anglash va nazorat qilishda hamda kolaborativ ko'rinishda hamkorlikka asoslangan mexanizmlar uyg'unligi asosida tashkil etiladi. Ushbu mexanizmlar o'quvchining bilimni tayyor holda qabul qilishidan ko'ra, uni mustaqil, ongli ravishda va ijodiy tarzda qayta ishlashiga sharoit yaratadi. Natijada kreativ fikrlash boshlang'ich sinf o'quvchilarida tasodifiy emas, balki barqaror va tizimli rivojlanuvchi mustahkam kompetensiya sifatida shakllanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ fikrlashni shakllantirish va rivojlantirishda an'anaviy bilim – tushunish – qo'llash (pastda - yuqoriga) tartibidan, yangi takomillashtirilgan ijodiy maqsad – konsepsiya – kognitiv generatsiya (yuqorida - pastga) tartibida qo'llaniladigan didaktik kostruktsiya asosida tahlil, sintez, baholash boshlang'ich bosqichga ko'tariladi va reproduktiv faoliyat ikkilamchi rolga o'tadi. Har bir o'quv faoliyatiga metakognitiv refleksiya kiritiladi natijada o'quvchi quyidagi savollarga o'z nuqtai nazari va tajribasidan kelib chiqqan holda takroriy fikr yuritadi:

“Men nimani o'yladim?”

“Qanday fikrlar paydo bo'ldi?”

“Qayerda kreativ bo'ldim?” va h.k

O'quvchilarida kreativ fikrlash qobiliyatini shakllangalik darajasini aniqlash va baholashda quyidagilarga alohida e'tibor qaratilgan:

- kreativ sakrash nuqtalari;
- original g'oya chastotasi;
- reflektiv chuqurlik;
- multimodal transfer qobiliyati;

- kolaborativ ijod sifati.

Yuqoridagi ijodiy ko‘nikmalarni egallanganlik darajasiga ko‘ra o‘quvchida kreativ fikrlash kompetensiya darajasida shakllanganligidan dalolat beradi. O‘quvchi ta’lim jarayoning subektiga aylanadi va unda kreativlikning barqaror skill model yuzaga keladi. Bu esa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitishda kreativ fikrlash qobiliyatining shakllantirish jarayonida talimda yangi pedagogik paradigma hisoblanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ fikrlash qobiliyatini shakllantirishda quyidagi usullarda foydalanildi:

1-guruh. O‘quvchilarni tasavvurni shakllantirish jarayonida boy va qayishqoq musiqiy g‘oyalarni ishlab chiqish, modellar qurish, abstraksiyalash hamda obyekt va o‘rganilayotgan hodisalarni mazmuniy tarkibiy qismlarga ajratish kabi usullar.

### **Musiqiy g‘oyalar**

Musiqqa tinglash yangi g‘oyalarga ilhomlantirishi mumkin. Sinfdan tashqari darslarda musiqqa ijro etish va xayolga kelgan har qanday fikr yoki fikrlarni yozib olish kerak. Ushbu faoliyat o‘quvchilarda yangi kreativ g‘oyalarning paydo bo‘lishiga va rivojlanishiga imkon beradi. Keyin ushbu g‘oyalar baholanadi.

Ijodiy mazmundagi tasavvur, obrazli fikrlash va erkinlikning ustuvorligini shakllantirishga qaratilgan mashqlardan namunalar:

Rasmni davom ettir – yarim chizilgan rasmni o‘zingcha tugat.

Agar qalam gapira olsa... – qalam nima der edi?

Bitta buyum va ko‘p vazifa – qoshiq yana nima bo‘la oladi?

Rangni o‘zgartir – osmon qizil bo‘lsa nima bo‘ladi?

Hayvon va buyum – mushuk soat qanday ishlaydi?

Sehrli eshik – ochsang qayerga olib boradi?

Bir so‘zdan hikoya – “quvonch” so‘zi asosida hikoya tuz.

Qanday tovush? – rasmga mos tovushni tasavvur qil.

Agar men qush bo‘lsam....

Topib ayt -o‘qituvchi aytgan narsaning boshqa nomini top.

Rasmga nom qo‘y.

Fantastik meva – yangi meva o‘ylab top.

Yo‘qolgan rang – qaysi rang yo‘q va nega?

Erta tugagan ertak – oxirini o‘zing yoz.

Bir daqiqa ichida – 5 ta g‘oya ayt.

Assotsiatsiya, moslashuvchanlikni rivojlantirishga qaratilgan mashqlardan namunalar.

Agar maktab uchar bo‘lsa...

Boshqacha yakun – hikoyani o‘zgartirib tugat.

So‘zdan rasm – so‘zni chiz.

Nima bo‘lishi mumkin? – bulutdan nimalar chiqadi?

Ikki narsani birlashtir – daraxt va telefon.

Fantastik kasb – yangi kasb o‘ylab top.

Aksincha bo‘lsa... – tun kunduzi bo‘lsa? 5 ta sabab top

Sirli quti – ichida nima bor?

Bir predmet haqida – 10 fikr bildir.

Agar suv gapirsa....

Ertakka qahramon qo‘sh.

Nega bu yaxshi? – salbiy narsadan ijobiy jihat tomon top.

Bir rasm – 3 hikoya.

Rolga kir – buyum nomidan gapir.

Muammoli vaziyat, tahlil va sintez qilish qobiliyatini kuchaytirishga yo‘naltirilgan ijodiy mashqlar.

Muammo top va yechim ber.

Bir voqea – 3 yechim.

Agar vaqtni to‘xtatsang...

Boshqacha foydalan.

Fantastik shahar loyihasi.

Hikoyani teskari o‘qi.

Nimani o‘zgartirgan bo‘larding?

Bir g‘oyani – rivojlantir.

Keraksiz narsa foydali bo‘lsin.

Agar sen ixtirochi bo‘lsang...

Qanday yaxshilash mumkin?

Bir rasm - muammo va yechim.

Tasavvuriy suhbat.

Bitta savol – 5 javob.

Kelajakdagi maktab.

O‘quvchilarda metakognitiv va refleksiv kreativlik komponentalarini jadal shakllantirishga yo‘naltirilgan mashqlar.

Muammoning qo‘yilishi, qanday mazmuniy asosda va nima sababdan topilgan ijodiy yechimlar

Agar sen muallif bo‘lsang....

Bir g‘oya – loyiha.

Ertangi kun ssenariysi.

Fantastik ixtiro tavsifi.

Bir masalaga qarama-qarshi yechim.

Qanday yaxshilash mumkin? (analiz)

Bir voqea – boshqa nuqtayi nazar.

Aql xaritasi tuz.

O‘zgartir va asosla.

Agar qoidalar bo‘lmasa....

Refleksiya yozuvi – qanday fikrlading?

Bir g‘oya – baholash.

Kelajak kasblari.

Miniloyiha: muammo – yechim – natija.

### **Lug‘at hikoyasi**

Lug‘atdan tasodifiy so‘zni tanlash. Qisqa hikoya yaratish uchun tanlagan so‘zdan, uning ustidagi so‘zdan va pastidagi so‘zdan foydalanish, tasodifiy ko‘rinadigan elementlardan qiziqarli, birlashtirilgan hikoya yaratish yo‘lini topish

aloqalar o‘rnatish va bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan kreativ g‘oyalarni birlashtirish qobiliyatini yaxshilashi mumkin.

### **“Qiyofa almashtirish” o‘yini**

“Qiyofa almashtirish” o‘yini dam olish daqiqalarida yoki o‘quv materiali mazmuniga mos ravishda qo‘llaniladi. O‘qituvchi o‘quvchilarga hayvonlar yoki ertak qahramonlari nomlari yozilgan kartochkalarini tarqatadi. O‘quvchilar navbat bilan berilgan qahramon yoki hayvonning xarakterlarini taqlid orqali namoyish etadilar. Qolgan o‘quvchilar esa ularning nomini aniqlab, keyinchalik xususiyatlarini sanab beradilar. Taqlid qiluvchi o‘quvchiga qo‘shimcha topshiriq sifatida ushbu obrazni turli holatlarda (masalan, mehribon, mug‘ombir, yovuz va boshqalar) ifodalash vazifasi yuklanadi. O‘yin jarayonida eng muvaffaqiyatli taqlid qilgan va eng ko‘p to‘g‘ri javob bergan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

Mazkur o‘yin o‘quvchilarning tasavvur doirasini kengaytiradi hamda ularning ijodiy va nostandart fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

### **“Yangi atamalar” o‘yini**

Mazkur o‘yin nafaqat ona tili va o‘qish darslarida, balki barcha fanlarni o‘qitish jarayonida samarali qo‘llash imkonini beradi. O‘yin jarayonida o‘qituvchi muayyan atama va tushunchalarning mazmunini tushuntiradi hamda o‘quvchilarga ularni boshqa so‘zlar bilan ifodalash topshirig‘ini beradi. Natijada o‘quvchilarning lug‘at boyligi kengayadi, dunyoqarashi va intellektual salohiyati oshadi hamda kreativ fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi.

### **“Kun orzulari” o‘yini**

Agar muammo ustida uzoq vaqt davomida olib borilgan intensiv faoliyat kutilgan innovatsion yechimni bermasa, ushbu metoddan foydalanish tavsiya etiladi. Bunday holatda to‘liq dam olish va erkin tafakkur qilish ijodiy ilhomning yuzaga kelishiga hamda yangicha kreativ g‘oyalarning shakllanishiga xizmat qiladi.

### **“O‘ylab ko‘rish” metodi**

Muayyan aqliy faoliyat natijasida o‘quvchilarning avval ma’lum bo‘lmagan mahsulotni qo‘lga kiritishlarida namoyon bo‘ladi. Ushbu metod quyidagi usullar yordamida tatbiq qilinadi:

a) bir obyektning sifatlarini ikkinchisiga qo‘shish orqali yangi obyekt yaratish;

b) muayyan obyektning o‘ziga xos xususiyatlarini izlab topish;

d) o‘rganilayotgan obyektning tarkibiy qismlarini o‘zgartirish hamda yangi o‘zgartirilgan obyektning o‘ziga xos xususiyatlarini tasvirlab yozish kabi.

3-guruh. Keng idrok va sezgirlikni shakllantirish usullari: “Bu nimaga o‘xshaydi?”, “Nima qilish kerak?”, “Agarda ...” metodlari.

### **“Bu nimaga o‘xshaydi?” o‘yini**

Mazkur o‘yin dars jarayonida o‘quv materiali bilan bog‘liq holda yoki dam olish daqiqalarida qo‘llash uchun qulay hisoblanadi. O‘yin davomida o‘qituvchi o‘quvchilarga turli buyumlar tasvirlarini namoyish etadi va ularning yana qaysi obyektlarga o‘xshashligini aniqlash topshirig‘ini beradi. Masalan, piyola tasviri ko‘rsatilganda, uning boshqa qanday shakllarga o‘xshashligi aniqlanadi.

Zaruratga ko‘ra, o‘qituvchi o‘quvchilarga yordam sifatida qo‘shimcha izohlar beradi, rasmning holatini o‘zgartiradi yoki tasvirga qo‘shimcha chiziqlar kiritadi. O‘yin jarayonida eng ko‘p va mazmunli variantlarni taklif qilgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

Mazkur o‘yin o‘quvchilarning sezgirligi, idrok doirasining kengligi va tasavvur boyligiga tayanib, ularning kreativ tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

### **“Nima qilish kerak?” o‘yini**

Ushbu o‘yin o‘quvchilarni kichik guruhlariga ajratgan holda tashkil etiladi. O‘qituvchi turli muammoli vaziyatlarni yaratib, ularning yechimini topish vazifasini belgilaydi.

Masalan, o‘quvchilarga quyidagi vaziyat taqdim etiladi: sinf bilan tog‘ yonbag‘riga ekskursiyaga chiqildi, daryo bo‘yiga borish jarayonida bir qishloqdan o‘tildi. Daryo juda tez oqar, uning narigi qirg‘og‘ida yana bir qishloq joylashgan.

Ovqat tayyorlash uchun olov yoqish zarur, biroq gugurt olib chiqilmagan. Ushbu vaziyatda qanday chora ko‘rish mumkinligi, kim yordam bera olishi yoki olovni boshqa usulda yoqish imkoniyatlari muhokama qilinadi.

O‘quvchilar jamoa bo‘lib muammoning yechimini izlaydilar va guruh vakili taklif etilgan variantlarni bayon etadi. Barcha guruhlarining javoblari tinglangach, ular orasidan eng maqbul va original yechim tanlab olinadi hamda faol ishtirok etgan guruhlar rag‘batlantiriladi.

Ushbu o‘yin jarayonida o‘quvchilarning tasavvur boyligi, fikrlashning variativligi, shuningdek, nostandart va original yechimlar ishlab chiqish ko‘nikmalari rivojlanadi.

### **“Agarda...” metodi**

**“Agarda...” metodi** o‘quvchilarni xayol surish, fantaziya qilishga o‘rgatadi. Bunday topshiriqlarni bajarish orqali o‘quvchilarning tasavvuri rivojlanishi bilan bir qatorda moddiy borliqning o‘ziga xos jihatlarini yaxshiroq tushunish imkoniyatiga ham ega bo‘ladilar.

4-guruh. Variativ intellektni shakllantirish usullari: 30 ta doira, tugallanmagan figura testi, isbot, aqliy hujum kabi usullar.

### **30 ta doira**

30 ta doira – bu kreativlikni rivojlantirish mashqlari bo‘lib, o‘quvchilarga 30 ta bir xil doiralarni bo‘lgan qog‘oz varag‘i beriladi. Iloji boricha 30 ta doira ichida biror narsani chizish uchun qisqa vaqt, odatda ko‘pi bilan 10 daqiqa beriladi. Jamoa bo‘lib bajarilganda, guruh a‘zolari tugallangan doiralarni birlashtiruvchi tamoyillar yoki dizaynlar mavjudligini tekshirish uchun solishtiradi. Bu o‘quvchilarni izlanishga, yangicha qarashlarga undab, kreativ fikrlashini rivojlantiradi.

### **Tugallanmagan figura testi**

To‘liq bo‘lmagan figurali test – bu chizilgan mashq. To‘liq chizma yaratish uchun biz yarim doira yoki xalqa kabi kichik, oddiy chizmalardan foydalanamiz. Guruhda buni amalga oshirish uchun bir nechta o‘quvchilar bir xil chizmalardan foydalanadilar va keyin chizmalarni solishtiradilar. Boshqalarning bir xil kichik

figurani qanday talqin qilishini ko‘rish o‘quvchilarning kreativ fikrini kengaytiradi va yangi g‘oyalarni beradi.

### **“Aqliy hujum” metodi**

**“Aqliy hujum” metodining** asosiy vazifasi o‘quvchilarni ortiqcha yuklamalardan ozod qilgan holda ko‘proq g‘oyalar, farazlarni ilgari surishlarini ta‘minlashdan iborat. Ushbu metodni qo‘llash jarayonida ular ortiqcha zo‘riqish, inersiya, qat‘iy qoliplar asosida ishlash kabilardan ozod qilinadi. Natijada o‘quvchilar mustaqil fikrlay boshlaydi, ularda yangi farazlar vujudga keladi. “Aqliy hujum” metodi asosida tashkil etiladigan o‘quv ishlari quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi: g‘oyalarni ilgari surish, muammoli vaziyatlarni va g‘oyalarni baholash, yetakchi holatlarni hisobga olish. G‘oyalarni ilgari surish muayyan qoidalar asosida amalga oshiriladi. Bu bosqichda tanqid qilish man etiladi. Barcha g‘oyalar o‘qituvchi tomonidan rag‘batlantiriladi. Bu jarayonda hazil-mutoyiba so‘zlar qo‘llaniladi, luqmalar tashlanadi. Shundan keyingina ilgari surilgan g‘oyalar tizimlashtiriladi, guruhlarga ajratiladi, umumiy prinsiplar va yondashuvlar asosida aniqlanadi. Navbatdagi bosqichda tanlab olingan g‘oyalarni amalga oshirishda uchraydigan to‘siqlar muhokama qilinadi, bayon qilingan tanqidiy fikrlar baholanadi. Tanqidga uchramaydigan g‘oyalar tanlab olinadi.

Ko‘rinib turibdiki, ta‘limiy mahsulotlar moddiy va shaxsiy ko‘rinishlarga ega. O‘quvchilar uchun bir vaqtning o‘zida ahamiyatiga ko‘ra keng bo‘lgan individuallashtirilgan o‘quv jarayonini loyihalash talab etiladi. O‘z vaqtida F.A.Disterveg ham evristik metodning mavjud imkoniyatlari, uning ustunligini asoslab bergan edi <sup>125</sup>. O‘quvchilar uchun o‘z fikrini asoslab berishga, uni isbotlashga olib boradigan yo‘l muhim ahamiyatga ega. Rivojlanish va ta‘lim muayyan bir o‘quvchi uchun ma‘lumot yoki axborot berish xarakteriga ega emas. O‘quvchilarning evristik topshiriqlarni bajarishlari, ularda muayyan ijodiy faoliyat

---

<sup>125</sup> Андреев В.И. Эвристическое программирование учебно-исследовательской деятельности: Методическое пособие. – М.: Высшая школа, 1981. – С. 240.

tajribasining shakllanishi uchun evristik mashqlar tizimidan samarali foydalanish talab qilinadi.

Didaktik o‘yin metodidan turli-tuman ko‘rinishlarda foydalanish mumkin: ishchan, rolli va boshqaruvga asoslangan, tashkiliy faoliyatli o‘yinlar. Pedagogik jarayonda eng ko‘p tarqalgan o‘yin turi ishchan o‘yinlardir.

Evristik metodlar o‘quvchilarning ruhiy holatiga muayyan yo‘nalishlarda ta‘sir ko‘rsatadi. Bunda ta‘lim jarayonidagi barcha munosabatlarni maqsadli yo‘naltirish, ularni tizimli va tahliliy asosda o‘rganish hamda o‘quv va kasbiy faoliyat jarayonida yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etish zarurati yuzaga keladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ fikrlashni rivojlantirish modelining keyingi bosqichi mazmunli modul hisoblanadi. Ushbu modulda boshlang‘ich ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiluvchi shart-sharoitlar, metodik yondashuvlar va amalga oshirish bosqichlari tizimli tarzda yoritilgan.

O‘quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirishda ijodiy mazmundagi mashqlardan foydalanishning didaktik shart-sharoitlar quyidagilardan iborat:

- 1-shart. Topshiriqlar yechimining variativ bo‘lish imkoniyatlari.
- 2-shart. O‘quvchilarni ijodkorlikka, original yechimlar topishga yo‘llash.
- 3-shart. Topshiriqlar mazmunida muammolilikning mavjudligi.
- 4-shart. Tasavvurni boyitish uchun zaruriy vositalardan samarali foydalanish.

Didaktik shart-sharoitlar to‘liq ta‘minlangan holda ijodiy mazmundagi mashqlardan foydalanish o‘quvchilarda kreativ fikrlash qobiliyatining samarali shakllanishi va rivojlanishiga olib keladi. Xususan, o‘quvchilarda quyidagi sifat va kompetensiyalar tarkib topadi::

- muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, ularning mohiyatini aniqlash hamda mustaqil ravishda muammo qo‘ya olish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi;

- bir vaziyatga nisbatan turli yechim variantlarini taklif qilish, noodatiy va original g'oyalarni ilgari surish qobiliyati shakllanadi;

- fikrlash jarayonida stereotiplardan chiqib, vaziyatga mos ravishda yondashuvini o'zgartira olish ko'nikmasini egallaydi;

- axborotni tahlil qilish, solishtirish, umumlashtirish va baholash asosida asosli xulosalar chiqarish qobiliyati rivojlanadi;

- o'quvchilarda tanlov qilish, qaror qabul qilish va uning natijasi uchun javobgarlikni his etish shakllanadi;

- guruhli va jamoaviy ijodiy faoliyat jarayonida muloqot qilish, fikr almashish va hamkorlikda ishlash malakalari rivojlanadi;

- o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi faolligini oshiradi, ichki motivatsiyani kuchaytiradi;

- bilimlar ijodiy transfer qilinadi.

Kreativ fikrlashni rivojlantirish metodikasini boshlang'ich sinfda o'qitiladigan o'quv predmetlari kesimida ishlab chiqdik va ular quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1-bosqich: Tayyorgarlik bosqichi. O'qituvchi mavzu doirasida kreativ fikr yuritishga undovchi topshiriqlar tizimini ishlab chiqadi. Topshiriqlar yechimida barcha o'quvchilarning ishtirokini ta'minlashga, ular idrokini kengaytirishga xizmat qiluvchi ko'rgazmali vositalarni tanlashga alohida ahamiyat beriladi.

2-bosqich: Asosiy bosqich. O'quvchilarga topshiriqlar yetkaziladi, topshiriq yechimi uchun vaqt beriladi. Belgilangan vaqtda jamoa bilan topshiriq talabiga ko'ra yechimi izlanadi, topshiriqlar bajariladi.

3-bosqich: Taqdimot va tahlil bosqichi. Natijalar umumlashtirilib, topshiriqlarning yechimi tahlil qilinadi, ishtirokchilar rag'batlantiriladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ fikrlashni rivojlantirishning uchinchi moduli natijaviy modul deb nomlanib, ushbu moduldan boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ fikrlashning rivojlanganlik darajasini aniqlash tizimi o'rin olgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ fikrlashini aniqlash uchun topshiriqlar tizimidan, rasmi ijodiy mazmundagi topshiriqlardan va har xil turdagi

mantiqiy boshqotirmalardan hamda turli darajadagi test so'rovnomalardan foydalaniladi. O'quvchilarning natijalari esa yuqori, o'rta va past darajada baholanadi.

Model yakunidagi natijaviy modulda – boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitish davomida o'quvchilarning kreativ fikrlashi rivojlanishiga erishiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari fikrlashining u yoki bu xususiyatlarini tizimli rivojlantirish jarayonini modellashtirishda quyidagi yondashuvlarga tayanildi:

1) kreativ topshiriqlarni ishlab chiqishda DTS talablaridan kelib chiqqan holda har bir fan xususiyatlari va o'quv materiallari mazmuniga tayanish;

2) tegishli topshiriqlarni o'qish, ona tili, matematika, tarbiya, texnologiya va tabiiy fanlariga kiritish;

3) o'quvchilari kreativ fikrlashini shakllantirish va rivojlantirish maqsadida individual yondashuv asosida ishlashga imkon beruvchi materiallar bankini tayyorlash va amalga oshirish uchun amaliyotga tadbiiq etish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ fikrlashini tizimli rivojlantirish uchun darsliklardan tashqari, o'quvchilar yoshiga mos turli raqamli o'qitish sahifalaridan foydalanish va qo'shimcha adabiyotlarni o'rganish hamda o'quv jarayoniga tadbiiq etilishi mumkin bo'lgan maxsus vazifalar tizimidan foydalanishni amalga oshirish ham lozim bo'ladi. O'quvchilar kreativ fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan boshlang'ich ta'lim jarayonida quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

Birinchi vazifa – maktab darsliklarida amaliy jarayonlar, amaliy materiallar uning asosiy mazmunini tashkil etishi lozim bo'lgan o'quv vazifalaridir. Ularni hal qilish uchun mavjud bo'lgan bilimlarni rivojlantirish kerak.

Ikkinchi vazifa – muammoning sharti aniq belgilangan, maqsadi aniqlangan, nafaqat yechimi noma'lum, balki nazariyaning ushbu bo'limi ham – ushbu yechimga asos bo'lishi mumkin bo'lgan tadqiqotchilik vazifalari.

Uchinchi vazifa – aniq belgilangan maqsadga erishish uchun zarur shart-sharoitlar, usul va vositalar majmuini mustaqil ravishda belgilashga qaratilgan vazifalar.

Mazkur vazifalardan ikkinchi va uchinchi vazifalar kreativ fikrlashni rivojlantirish bilan bog‘liq ekanligi ko‘zga tashlanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi endi nafaqat kuchli va chuqur bilimga ega bo‘lishi kerak, balki nostandart bo‘lgan, mustaqil ravishda topshiriqlarni bajarishni o‘rgata oladigan, ta‘lim jarayonida yuzaga keladigan muammolarni ijodiy hal qilish usullarini biladigan, ya‘ni turli xil erkin ijodiy fikrlash ko‘nikmasiga ega bo‘lishi kerak.

Ko‘plab o‘qituvchilar o‘quvchining ijodkorligi nima ekanligini juda kam tasavvur qiladilar. Ular, asosan, o‘zlarining va boshqalarning tajribasini ko‘paytirishga, professional vazifalarni aniq bajarishga qaratilgan usullarni qo‘llab yangi tushunchalarni yetkazadilar.

XXI asr ta‘limining muhim vazifalaridan biri kreativ fikrlashni rivojlantirish va o‘quvchilarda metakognitiv jarayonlarni shakllantirishdir. So‘nggi ilmiy tadqiqotlar kreativ fikrlash jarayonida meta-kreativlik muhim o‘rin tutishini ko‘rsatmoqda. Mazkur tadqiqot uch asosiy maqsadni o‘z ichiga oladi: birinchidan, o‘quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishga yo‘naltirilgan meta-kreativ pedagogik yondashuvni ishlab chiqish; ikkinchidan, ushbu yondashuvning kreativ fikrlashning asosiy tarkibiy komponentlari – ravonlik, moslashuvchanlik va o‘ziga xoslikka ta‘sirini aniqlash; uchinchidan, o‘quvchilarning kreativ muammolarni hal etish jarayonida meta-kreativ jarayonlardan foydalanish darajasini tahlil qilish<sup>126</sup>.

Ijodiy mazmundagi mashqlar asosida kreativ fikrlashni baholash jarayonga yo‘naltirilgan mezonlar orqali amalga oshirildi. Baholashda g‘oyalar soni, moslashuvchanligi, originalligi va rivojlantirilganlik darajasi asosiy ko‘rsatkich sifatida belgilandi. Ushbu mezonlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlariga mos holda bosqichma-bosqich differensiallashtirildi. (1-ilovaga qarang).

O‘quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirish usullari, birinchi navbatda, turli darajadagi noodatiy topshiriqlar tizimini yaratish va bu topshiriqlarni bajarish

---

<sup>126</sup> Paz-Baruch N., Grovas G., Mevarech Z.R. The effects of meta-creative pedagogy on elementary school students' creative thinking. *Metacognition and Learning* (2025) 20:9. <https://doi.org/10.1007/s11409-025-09412-6>. – P. 1-28.

uchun qo'yilgan vazifalar nimalardan iborat ekanligini tushuntirish va asoslash lozim. Xulosa shundan iboratki mazkur pedagogik model boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, uning tuzilmasida maqsad, mazmun, metod va natija yagona tizim sifatida integratsiyalashgan. Model o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari, kognitiv motivatsiyasi hamda obrazli va assotsiativ fikrlash imkoniyatlariga tayanadi. Ta'lim jarayonida o'quv faoliyati motivatsion faollashtirish, kognitiv generatsiya, transformatsiya va refleksiya kabi bosqichlar orqali tashkil etiladi. Ochiq yechimli ijodiy mazmundagi topshiriqlar hamda muammoli vaziyatlar asosida tashkil etilgan faoliyat o'quvchilarda yangi g'oyalar generatsiyasini ta'minlaydi. Modelda muammoli ta'lim, aqliy hujum, agglyutinatsiya va o'yin texnologiyalaridan foydalanish metodik jihatdan asoslab berilgan. Kreativ fikrlashning rivojlanish darajasi maxsus mezonlar asosida monitoring qilinadi. Natijada boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ fikrlash kompetensiyasi va mustaqil tafakkur barqaror shakllanishi ko'zda tutiladi.

### **2.3-§. O‘quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda evristik ta‘lim metodidan foydalanish metodikasi**

Bugungi kunda O‘zbekistonda inson kapitaliga bo‘lgan talab o‘zgarib bormoqda, ya’ni ishlab chiqarishga yangi innovatsion texnologiyalarni jalb qilish, dunyo hamjamiyatida munosib o‘rinni egallash, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash uchun yangicha kreativ fikrlaydigan ijodkor kadrlarga bo‘lgan ehtiyoj sezilarli darajada kuchaymoqda. Bunday shaxsni shakllantirish boshlang‘ich sinflardan boshlab, o‘quvchilarga kompleks ta‘sir ko‘rsatish natijasida amalga oshadi. Mazkur vazifani hal qilishning asosiy yo‘nalishlaridan biri o‘quvchilarda yoshligidan boshlab qolipdan tashqari keng ko‘lamli kreativ fikrlashni rivojlantirish masalasidan iborat. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida hal qilinish lozim bo‘lgan murakkab masalalardan biri o‘quvchilarning kreativ fikrlashi bilan bog‘liq muammolarini yechish usullarini topishdir. Mavjud o‘quv dasturlari va darsliklar o‘qituvchilarga o‘quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish uchun yetarlicha imkoniyat yaratmaydi. O‘quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish natijasidagina evristik izlanishga undash mumkin. Ularning kreativ fikrlashi qobiliyatlarini rivojlantirish uchun o‘quv materiallar mazmuniga o‘zgartirish kiritish va didaktik topshiriqlarni izchillikda, tizimli ravishda taqdim qilinishiga erishmoq kerak.

O‘quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirishga yo‘naltirilgan evristik ta‘lim metodikasini ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish maqsadida quyidagi ustuvor yo‘nalishlar belgilandi:

- ta‘lim metodikasining nazariy asoslarini ishlab chiqish, pedagogik konsepsiya va evristik yondashuvlarni aniqlash;
- kreativ fikrlashni shakllantirish mexanizmlari, didaktik tamoyillar, mashq va topshiriqlar turlarini aniqlash;
- ishlab chiqilgan metodikani sinovdan o‘tkazish, tajriba darslari va mashg‘ulotlarda qo‘llash;
- kreativ fikrlash ko‘rsatkichlarini monitor qilish va baholash;

- metodikani takomillashtirish va standartlashtirish, keng joriy etish;
- o‘quv-tarbiya jarayonining didaktik ta‘minotini takomillashtirish.

Yuqoridagi masalalarni hal qilish maqsadida, ya‘ni o‘quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirish masalasini hal qilish uchun o‘quvchilarni rivojlantiruvchi ta‘lim texnologiyasini qabul qilamiz. Chunki borgan sari aniq bo‘lmoqdaki, kelajak maktabi – bu rivojlantiruvchi ta‘lim maktabidir.

Shu nuqtai nazardan, o‘quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishda evristik ta‘lim metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.

Kuzatishlarimiz va pedagogik-psixologik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘qituvchi ko‘magida bir qator murakkab, evristik topshiriqlarni muvaffaqiyatli yecha oladi. Aqliy zo‘riqishni, tashabbuskorlikni talab qiladigan vaziyatlarda ularga, ko‘pincha, pedagogik yordam va qo‘llab-quvvatlash yetishmaydi. Shuning uchun ham boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladigan evristik topshiriqlarga ta‘lim jarayonida keng o‘rin ajratish talab qilinmoqda. Dars va darsdan tashqari pedagogik vaziyatlarda o‘qituvchilar boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga kreativ yondashuv xarakteridagi topshiriqlarni imkon qadar ko‘proq taqdim etishlari lozim. Dastlabki kuzatishlarimiz shuni tasdiqlaydiki, bunday yondashuv o‘zini oqlamoqda. O‘quvchilarning kreativ fikrlashiga yo‘naltirilgan evristik topshiriqlarni yechishga, izlanishga asoslangan faoliyatlari o‘quv vazifalarini murakkablashtirishni taqozo qilgani uchun ham nafaqat darsda, balki darsdan tashqari pedagogik jarayonlarda ham izchillik bilan amalga oshirilishi kerak. Ularning kreativ fikrlashi mahsuli bo‘lgan aqliy faollik va tashabbuskorlik natijasidagina evristik topshiriqlarga muvaffaqiyatli yechim topiladi. Buning uchun ko‘pvariantli yechimlarga ega bo‘lgan topshiriqlarni tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki o‘quvchilar bunday topshiriqlarni yechishning turli usullarini izlab topishga muvaffaq bo‘ladilar.

Avvalo, evristika va evristik metod tushunchalarining mazmun-mohiyati bilan tanishadigan bo‘lsak, “Evrastika” – grekcha so‘z bo‘lib, “izlayman”,

“topaman”, “ochdim” ma’nolarini beradi<sup>127</sup>. Evristik ta’lim juda uzoq tarixga ega. U antik davrlardan buyon qo’llanilib kelinmoqda. An’anaviy o’qitish tizimining uzoq davrlar mobaynida amal qilib kelinganligi tufayli evristik ta’limga yetarlicha e’tibor qaratilmadi. Evristik o’qitish metodi ilk bor ta’lim jarayonida qo’llanilganda evristik suhbatlar shaklida namoyon bo’lgan. Bunday suhbatlar ketma-ket savollar berish jarayonida shakllangan. O’quvchilar savollarga javob berish orqali muammolar muhokamasida ishtirok etish imkoniyatiga ega bo’ladi.

Evristik metod pedagogikada o’quvchilarning fikrlash faoliyatini rivojlantiruvchi, ularda maqsadga yo’naltirilgan, sermahsul o’quv-biluv harakatlarini tarkib toptiruvchi metod sifatida alohida ahamiyatga ega. Evristik metod innovatsion, universal metod hisoblanadi. U evristik savollar, topshiriqlar, mashqlar shaklida namoyon bo’ladi. Evristik metod bilan dastlab, filosof, grek matematigi Papp Aleksandriskiy, keyinchalik fransuz filosofi va matematigi Rene Dekartlar shug’ullanib, uni universal metod sifatida baholaganlar<sup>128</sup>.

Evristik ta’lim – o’quv-tarbiya jarayonida yo’naltiruvchi savollarni yozib borishga asoslangan o’qitish tizimidir. Bu jarayonda o’quvchilarda sinchkovlik, topqirlik, izlanuvchanlik, kreativlik, maqsadlar izchilligini ilg’ay olish kabi ijobiy ko’nikmalar shakllantiriladi. Buning natijasida o’quvchilar muammoli vaziyatlarda mustaqil izlanish, kreativ fikr yuritish, qo’yilgan vazifalarga aniq yechim topish layoqatini egallaydilar.

Y.N.Kulyutkinning ta’biricha<sup>129</sup>, evristik metod shunday metodki, uning yordamida inson muammo yechimlarning yangi usullarini kashf etadi, nostandart rejalar va dasturlar tuzadi. Bunday rejalar va dasturlar yordamida yechimlarning aniq mazmunga ega bo’lgan usullari izlab topiladi.

---

<sup>127</sup> Роберт И.В. Современные информационные технологии в образовании [Текст]: Монография. – М., 2010. – С. 7.

<sup>128</sup> Роберт И.В. Ко’rsatilgan manba. – С. 7.

<sup>129</sup> Кудюткин Ю.Н. Психология обучения взрослых [микроформа] / Ю. Н. Кудюткин. – М.: РГБ, 2007. – С. 69.

Aksariyat olimlar o'quvchilarning fikrlashini rivojlantirishda o'qitishning innovatsion usullaridan foydalanishni tavsiya qilganlar. R.G.Safarova <sup>130</sup>, B.R.Adizov <sup>131</sup>, M.Mahmudov <sup>132</sup>, R.Ibragimov <sup>133</sup>, G.Najmiddinova <sup>134</sup>, G.Q.Hasanova <sup>135</sup>, F.M.Qo'chqarova <sup>136</sup>, N.G'.Dilova <sup>137</sup> larning ishlari shular jumlasidandir. O'qitishning bunday faol metod va usullari sirasiga muammoli sayru sayohatlar, ijodiy kundaliklar, tayanch ma'lumotlarni yozib borish, ijodiy kitobchalar va kundaliklar ustida ishlash, "ochiq fikrlar" darslari kiradi. Bularning barchasi o'quvchilarda o'quv faolligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Sinfdan tashqari pedagogik jarayonlar evristik topshiriqlar tizimini o'quvchilarga taqdim etish uchun bir qadar qulay hisoblanadi. Bunda mustaqil bilim olish vaziyatlari, to'garak mashg'ulotlari, qo'shimcha mashg'ulotlar alohida pedagogik imkoniyatlarga ega. Bunday mashg'ulotlarda noan'anaviy topshiriqlarni yechishga alohida vaqt ajratish, ularni tizimli tarzda o'quvchilar muhokamasiga havola qilish mumkin.

Biz boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan sinfdan tashqari didaktik vaziyatlarda ishlab chiqiladigan evristik topshiriqlar haqida qisman to'xtalamiz. Buning uchun o'qituvchi dastlab boshlang'ich sinf o'quvchilarining ishlashlari uchun qulay bo'lgan evristik topshiriqlarni tanlashi va tizimlashtirishi lozim. Mazkur topshiriqlar birinchi navbatda kompetensiyaviy yondashuvga asoslanib, boshlang'ich sinf o'quvchilarining imkoniyatlarini hisobga olgan holda ularni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qilishi maqsadga muvofiq.

---

<sup>130</sup> Safarova R.G. va b. O'quvchi-yoshlarda "ommaviy madaniyat"ga qarshi kurashchanlik ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari. – Monografiya. – T.: "Tafakkur qanoti" nashriyoti, 2018. – 192 b.

<sup>131</sup> Adizov B.R. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari: Ped. fan. dok. diss... – T.: 2003. – 320 b.

<sup>132</sup> Mahmudov M. Ta'limni didaktik loyihalash. – T.: Fan, 1999. – 179 b.

<sup>133</sup> Ibragimov R. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida bilish faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari: ped. fan. dok. dis.avt. O'zPFITI. – T., 2005. – 41 b.

<sup>134</sup> Najmiddinova G. N. Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'quv-biluv faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari. 13.00.01. Ped. fan. nomz. diss... – T., 2006. – 139 b.

<sup>135</sup> Xasanova G.Q. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'z faoliyatini baholash va tashxislash ko'nikmalarini shakllantirishning didaktik imkoniyatlari. – Toshkent: Fan, 2007. – 104 b.

<sup>136</sup> Qo'chqarova F.M. Darsliklarning yangi avlodida taqdim etiladigan o'quv materiallarini konsentrizm prinsipi asosida strukturalashtirishning didaktik parametrlari // Monografiya. – T.: Fan va texnologiyalar, 2015. – 176 b.

<sup>137</sup> Dilova N.G'. Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'zaro hamkorlik muhitini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). ... diss.avt. – Nukus. 2018. – 50 b.

O'quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirish imkonini beradigan pedagogik shart-sharoitlar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin. Ular:

- mustaqil ishlarning mavjudligi;
- o'quvchilarda o'quv-biluv faoliyatiga nisbatan yuqori darajadagi qiziqishni hosil qilish;
- o'qishga nisbatan ijobiy mayllarni shakllantirish;
- o'qitishning faol metodlaridan foydalanish;
- o'quvchilarning mavjud layoqatlarini rivojlantirish kabilar.

Ta'limning bir bosqichidan ikkinchi bosqichiga o'tish jarayonida o'quvchilarning rivojlanishi diqqat va intellektning o'zaro ta'siri natijasida kuchayadi. Bu jarayonda, asosan, o'quvchilarda kreativ, evristik tafakkurni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ijodiy layoqatlar, yaratuvchilik sifatlari har bir o'quvchida mavjud. Bu sifatlar o'zida idrok, hozirjavoblik, faol harakatlar hamda muloqotni mujassamlashtiradi. Kreativ fikrlashga ega bo'lgan o'quvchilar o'zгалar bilan muloqot qilish, o'zligini namoyon etishga ehtiyoj sezadi.

Ta'lim jarayonida evristik metodlar kognitiv metodlar bilan uyg'unlashgan holda qo'llaniladi. O'qitishning kognitiv metodlari ham evristik topshiriqlarga o'xshab, o'quvchini mustaqil ijodiy fikrlashga va kreativlikni rivojlantirishga undaydi. Bunday metodlarga quyidagilar kiradi:

- muammoli o'qitish metodi;
- bahs-munozara metodi;
- Case-study metodi;
- tahlil va sintez metodlari;
- loyihalash metodlar;
- evristik savollar berish metodi;
- ekspremental va tajriba metodi;
- tushunchalarni loyihalash metodi;
- qoidalarni loyihalash metodi;
- farazlarni ilgari surish metodi;

- xatolar ustida ishlash metodi;
- nazariyalarni loyihalash metodi kabilar kiradi.

**Evristik kuzatish metodi** pedagogik tadqiqot va ta'lim jarayonida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, muammo yechish va kreativ yondashuv ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan o'quv-metodik vositadir. Ushbu metodning asosiy xususiyati shundaki, u o'quvchini faqat passiv kuzatuvchi sifatida emas, balki faol izlanishchi sifatida jalb qiladi, natijada bilimlarni mustaqil ravishda kashf etish jarayoni yuzaga keladi. Metod o'quvchilarda muayyan hodisani kuzatish orqali asosiy xususiyatlarini ajratib olish, nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lash va izlanish hamda eksperiment yo'li bilan yechim topish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Evristik kuzatish metodida faoliyat bosqichlari quyidagicha amalga oshiriladi:

tayyorlov bosqichida o'quvchilar kuzatishga tayyorlanadi, nazariy bilimlar eslatiladi va e'tibor yo'nalishi belgilanadi;


kuzatish bosqichida o'quvchilar ob'ekt yoki hodisani mustaqil yoki guruh bo'lib kuzatadi va muhim belgilarni aniqlaydi;

tahlil va xulosalar bosqichida kuzatish natijalari tahlil qilinadi va olingan ma'lumot asosida yangi bilimlar shakllantiriladi;

refleksiya bosqichida o'quvchilar o'z faoliyatini baholaydi, kuzatish jarayonida qilingan xatolar va muvaffaqiyatlarni aniqlaydi.

Evristik kuzatish metodining ta'lim jarayonidagi samarasi o'quvchilarda mustaqil fikrlash va tahliliy ko'nikmalarni rivojlantirish, ijodiy va muqobil yechimlarni topish qobiliyatini shakllantirish, bilimlarni amaliyot bilan uyg'unlashtirish imkoniyatini oshirish hamda ta'lim jarayonini faol va interaktiv qilishda namoyon bo'ladi. Metod samarali bo'lishi uchun o'quvchilarning asosiy bilim darajasi va tajribasi hisobga olinishi, kuzatiladigan ob'ekt yoki hodisa qiziqarli va muammoli bo'lishi, o'quvchilarga erkinlik va mustaqillik berilishi hamda natijalarni tahlil qilish va muhokama qilish imkoniyati ta'minlanishi lozim.

Sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda taqdim etiladigan evristik topshiriqlarning darsdagi topshiriqlar bilan uzviy aloqadorlikda bo‘lishi, tizimli ahamiyat kasb etishi talab qilinadi. Har bir mashg‘ulotda o‘quvchilarga turli ko‘rinishdagi 5-6 ta evristik topshiriqlarni taqdim etish lozim. O‘quvchilarning mazkur topshiriqlarni tahlil qilish va yechish imkoniyatlarini hisobga olgan holda ularning murakkablik darajasini muntazam rivojlantirish talab qilinadi. (2.3-rasm)



### 2.3-rasm. Evristik o‘qitish jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga kreativ fikrlash imkonini beradigan metodlar

Bolalarda kreativlikni rivojlantirishda quyidagilarga e‘tibor qaratish zarur: ular tomonidan ko‘p savollar berilishini rag‘batlantirish va bu odatni qo‘llab-quvvatlash; bolalarning mustaqilligini rag‘batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish; bolalar tomonidan mustaqil faoliyatning tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish; bolalarning qiziqishlariga e‘tibor qaratish<sup>138</sup>.

<sup>138</sup> Qo‘lmuminov U.S. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonini modellashtirish metodikasi. Inter education and Global study. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal. ISSN 2992-9024. 2024. № 5. – 206-213 b.

Quyida biz boshlang'ich ta'limda o'tiladigan turli fanlardagi topshiriqlarni kreativ fikrlash usulidan foydalanib, turli yechimlarini topishni o'rgatishga doir namunalardan keltiramiz.

### **Tabiatshunoslik fani misolida**

#### **1. Qizil kitobga kiritilgan, yo'qolib ketish xavfi bo'lgan o'simliklarni qanday muhofaza qilish mumkin?**

Dastlab bu topshiriqni o'quvchilarga berishdan oldin, ularni qizil kitob nima va unga kiritilgan hayvon hamda o'simliklar davlat tomonidan muhofaza qilinishi, muhofaza qilinish chora-tadbirlari, ularning turlari haqidagi bilimlari qay darajada ekanligini bilib, qisqacha tushuntirishlar beriladi. So'ng topshiriq beriladi va javoblar yig'ib olinib, tahlil qilinadi. O'quvchilarning bergan izohlari:

1. Ularni ekib ko'paytirishimizga salbiy ta'sir etadigan xavf-xatarlarni yo'qotishimiz, ya'ni zararli o'simlik va hasharotlardan tozalashimiz lozim. Bunda kelajakda yangi va sog'lom turdagi o'simliklarni olishimiz mumkin bo'ladi.

2. Yo'qolib ketish xavfi bo'lgan o'simliklarni muhofaza qilish uchun ularni ekib, yanada ko'paytirishimiz lozim. Ularni urug'latib, kelgusida yanada ko'proq ekib, yo'qolib ketish xavfini kamaytirishimiz, hattoki xavfni bartaraf etishimiz mumkin bo'ladi.

3. O'simliklarning yaxshi rivojlanishi uchun mineral o'g'itlar bilan ta'minlash, shuningdek, ularni o'z vaqtida sug'orish lozim. Mineral o'g'itlar, vaqtida sug'orish bu sifatli va chidamli bo'lgan o'simliklarni yanda ko'paytirishga imkon beradi hamda ularning yuqolib ketish xavfini samarali kamaytiradi.

#### **2. Havoning ifloslanishiga qanday omillar ta'sir qiladi?**


O'quvchilarning javoblari:

1. Insonning beparvoligi, e'tiborsizligi tufayli tashlanayotgan chiqindilar tufayli havo ifloslanadi.

2. Havoning ifloslanishiga turli xil zavod, fabrikalardan chiqadigan zaharli gazlar ta'sir etadi.

3. Odamlarga salbiy ta'sir etadigan turli xil chang, avtomobillarning tutuni natijasida havo ifloslanadi.

3. “Tabiatda suvning aylanishi” mavzusida hikoya tuz.



23-rasm. Tabiatda suvning aylanishi.

4. Hikoya tuzing.



5. Hikoya tuzing.



### **3. Tezkorlik, topqirlik va zukkolikni shakllantirishga qaratilgan sodda topshiriqlar:**

1. Tovuq bir oyoqda turganda 2 kg chiqadi, ikki oyoqda necha kg bo‘ladi?
2. O‘n metrlik narvondan sakrab tushib, hech bir jarohat olmaslik uchun nima qilish kerak?
3. Eng shirin uy qaysi?
4. Qaysi inson otni ham, filni ham hech bir qiyinchiliksiz ko‘tara oladi?
5. Uchburchakning bitta burchagini kesib tashlasa necha burchagi qoladi?
6. Mashina yo‘lda qaysi hayvonni ko‘p bosib o‘tadi?
7. Yog‘ochni 12 bo‘lakka bo‘lish uchun uni necha marta arralash kerak?
8. Qanday idishdan ovqat yeb bo‘lamaydi?
9. Kun va tun nima bilan tugaydi?
10. Kishi xona ichida qachon boshsiz turishi mumkin?
11. Yilda eng katta oy qaysi?
12. Inson qaysi vaqtda soatga qaray olmaydi?
13. Qaysi sonning kvadrati, o‘zining o‘ziga qo‘shilganiga teng?
14. Qaysi sonning yarmi yarimga teng?
15. Unga bo‘lib bo‘lmaydi, ko‘paytirsam yo‘q qiladi, bu nima?
16. Nimani buzish mumkin, lekin hech qachon ushlab turilmaydi?
17. Qaysi kun biz qancha xohlasak ham qaytib kelmaydi?
18. Na tub, na murakkab bo‘lgan son qaysi?
19. Nimaning tubi bor, lekin uni suv bilan to‘ldirib bo‘lmaydi?
20. Xo‘roz o‘zini parranda deb atashi mumkinmi?

#### **O‘qish fani misolida**

**1. “Gallaktikadagi hayot” mavzusida hikoya tuzish.** Bu orqali o‘quvchilarning ijodiy faolligini oshirib, kreativ fikrlashga undaydi. Shuningdek, o‘quvchilarning tasavvurini, ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. Ma’lumki, rivojlangan davlatlarning eng katta yutuqlaridan biri bu kelajak haqidagi tasavvurlarni o‘quvchilarda shakllantirib, ijodiy fikrlashga undash orqali kreativ

fikrlovchi insonlarni tarbiyalashdir. Shu boisdan ham ushbu mavzu asosida hikoya tuzish o‘quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantiradi.

## **2. Do‘stlik haqida maqollardan namunalar keltiring?**

Maqollardan namunalar<sup>139</sup>:

1. Arpa-bug‘doy bir kuningga yaraydi,  
Sodiq do‘sting o‘lguningcha yaraydi.
2. Do‘sting bilan sirdosh bo‘l,  
Doim ishiga qo‘ldosh bo‘l.
3. Do‘st achitib gapirar,  
Dushman kuldirib.
4. Do‘st kulfatda sinaladi.
5. Do‘stsiz boshim – tuzsiz oshim.
6. Mingta do‘sting bo‘lsa ham oz,  
Bitta dushmaning bo‘lsa ham ko‘p.

Aytib o‘tilgan har bir maqol do‘stlik haqida bo‘lib, maqollarning mazmuni o‘quvchini do‘st orttirishga va do‘st bo‘lishga undaydi. Bu esa o‘quvchining tarbiyasida muhim ahamiyatga ega ijobiy fazilat shakllanishiga asos bo‘la oladi.

### **Tarbiya fani misolida**

#### **1. Kim bo‘lsam ekan?**

Qaysi bir odam halol kasb bilan mol-u dunyo topib, undan o‘zining va Tangrining boshqa bandalarining oziq-ovqati, kiyim-kechaklari uchun sarf qilsa, shularning hammasi unga sadaqa hukmida yoziladi. (“**Hadis**”dan).

Bu mavzuda biz o‘quvchilarga “Kim bo‘lsam ekan?” nomli hikoya tuzishlarini topshiriq qilib beramiz. Bunda topshiriqni bajarishda har bir o‘quvchi o‘zi yoqtirgan kasbni hikoya qiladi. O‘z hikoyalarini aytish barobarida har bir o‘quvchi boshqa o‘zi bilmagan kasblar va bilimlarni egallab olishlari mumkin bo‘ladi<sup>140</sup>.

---

<sup>139</sup> Ўзбек халқ мақоллари / Тингловчи: Хосиятхон Сувоңқулова – Т.: «Адабиёт учқунлари», 2014 йил, 192 б.

<sup>140</sup> Tarbiya. Umumta’lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. / Ro‘ziyeva D., Ismatova N., Mo‘minova L. – T.: “SANO-STANDART”, 2020. – 96 b.

**1. O‘qituvchilik kasbi.** O‘qituvchilik sharaflı kasblardan biri. Ustoz bo‘lishni istagan inson, eng avvalo, bolalarni chin dildan sevishi kerak.

O‘qituvchi bolalarga ilm-fan sirlarini o‘rgatadi, shu bilan birga, tarbiya ham beradi. Shuning uchun xalqimiz o‘qituvchilarni e‘zozlab, “Ustoz otangdek ulug‘”, – deydi. Shuning uchun men ham kelajakda o‘qituvchi bo‘lishni, insonlarga bilim va tarbiya berishni juda xohlayman. Hozirdan juda ko‘p o‘qib, o‘zim sevgan kasb egasi o‘qituvchi bo‘laman.

**2. Til insonning ham do‘sti, ham dushmanidir.** Bu mavzuda o‘quvchılardan “Til insonning ham do‘sti, ham dushmanidir<sup>141</sup>” nomli hikoya tuzib, jumlaning mazmunini izohlashlarini so‘raymiz.

O‘quvchılarning izohlaridan namunalar keltiramiz:

1. Tildagi har bir so‘zning o‘ziga yarasha sehri, kuchi bor.

Shunday so‘zlar borki, insonga yaxshi ta‘sir qiladi. “Assalomu alaykum”, “marhamat”, “kechiring”, “iltimos”, “rahmat”, “xo‘p bo‘ladi”, “labbay”, “sog‘ bo‘ling” kabi so‘zlarni iloji boricha ko‘proq qo‘llagan ma‘qul<sup>142</sup>.

2. Agar biz tilimizni ezgu, yaxshi so‘zlar bilan boyitsak, shuncha qadrli, obro‘-e‘tiborli bo‘lamiz. Agar unga e‘tibor bermasak, kishi boshini yorib olishi mumkin. Tilimizning bizga do‘st yoki do‘shman bo‘lishi har bir insonning o‘ziga, ya‘ni so‘zlagan so‘ziga bog‘liq. Biz to‘g‘ri so‘z, shirin so‘z bo‘lsak, u bizga do‘st, qanchalik uni noo‘rin ishlatsak, u o‘zimizga dushman bo‘lishi mumkin.

3. Muomala odobi insonning ko‘rkidir. Oilada, qarindosh-urug‘lar, do‘stlar bilan suhbatda unga qat‘iy amal qilmoq kerak<sup>143</sup>. Kishiga rushnolik, yaxshilik va ezgulik til tufayli keladi. Uni noo‘rin qo‘llasak, odam boshiga balo bo‘lishi mumkin. Buni yaxshi bilib olish zarur. Boshimizga keladigan balo ham, baxt ham shu tilimiz orqali keladi. Shuning uchun tilimiz bizga ham do‘st, ham dushman hisoblanadi.

## **Matematika fani misolida**

---

<sup>141</sup> Xoliqova.M, Ergasheva.Sh. / Odobnoma. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik – Tuzatilgan va to‘ldirilgan to‘rtinchi nashr. – Toshkent.: «Yangiyo‘l poligraf servis», 2017. – 96 b.

<sup>142</sup> Mirzayeva.Z, Djalilov.K / Adabiyot. 6-sinf uchun darslik – Toshkent: Respublika ta‘lim markazi, 2022. – 224 b.

<sup>143</sup> Muxamadaliyeva M.X. va boshq. Oila va ijtimoiy pedagogika. O‘quv qo‘llanma. / –Toshkent: 2022. – 151 b.

## 1. Mevalar savati

Savatchada olma va noklar bor. Jami mevalar soni 18 ta. Agar olmalar noklardan 2 ta ko‘p bo‘lsa, savatchada nechta olma va nechta nok bor<sup>144</sup>?

1-usul: Taxmin qilib tekshirish usuli.

Noklar sonini taxmin qilamiz:

Agar nok 8 ta bo‘lsa, u holda olma 10 ta bo‘ladi

$$8 + 10 = 18$$

Olma nokdan 2 ta ko‘p

2-usul: Tenglashtirib fikrlash usuli.

Agar olma va noklar teng bo‘lganda, jami 18 ta bo‘lsa, u holda

$$18 : 2 = 9 \text{ ta}$$

Lekin olmalar 2 ta ko‘p, demak nokdan 1 tasini olib, olmaga 1 tasini qo‘shamiz va natijada:

$$\text{Nok: } 9 - 1 = 8 \text{ ta}$$

$$\text{Olma: } 9 + 1 = 10 \text{ ta}$$

3-usul: Chizma orqali yechish usuli.

Noklarni: //////////////

Olmalar: ////////////// (2 ta ko‘p)

$$\text{Hosil bo‘lganlarni sanaymiz: } 8 + 10 = 18$$

Yakuniy javob savatchada 10 ta olma, 8 ta nok bor.

## 2. Sirli yo‘l.

Robot bir yo‘lda harakatlanmoqda. Har bir yurishida 3 qadam oldinga, keyin esa 1 qadam orqaga yuradi. Robot 5 marta shunday harakat qilsa, u nechta qadam oldinga siljiydi?

Yechish:

Masala shartiga ko‘ra robot 3 qadam oldinga, 1 qadam orqaga harakatni 5 marta takrorlaydi.

1-bosqich:

---

<sup>144</sup> Bikbayeva N, Yangaboyeva E, Girfanova K. / Matematika. Umumta’lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. – T.: O‘qituvchi NMIU, 2017. – 208 b.

bir marta harakatni hisoblaymiz

$3 - 1 = 2$  qadam oldinga

2-bosqich:

5 marta bo'lsa,  $2 \times 5 = 10$  qadam.

### **3. Sehrli narvon.**

Narvonda 10 pog'ona bor. Bola har bir harakatlanganda 1 pog'ona, yoki 2 pog'ona sakrab chiqishi mumkin. Bola narvonga nechta xil usulda chiqib olishi mumkin<sup>145</sup>?

Yechish:

1-bosqich. Kichikdan boshlaymiz

1 pog'ona sakrab chiqish: 1 usul

2 pog'ona sakrab chiqish: 2 usul (1+1, 2)

2-bosqich.

Qonuniyatni topamiz:

3 pog'ona: 3 usul (1+1+1, 1+2, 2+1);

4 pog'ona: 5 usul va shu tartibda ketma-ket davom qildirilsa, 1, 2, 3, 5, ... sonlar ketma-ketligi hosil bo'ladi. Demak sonli ketma-ketlikni kuzatish natijasida uchinchi sondan boshlab har bir son o'zidan oldingi ikkita sonlar yig'indisiga tengligiga ishonch hosil qilish mumkin.

3-bosqich. 10 pog'onagacha davom ettiramiz va quyidagi xulosaga kelamiz

10 pog'ona: 89 ta usul.

Javob: Narvonga 89 ta usul bilan chiqish mumkin.

### **4. Mantiqiy tarozi.**

Tarozi yordamida faqat 2 marta o'lchab, 8 ta toshdan eng og'irini topish mumkinmi?

Yechish:

1-bosqich.

---

<sup>145</sup> Abdirimov I.A. Matematika darslarida o'quvchilarni kreativ fikrlashga o'rgatish usullari. // "Bugungi kun ijtimoiy-psixologik muammolarining o'ziga xos xususiyatlari". Maqolalar to'plami. Toshkent, 2021-yil. 317-321 b.

Toshlarni quyidagi tartibda 3 ta guruhlarga bo‘lamiz, ya’ni 1-guruh 3 ta, ikkinchi guruh 3 ta va 3-guruh 2 ta qilib toshlarni tanlab olamiz.

2-bosqich.

1-o‘lchash

3 ta va 3 ta toshdan iborat bo‘lgan ikkita guruhni o‘lchaymiz, agar ular teng bo‘lsa, u holda og‘iri tosh qolgan 2 tasidan biri bo‘ladi. Agarda ular teng bo‘lmasa, u holda og‘ir tosh og‘ir tomonda bo‘ladi.

3-bosqich.

2-o‘lchash

Har ikkala holda ham shubhali guruhdan ixtiyoriy 2 tasini solishtiramiz. Ravshanki birinchi holda ikkitasidan birining og‘irligi ma’lum bo‘ladi. Ikkinchi holda ikkalasi teng bo‘lsa, u holda uchinchi qolgan tosh eng og‘iri bo‘ladi.

Demak javob: Ha, mumkin.

#### 4. Uch do‘st o‘yini.

Ali, Vali va G‘ani konfet yig‘ish o‘yini o‘ynayapti. Ali Validan 2 ta ko‘p konfet oldi, Vali esa G‘anidan 3 ta kam konfet oldi. Uchalasi birgalikda 20 ta konfet yig‘ishdi. Har biri bola nechta konfet olgan<sup>146</sup>?

#### 5. Masala:




<sup>146</sup> Matematika. Umumta’lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. / Bikbayeva N.U., Yangaboyeva E., Girfanova K. – T.: O‘qituvchi NMIU, 2017. – 208 b.

## 6. Masala:




1. O'ngda oddiy soat, chapda gulsoat tasvirlangan. Ularda qanday umumiylik bor? Nimasi bilan farq qiladi? Gulsoat nechta bo'lakka bo'lingan?



## 7. Masala:

Ko'pgina gullarning aniq ochilish va yopilish vaqtlari bo'ladi. Bu gullar taxminan qancha vaqt ochiq turishini hisoblang.



## 8. Masala:

Bir nechta o'quvchi bog'da 1 kg, 3 kg va 2 kg.dan olma terishdi. 1 kg olma terganlar soni 3 kg terganlar sonidan 3 marta ko'p, 2 kg terganlar sonidan esa 2 marta kam edi. Agar jami 90 kg meva terilgan bo'lsa, nechta o'quvchi meva tergan?

- A) 9 B) 50 C) 36 D) 45

## 9. Masala:

Uzunligi 28 cm bo'lgan kesma 3 ta kesmaga bo'lingan. Chetki kesmalarning o'rtalari orasidagi masofa 16 cm ga teng. O'rtadagi kesmaning uzunligini toping.

A) 12 cm B) 8 cm C) 4 cm D) 10 cm

Har bir mashg'ulotda o'qituvchi o'quvchilar bilan birgalikda topshiriqlarning yechimlarini tahlil qilishi, ularning qiziqishlarini oshirish uchun yo'naltiruvchi savollar berishi lozim. Topshiriqlar har bir o'quvchi uchun qiziqarli bo'lishi, ularni yechishda qaysi o'rinlarda xatolarga yo'l qo'yganliklari va maqbul yechimlarni tanlaganliklari haqida o'qituvchi ma'lumot berib borishi muhim ahamiyatga ega.

Berilgan topshiriqlarning yechimi o'quvchilar uchun murakkablik qilganda o'qituvchi ularga qo'shimcha ma'lumotlarni taqdim etadi va o'quvchilarni yanada ko'proq izlanishga undaydi.

Topshiriqlar shartlarining noodatiyligi, yechimlarning nostandartligi, o'quvchilarda kreativ fikrlash va evristik izlanishga nisbatan alohida qiziqish uyg'otadi. Bunday vaziyatlarda o'quvchilar har bir mashg'ulotni alohida qiziqish bilan kutadi va evristik topshiriqlarni yechishda o'ziga xos faollik ko'rsatishadi.

Dastlabki mashg'ulotda o'quvchilarga bir xil xarakterdagi evristik topshiriqlarni yechish vazifasi topshiriladi. O'quvchilar har bir topshiriqning shartini tushunib olganlaridan keyin o'qituvchining ish uslubi ham asta-sekin o'zgarib, topshiriqlar individuallashtiriladi. Keyingi mashg'ulotlarda esa o'quvchilarga 5-6 topshiriqdan iborat bo'lgan turli xarakterdagi individual topshiriqlarga yechim topish vazifasi yuklatiladi. Buning uchun ularga rang-barang topshiriqlar yozilgan tarqatma kartochkalar beriladi. O'quvchilarga ularning imkoniyatlarini hisobga olgan holda 2-3 tagacha topshiriq berish mumkin.

O'quvchilar o'zlariga berilgan topshiriqlarni yechganlaridan keyin alohida qoniqish va quvonch hissini tuya boshlaydilar. Shu tariqa sinfdagi o'quvchilar orasida muvaffaqiyatli vaziyatlar vujudga keladi. O'quvchilar o'z javoblarini alohida varaqlarga yozib, tekshirish uchun o'qituvchiga taqdim etadi. O'qituvchi ularni tekshirgandan keyin har bir o'quvchining ishini chuqur tahlil qilishi, yo'l

qo'yilgan xatolarni aniqlashi, topshiriqlar yechimining boshqa variantlarini ham o'quvchilar bilan muhokama qilishi lozim.

Evristik xarakterdagi bir nechta mashg'ulotdan keyin o'quvchilar evristik faoliyat tajribasini o'zlashtiradilar. Ularda o'quv faolligi shakllanadi. Natijada evristik topshiriqlarni osongina yechish imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'quvchilar o'zlari uchun yaxshi tanish bo'lgan o'quv materiallari hamda o'quv usullari yordamida evristik xarakterdagi mantiqiy topshiriqlarni osongina yechishga muvaffaq bo'ladilar. Murakkab xarakterdagi evristik topshiriqlar o'quvchilarni ko'proq izlanishga, yechimning turli variantlarini izlab topishga undaydi. Bunday vaziyatda ular yechimning ko'plab variantlariga murojaat qiladilar. Bu esa o'quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirib, tayanch kompetensiyalarni mustahkamlaydi<sup>147</sup>.

Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, har qanday topshiriq, savol yoki muammo fanga qaramay, bir nechta yechimga ega bo'lishi mumkin. Muammoning turli yechimlarini izlash jarayonida o'quvchilar fikrlash, mushohada yuritish va bilimlarini kengaytirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu asosda xulosa qilamizki, ta'lim jarayonida kreativ fikrlashni keng qo'llash zarur. Ta'lim berishda o'quvchilarning ijodiy fikrlari xilma-xilligini hisobga olish va ularni rivojlantirishga e'tibor qaratish muhim ahamiyatga ega.

---

<sup>147</sup> Sharifzoda S.O'. O'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirishda integrativ yondashuvdan foydalanish mexanizmlari. – T.: "BOOKMANY PRINT". 2022. – 108-110 b.

## II bob bo'yicha xulosalar

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ fikrlashini rivojlantirish metodikasi ularni mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgatadi hamda o'rganilayotgan masalalarning mohiyatini chuqur anglashga yordam beradi, shuningdek, dunyoqarashini shakllantirishga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Nazariy fikrlash ko'pincha qat'iy mantiqiy, deduktiv asosga tayansa, empirik tafakkur esa insonning amaliy tajribasi va tushuncha qobiliyatiga yaqinroqdir. Ba'zi oldindan aytib bo'lmaydigan tushunchalar, uzoq masofadagi hodisalar va obyektlar o'rtasida kutilmagan aloqalarni aniqlash qobiliyati aynan kreativ fikrlashni namoyon etadi.

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirish quyidagi vazifalarni bajarishni talab qiladi:

1. Faoliyatni o'rganish, maqsadni aniq belgilash, unga erishish yo'lini rejalashtirish va natijalarni baholash orqali faoliyatni to'g'ri tashkil etish.
2. Shaxsiy sifatlarni shakllantirish, bilim va tushunchalarni o'zlashtirish orqali ijobiy shaxsiy sifatlarni rivojlantirish.
3. O'quv dasturlarini boyitish, atrof-muhit va obyektiv borliqni o'rganish imkonini beradigan mavzularni dasturga kiritish.

Kreativ fikrlashni rivojlantirishning eng samarali pedagogik usuli munozara tashkil etish va o'quvchilarda tarbiyaviy vaziyat yaratishdir.

O'quvchilarda bunday o'rganish jarayoni quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- xilma-xil vazifalarni tushuntirish;
- vazifalarni namoyish etish va ularni yechish jarayonini ko'rsatish;
- o'quvchilarga mustaqil yechim topish imkonini berish;
- zarur hollarda o'z vaqtida yordam ko'rsatish.

Shuni ta'kidlash lozimki, bunday mashg'ulotlarni olib boruvchi o'qituvchi muammolarni yechishda tajribaga ega bo'lishi va kreativ yondashuvni amalga oshirishga ruhiy tayyor bo'lishi zarur.

### **III bob. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ fikrlashini rivojlantirish metodikasining samaradorligi**

#### **3.1-§. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ fikrlashni shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan tajriba-sinov ishlari**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ fikrlash qobiliyatining shakllanganlik darajasini aniqlashtirish maqsadida pedagogik tajriba-sinov ishlarini o'tkazish metodikasini shakllantirish tadqiqotning umumiy nazariy asoslariga mos ravishda amalga oshirildi. Unga ko'ra o'quv-tarbiya jarayonining asosiy maqsadlaridan biri boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ fikrlash qobiliyatining shakllanganlik darajalarini aniqlash va shu asosda ular faoliyatini rivojlantirish nazarda tutiladi. Fikrlash faoliyati doirasida o'quvchilarni intellektual rivojlantirishning ustuvorligi haqidagi tasdiq tajriba-sinov ishlarining mohiyatini belgilab berdi hamda taklif etilayotgan metodikaning samaradorligini aniqlashni taqozo etdi.

Kreativ fikrlash XXI asr ta'limida muhim ahamiyatga ega bo'lgan asosiy ko'nikmalardan biridir. XXI asr ta'limi innovatsion o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Bu ko'nikmalar quyidagilarni o'z ichiga oladi: tanqidiy fikrlash va muammoni hal qilish, samarali muloqot va hamkorlik, shuningdek kreativlik va yangilik yaratish. Ushbu ko'nikmalar o'quvchilarning mustaqil fikrlashini, yangi g'oyalar ishlab chiqishini va ularni amaliyotda qo'llay olishini ta'minlaydi. Shu sababli ular XXI asr mehnat bozorida muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan muhim kompetensiyalar hisoblanadi<sup>148</sup>.

Mavzuga oid ilmiy tadqiqotlarning tahlillari shuni ko'rsatdiki, tadqiqotchi olimlar tomonidan pedagogik tajriba-sinov ishlarini turli xil usullarda olib borilgan. Biz dastlab tajriba-sinovni tashkil etish metodlarini belgilab olishga

---

<sup>148</sup> Hanifah W., Subiyantoro S., Muzzazinah. Creative Thinking Skills in Science Lessons in Elementary Schools // 3rd International Conference on Learning Innovation and Quality Education (ICLIQE 2019). Advances in Social Science, Education and Humanities Research, volume 397. – P. 870-875.

harakat qildik<sup>149</sup>. Pedagogik tajriba-sinov ishlari deyilganda, nazariy-mantiqiy metod bilan uzviy o‘zaro bog‘liq, ishlab chiqilgan metodikaning real amaliy modelini ifodalovchi o‘ziga xos tadqiqot metodlari majmuasini tushunamiz.

AQSh maktablarining boshlang‘ich sinflarida o‘tkazilgan tajriba-sinov natijasida quyidagi xulosaga kelingan. Kreativ fikrlash topshiriqlarida to‘rtinchi sinfdan boshlab natijalarda sezilarli o‘shish kuzatilmagan bo‘lsa, muammo yechish topshiriqlarida rivojlanish oltinchi sinfgacha davom etgan. Shu bilan birga, o‘quvchilar o‘rtasidagi individual farqlar juda katta bo‘lgani aniqlandi. Bu esa iqtidorli o‘quvchilar uchun kreativlik va muammo yechish ko‘nikmalarini tizimli ravishda rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi<sup>150</sup>.

Biz o‘quvchilarda pedagogik tajriba-sinov ishlarini to‘rt bosqichda tashkil etdik.

Birinchi bosqichni “aniqlashtiruvchi” bosqichi deb nomladik va ushbu bosqichda real pedagogik jarayonning (amaliyotda shakllangan) tahlili asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ fikrlash darajalari o‘rganildi. Tajriba-sinovning bu bosqichida tadqiqotning ilmiy farazi va vazifalari shakllantirildi, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarda kreativ fikrlash qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirishda ijodiy mazmundagi muammoli mashqlardan foydalanishning nazariy modeli, tadqiqot vazifalarini amalga oshirish usullari aniqlandi. Birinchi bosqichning asosiy maqsadi kelgusida nazariy tahlil qilish va qayta ishlash uchun material to‘plah va tasniflashdan iborat bo‘ldi. Tajriba-sinov ishlarining birinchi bosqichda asosan quyidagi metodlardan foydalanildi: o‘qituvchilar va o‘quvchilar faoliyatini kuzatish, so‘rovlar va anketalar o‘tkazish, yozma ish va testlar o‘tkazish, tadqiqotchi va tajriba-sinov ishlarida qatnashayotgan o‘qituvchilar tomonidan tajriba darslarini o‘tkazish. Bu bosqich aniqlashtiruvchi xarakterga ega bo‘lganligi uchun uni ta’kidlovchi bosqich deb nomladik.

---

<sup>149</sup> To‘xtaxo‘jayeva M.X., Nishonboyev J., Saidaxmedov N. va b. Pedagogika (1-qism). – T.: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati”. 2010. – 400 b.

<sup>150</sup> Houtz J.C., Rosenfield S., Tetenbaum T J. Creative Thinking in Gifted Elementary School Children. View all authors and affiliations. Volume 22, Issue 4. <https://doi.org/10.1177/001698627802200417>. 2025. – P. 78-85.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ fikrlash qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirishda ijodiy mazmundagi mashqlarning mohiyatini to'la aniqlab olish uchun o'quv-tarbiya jarayoniga zarur qo'shimcha o'zgartirishlar kiritildi, u yangi pedagogik vositalar bilan ta'minlandi. Bunday o'zgarishlar yangi metodik yondoshuvni amalga oshirishning nazariy va amaliy modelini yaratishni talab etadi. Ushbu bosqichning oxiriga kelib bunday modelning asosiy jihatlari shakllantirildi.

Ikkinchi "ta'kidlovchi" bosqichida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ fikrlash qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish jarayoniga ijodiy mazmundagi mashqlarni tadbiq etish va uning natijalarini umumlashtirish bilan xarakterlanadi. Shuning uchun bu bosqich modelning elementlari orasida o'zaro munosabatlarni o'rnatish, ularning ayrim xossalarni qo'shimcha o'rganish, masalani model asosida yechishga yo'naltirildi, ya'ni nazariyani shu model doirasida rivojlantirishga qaratildi. Bu bosqich tashkiliy-tayyorgarlik bosqichi deb ataldi. O'quv-tarbiya ishlarining maqsad va vazifalari, mazmuniga aniqliklar kiritildi, o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishning pedagogik va metodik asoslari aniqlandi<sup>151</sup>. O'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyatining mantiqiy-psixologik, tashkiliy-pedagogik jihatlari tahlil qilindi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ fikrlash faoliyatini shakllantirish va rivojlantirishda ijodiy mazmundagi mashqlardan foydalanishni amalga oshirishning metodik vositalari va usullari izlandi. Amaldagi boshlang'ich ta'lim fanlari darsliklari tahlil qilindi (3- ilova). Shakllantiruvchi-izlanish bosqichi ishlab chiqilgan metodika asosida amalga oshiriladi.

Olib borilayotgan tajriba-sinov ishlarining uchinchi bosqich "shakllantiruvchi" deb nomlanib, unda kutilayotgan natijalar amalda qo'llanilayotgan natijalar bilan solishtirildi. Taqqoslashlar, o'rganishlar asosida

---

<sup>151</sup> Abdirimov I.A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ fikrlashini rivojlantirishning pedagogik va metodik asoslari. // "Pedagogik akmeologiya" xalqaro ilmiy-metodik jurnal. Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi 11-uy. Web-sayt. www.ssbuxoriy.uz . 2024(2). 91-95 b.

natijalar baholandi, dastlabki ilmiy farazga va nazariy modelga ma'lum o'zgartirishlar kiritildi.

Tajriba-sinov ishlarining so'ngi "yakunlovchi" bosqichida taklif etilayotgan metodikaning samaradorlik darajasi matematik-statistik tahlillar yordamida aniqlashtirildi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kreativ firklash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan tajriba-sinov ishlari (2021-2025 y.y.) 5 yil davomida Respublikamizning bir qator hududlarida olib borildi. Dastlabki ikki yil davomida asosan tajriba-sinov ishlarining respondentlarni kuzatish, so'rovnomalar o'tkazish va umuman olganda ta'kidlovchi bosqichi amalga oshirildi, keyingi uch yil davomida esa tajriba-sinovning tashkiliy-tayyorgarlik, shakllantiruvchi va yakunlovchi bosqichlari o'tkazildi. Shakllantiruvchi bosqich ma'lum vaqt davomida tashkiliy-tayyorgarlik bosqichi bilan parallel ravishda olib borildi, uning natijalari oxirgi ikki yilda umumlashtirildi. Tajriba-sinov maydonchasi sifatida Respublikamizning Xorazm viloyatidan 11 ta, Namangan viloyatidan 8 ta hamda Buxoro viloyatidan 6 ta umumiy o'rta ta'lim maktablari tanlab olindi.

O'tkazilgan tajriba-sinov ishlariga jalb qilingan respondentlar haqidagi ma'lumotlar quyidagi jadvalda ifodalangan.

### 3.1-jadval

Tajriba-sinov ishlari olib borilgan umumiy o'rta maktablar nomi	Tajriba sinfidagi o'quvchilar soni	Nazorat sinfidagi o'quvchilar soni
Namangan viloyati Kosonsoy tumanidagi 13-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	67	65
Namangan viloyati Kosonsoy tumanidagi 16-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	61	63
Namangan viloyati Kosonsoy tumanidagi 17-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	68	66
Namangan viloyati Kosonsoy tumanidagi 22-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	64	65
Namangan viloyati Kosonsoy tumanidagi	67	60

24-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi		
Namangan viloyati Kosonsoy tumanidagi 28-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	75	78
Namangan viloyati Kosonsoy tumanidagi 29-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	98	87
Namangan viloyati Kosonsoy tumanidagi 31-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	96	94
Buxoro viloyati Buxoro shahridagi 4-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	91	93
Buxoro viloyati Buxoro shahridagi 19-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	82	80
Buxoro viloyati Buxoro shahridagi 23-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	73	71
Buxoro viloyati Buxoro shahridagi 30-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	72	64
Buxoro viloyati Buxoro shahridagi 42-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	68	65
Buxoro viloyati Buxoro shahridagi 49-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	88	84
Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumanidagi 23-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	78	74
Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumanidagi 31-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	84	82
Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumanidagi 32-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	68	64
Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumanidagi 33-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	62	58
Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumanidagi 53-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	74	72
Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumanidagi 46-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	98	92
Xorazm viloyati Urganch tumanidagi 2-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	82	76
Xorazm viloyati Urganch tumanidagi 44-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	74	68
Xorazm viloyati Urganch shahridagi 4-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	78	76

Xorazm viloyati Urganch shahridagi 5-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	62	58
Xorazm viloyati Urganch shahridagi 6-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	62	54
Jami:	1892	1809

Tajriba-sinov ishlari o'tkazilgan maktab o'qituvchilaridan tashqari Xorazm viloyatining maktablaridan malaka oshirishga kelgan 300 dan ortiq boshlang'ch sinflarda dars beradigan o'qituvchilar tashkiliy-tayyorgarlik bosqichiga jalb qilindi. Ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlash jarayonlari bizning dasturlarimiz asosida amalga oshirildi (2-ilovaga qarang).

**I bosqichda:** Real pedagogik jarayonlarni tahlil qilish orqali o'quvchilarning kreativ fikrlash darajasi aniqlanadi; tadqiqotning ilmiy farazi va vazifalari shakllantiriladi; ijodiy mazmundagi muammoli mashqlarni qo'llashning nazariy modeli ishlab chiqiladi.

**II bosqichda:** Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ fikrlash qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirishda ijodiy mazmundagi mashqlarni amaliyotga tadbiq etish va natijalarni umumlashtirish; model elementlari o'rtasidagi munosabatlar o'rganiladi va pedagogik-metodik asoslar aniqlanadi.

**III bosqichda:** Shakllantiruvchi tajriba-sinov ma'lumotlari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ishlab chiqilgan metodika asosida kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirishni sinovdan o'tkazish; metodik yondashuvning samaradorligi kuzatiladi va baholanadi.

**IV bosqichda:** Takomillashtirilgan model asosida taklif qilingan metodikani amaliyotga joriy etish va tajriba-sinov ishlari natijalarini umumlashtirish, tahlil qilish va baholash asosida metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Ushbu bosqichda boshlang'ich sinflarda o'qitilayotgan ona tili, o'qish, matematika, tarbiya, tabiatshunoslik va texnologiya fanlaridan o'tkaziladigan dars mashg'ulotlari ijodiy mazmundagi mashqlardan tuzilgan ishlanma asosida tashkil etildi va natijalar umumlashtirildi.

Tajriba-sinov ishlarida birinchi bosqichda quyidagi metodlardan foydalanildi:

I bosqichda:

- tadqiqot natijalarini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim metodlari asosida tahlil qilish;

- boshlang'ich sinf darslarining rivojlantiruvchi funksiyasini kuchaytirish imkoniyatlarini aniqlash maqsadida dastur va darsliklarni o'rganish.

- boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ilg'or tajribalarini o'rganish va umumlashtirish.

- o'qituvchilar va o'quvchilardan ma'lumot to'plash, savol-javoblar orqali pedagogik jarayonni tahlil qilish.

II bosqichda: Ta'lim texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha tadqiqotlarning tahlili. O'qituvchilar va tadqiqotchining maxsus ishlab chiqilgan dastur va metodik materiallar asosida olib borgan tajriba-sinov ishlari.

III bosqichda: O'qituvchi va o'quvchining hamkorlikdagi mujassamlashgan faoliyatini kuzatish. Ishlab chiqilgan tavsiyalar asosida pedagogik vaziyatlarni yaratish.

IV bosqichda: Darslarni ijodiy mazmundagi mashqlardan tuzilgan ishlanma asosida tashkil etish va natijalarni umumlashtirish.

Tadqiqot metodining samaradorligini tekshirish usullari:

I bosqichda: Tahlilga tizimli yondashuvni ta'minlash maqsadida turlicha qarashlarni hisobga olish. Anketa va so'rov natijalarini qayta ishlashning statistik usullarini qo'llash.

II bosqichda: Taklif etilayotgan metodika bo'yicha kutilayotgan natijalarni boshlang'ich ta'lim davlat ta'lim standartlari talablari bilan taqqoslash. Turli hududlardagi o'qituvchilarning metodikani qo'llash mahoratini o'rganish.

III bosqichda: Tajriba-sinov ishlarining natijalarini sifat va miqdor jihatdan qayta ishlash.

Tajriba-sinovning asosiy natijalari:

I bosqichda: Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ta'lim jarayonida o'quvchilarning kreativ fikrlashini shakllantirish va rivojlantirishda ijodiy mazmundagi mashqlardan foydalanishga tayyorgarlik darajasi aniqlandi. Shuningdek, o'quvchilarning ta'limga qiziqishi va motivlarini baholash maqsadida o'tkazilgan anketa va so'rovlar tahlil qilindi.

II bosqichda: Kreativ fikrlash faoliyatini shakllantirish va rivojlantirishda ijodiy mazmundagi mashqlardan foydalanish modeli tajriba-sinov uchun tanlangan maktablarda sinovdan o'tkazildi va amaliyotga tadbiiq etildi.

III bosqichda: Ishlab chiqilgan metodika boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ fikrlash qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirishda amalda sinovdan o'tkazildi, uning samaradorligi kuzatildi.

IV bosqichda: Metodika asosida o'tkazilgan tajriba-sinov ishlarining yakuniy natijalari umumlashtirildi, natijalarning samaradorligi va qo'llanilish imkoniyatlari aniqlab berildi. Ushbu bosqichlar orqali pedagogik tajriba-sinov jarayonining har bir etapidagi faoliyat va natijalar tizimli tarzda aniqlanib, o'quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirishning samarali usullari tasdiqlandi.

O'qituvchilar orasida anketa va so'rovlar o'tkazish malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarida ham amalga oshirildi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ fikrlash qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirishda ijodiy mazmundagi mashqlarning asosiy funksiyalari reytingi.

(298 ta o'qituvchi; turning eng yuqori bahosi 10 ball)

### 3.2-jadval

Ijodiy mashq funksiyalari	Ijodiy mashq funksiyalari reyting										
	10	9	8	7	6	5	4	3	2	1	
1. Amallarni ijodiy yondashib bajarish ko'nikmalarini barqarorlashtirish.	62	77	51	48	29	18	13	-	-	-	8,2
2. Aqliy amallarni o'rinli rivojlantirish.	47	50	38	38	37	28	25	23	12	-	6,6
3. Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish.	26	28	36	36	28	36	32	28	27	21	5,3

4. Nutqni samarali rivojlantirish.	24	26	36	34	25	24	27	24	42	36	4,8
5. Yangi materialni tushunib olishdagi kreativligi.	36	32	28	35	24	25	35	34	28	21	6
6. O‘tilgan materialni mustahkamlash.	36	45	42	31	29	18	27	25	23	22	6,5
7. Egallangan ko‘nikmalarni mustahkamlash.	58	57	42	32	24	23	15	17	19	11	6,9

O‘tkazilgan anketa va so‘rovlarning natijalari shuni ko‘rsatdiki, aksariyat o‘qituvchilar shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim g‘oyasi bilan umumiy holda tanish bo‘lib, to‘liq o‘rganishga psixologik jihatdan tayyor ekanlar. O‘qituvchilarning ko‘pchiligi mahsuldor o‘qitish metodlarini qo‘llashga intilishi ma’lum bo‘ldi. Bular asosan: muammoli vaziyatlar yaratish, o‘quvchilarni masalani yechimini qidirishga faol jalb etish, ko‘rgazmali-obrazli o‘qitish metodini, qat’iy deduktiv o‘qitish metodi bilan qo‘shib olib borish kabilar. Ko‘pchilik o‘qituvchilarning intilishi o‘quvchilarda fanlarni o‘qitishga qiziqishlarini orttirishga qaratilgan bo‘lishiga qaramasdan ularning ishlarida tizimlilik yetishmaydi. Aksariyat darslar o‘quvchilarga bilim berish va ularning bilimlarini nazorat qilish asosiga qurilgan.

To‘laqonli muloqot hamda hamkorlikdagi faoliyatlarning muhim bo‘g‘ini mavjud emas. Umuman olganda, o‘qituvchilarda o‘quvchilar oldiga aniq maqsadlar qo‘yish, ularning bilish va kreativ fikrlash faoliyati izchil rivojlantirish tajribasi yetishmaydi. Ko‘proq miqdordagi kreativ topshiriqlarni yechishga intilish katta, ammo bu masalalarning o‘quvchilarda fikrlash qobiliyatini rivojlantiruvchi funksiyalarini hisobga olgan holda maqsadga muvofiq tizimlashtirilmagan. Asosiy e’tibor darsliklarda berilgan mashqlarni bajartirish, bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlashga qaratilgan.

Ko‘pchilik o‘qituvchilar umumiy holda taklif qilinayotgan masala va o‘quv masalalari orasidagi farqni sezishmaydi. Natijada o‘quv jarayonida rivojlantiruvchi ta’limning muhim belgilaridan biri yetishmaydi, ya’ni o‘quvchilarni umumiy fikrlash usuliga o‘rgatilmaydi.

Kuzatish natijalari shuni ko'rsatdiki, o'quv materialini bayon qilishning nazariy darajasi odatdagidek, muayyan darsliklarning bayon qilish darajasida amalga oshiriladi. Ko'pchilik o'qituvchilar kreativ fikrlashga o'rgatishning maqsadlari ko'p qirrali ekanligini tushunishadi, jumladan o'quvchilarni aqliy rivojlantirish eng muhim vazifalaridan biri ekanligini qayd etishadi, ammo bu fikrlar amaliy xatti-harakatlar bilan mustahkamlanmasdan kelinayotganligini ko'rish mumkin.

O'qituvchilar o'quvchilarni intellektual rivojlantirishdagi muhim vosita imkon boricha ko'proq turli mazmundagi topshiriqlar va masalalar yechish deb bilishadi, ammo ular tomonidan o'quvchining nutqiga jiddiy e'tibor qaratilmaydi. O'tkazilgan so'rovlar shuni ko'rsatdiki, o'qituvchilar tomonidan mahsuldor ta'limni amalga oshirish bo'yicha anchagina tajriba to'plangan va bu tajribalarga tayanish mumkin. Ta'kidlash lozimki o'qituvchilar shaxsga yo'naltirilgan ta'limning mohiyatini anglab olishda tashqi yordamga muhtojdirlar. Ular boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitish metodikasidagi mavjud muammolarni hal qilishda ijodiy mazmundagi mashqlardan foydalanish va bunga qaratilgan mashqlar tizimini yaratish g'oyasini qo'llab-quvvatladilar. Bu bosqichning to'rtinchi vazifasini bajarish uchun maktablarning to'rtinchi sinflarida o'qiyotgan o'quvchilardan nazorat testlari o'tkazildi. Testlarni o'tkazish natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlanish darajalarini tavsiflovchi daliliy materiallar to'plandi.

Quyida biz tajriba-sinov jarayonida taqdim qilingan ijodiy mazmundagi ayrim mashqlardan namunalar keltiramiz:

1.

$$\text{🏀} + \text{🏐} = 29$$

$$\text{⚽} = 14$$

$$\text{🏀} + \text{🏐} + \text{⚽} = ?$$

- A) 43      B) 44      C) 45      D) 46

2. Bir kemada 35 ta yo'lovchi bor edi. Keyin undan 12 ta ko'p yo'lovchi chiqdi. Jami necha yo'lovchi bo'ldi<sup>152</sup>?

- A) 82      B) 83      C) 84      D) 85

3.

$$\begin{array}{l}
 \text{Football} + \text{Volleyball} = 31 \\
 \text{Soccer} + \text{Basketball} = 22 \\
 \text{Football} + \text{Basketball} + \text{Volleyball} + \text{Soccer} = ?
 \end{array}$$


- A) 53      B) 54      C) 55      D) 56

4.

$$\begin{array}{l}
 \begin{array}{ccc}
 \triangle_{13} & + & \triangle \\
 + & & + \\
 \triangle & + & \triangle \\
 \parallel & & \parallel \\
 \text{?} & & 50
 \end{array}
 = \text{?} \\
 \text{?} & & 42
 \end{array}$$

- A) 25      B) 26      C) 27      D) 28

5. Akbar dastlab mashinada 320 km, velosipedda 80 km, undan so'ng yana 15 km piyoda yo'l yurdi. Akbar jami necha km yo'l yurgan?



- A) 400      B) 405      C) 415      D) 395

6. Tarvuzning narxi 180 so'm, qovun esa tarvuzdan 30 so'm qimmat. Akbar 1 ta tarvuz va 1 ta qovun sotib olmoqchi bo'lsa, u jami qancha pul to'lashi kerak?

<sup>152</sup> Matematika. Umumta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. / Bikbayeva N.U., Yangaboyeva E. – T.: O'qituvchi NMIU, 2017. – 168 b.



- A) 400      B) 390      C) 380      D) 480


7. Uy tomiga 35 ta kabutar kelib qo'ndi. Birozdan keyin ulardan 15 tasi uchib ketdi. Shundan so'ng, 10 ta kabutar uchib keldi. Natijada tomdagi kabutarlar soni nechta bo'ldi?

- A) 30      B) 40      C) 50      D) 60

8. Uyning tomidan yergacha bo'lgan masofa 12 metr. Toxir 5 metr va 6 metr uzunlikdagi 2 ta arqonni bog'lab bir uchini yerga tashladi. Toxirning arqoni yergacha yetadimi? Yana qancha arqon yetmay qoladi?


- A) ha, yetadi      B) yo'q, 1 metr      C) yo'q 2 metr      D) yo'q, 3 metr

9. Qaysi raqam aylana ichida emas, u yozilgan shakl bo'yalmagan va bu raqam kvadrat ichida ham joylashmagan?




- A) 2      B) 3      C) 4      D) 5

10. Noma'lum sonni toping?




- A) 14      B) 15      C) 16      D) 20

11. Noma'lum sonni toping?



- A) 40      B) 30      C) 50      D) 20

12. Noma'lum sonni toping?



- A) 8      B) 10      C) 7      D) 4

13.



- A) 6      B) 3      C) 5      D) 4

14. Noma'lum sonni toping?

$$5 \blacklozenge 2 = 6$$

$$7 \blacklozenge 1 = 3$$

$$6 \blacklozenge 3 = 14$$

$$8 \blacklozenge 4 = ?$$

- A) 34      B) 8      C) 4      D) 28

Misollarni yeching, to'g'ri javobni toping va uni a) javobiga o'tkazib belgilang<sup>153</sup>.

<sup>153</sup> Matematika. Umumta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. / Bikbayeva N.U., Yangaboyeva E. – T.: O'qituvchi NMIU, 2017. – 187 b.

O'quvchilarning ishlarini o'rganish va tahlil qilish natijasida o'qitish asosan tushunchalarni eslab qolish darajasida olib borilayotganligini, o'rganilayotgan materialni tushunish darajasida tashkil qilinmayotganligini ko'rsatdi. U takomillashtirishga muhtoj.

Navbatdagi bosqichning o'quv vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ fikrlash faoliyatini shakllantirish va rivojlantirishda ijodiy mazmundagi mashqlardan foydalanish modeli tahlil qilindi va rivojlantirildi. Ushbu jarayon quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oldi:

- o'quvchilarda qiziqish, ishtiyoq va ichki motivatsiyani uyg'otish;
- o'quv materiallarini ijodiy mashqlar asosida tanlash;
- fanlararo bog'liqlikni ta'minlash, muammoli vaziyatlar, ochiq savollar, alternativ yechimlarni qo'llash;
- innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash, AKT, interfaol metodlar, vizual vositalardan foydalanish;
- o'quvchining o'z faoliyatini tahlil qilishi, ijodiy natijalarni baholash rag'batlantiruvchi yondash;
- kommunikativ va ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish hamda Tanqidiy va kreativ fikrlashni uyg'un rivojlantirishdan iborat.

2. Ishlab chiqilgan metodika bo'yicha tajriba-sinov ishlarini tashkil qilish va o'tkazish.

Uchinchi shakllantiruvchi bosqich.

Bu bosqich kutilayotgan natijalarni amaliyotda amalga oshirilgan natijalar bilan solishtirishga yo'naltirilgan. Shuningdek, natijalarni baholash dastlabki ishchi ilmiy farazga o'zgartirishlar kiritishga qaratilgan.

Yakunlovchi bosqich.

Ushbu bosqichda boshlang'ich sinf darslarida ijodiy mazmundagi mashqlardan tuzilgan ishlanma asosida pedagogik tajriba-sinov tashkil etildi va natijalari umumlashtirildi.

Tajriba-sinov ishlarini o'tkazishda qatnashgan o'qituvchilar bilan tayyorgarlik quyidagi uch bosqichda amalga oshirildi:

- o'qituvchilarni tadqiqot muammosi bo'yicha nazariy bilimlar bilan qurollantirish;

- o'qituvchilarning amaliy tayyorgarligini ta'minlash;

- o'qituvchilar uchun qo'llanmalar va metodik tavsiyalar yaratish.

Shakllantiruvchi tajriba-sinov davomida biz taklif qilayotgan metodikaning natijaviyligini aniqlash zaruriyati tug'ildi. Shuning uchun o'quvchilar o'rtasida ijodiy mashqlardan foydalanish ishlari o'tkazildi. Tashhislash asosida olingan natijalar, bizlarga bir tomondan tajriba-sinov ishlariga zarur o'zgartirishlar kiritishga, boshqa tomondan esa boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ fikrlash faoliyatini shakllantirish va rivojlantirishda ijodiy mazmundagi mashqlardan foydalanish metodikasini kelgusida takomillashtirish bo'yicha materiallar bilan boyitildi.

Ushbu bosqichda boshlang'ich ta'lim darslari loyihalangan ishlanma va ilmiy asosda ishlab chiqilgan uslublar asosida tashkil etildi. Tajriba guruhida ijodiy mazmundagi mashqlarga asoslangan dars ishlari olib borildi, nazorat guruhida esa mavjud darslik, o'quv va o'quv-uslubiy qo'llanmalar asosida, umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'qituvchilari tajribasi inobatga olinib, mashg'ulotlar tashkil qilindi.

O'quvchilarda oldindan mavjud bilimlar darajasini aniqlash maqsadida biz ular uchun yangi yoki o'quv materialida berilmagan mashqlar miqdorini oshirishga harakat qildik. Bundan tashqari o'quvchilarga yangi bayon qilingan materiallardan tajriba sifatida rivojlantiruvchi test mashqlarini tuzdik, chunki bu o'quvchilarning yangi o'quv materialini qanchalik o'zlashtirganligini kuzatish imkonini berdi. Shuningdek, mashqlarda kreativ fikrlashni talab etuvchi, nostandart masalalar ham o'rin olgan.

Taklif etilgan didaktik vositalarning o'quvchilar fikrlash faoliyatini rivojlantirishga ko'rsatgan ta'sirini tajriba va nazorat guruhlarida o'tkazilgan darslar, reyting ballariga mos baholar nazorat uchun o'tkazilgan mashg'ulotlar natijalariga ko'ra belgilandi.

Har ikkala guruhdagi o‘quvchilarning fikrlash darajasi o‘zaro muvofiqligiga e’tibor qaratildi. Taklif etilayotgan metodikaning samaradorligini aniqlash uchun o‘quvchilardan olingan nazorat ishlari va umumlashtiruvchi darslarning natijalari miqdor va sifat ko‘rsatkichlari bo‘yicha tahlil qilindi.

Ushbu bosqichda, tajriba-sinovning yakuniy natijalari tahlil qilindi. Tajriba-sinov materiallari to‘ldirildi, takomillashtirildi. Olingan natijalar matematik-statistik qayta ishlandi, umumlashtirildi, xulosalandi. Yakuniy bosqich oxirida test va yozma ish o‘tkazildi. Quyida uchinchi sinf o‘quvchilari bilan o‘tkazilgan ijodiy mashqlardan namunalar keltiramiz.

1. Ketma-ketlikni davom ettiring:

2, 4, 6, 8, ...

2. Ortiqcha so‘zni toping:

Olma, Anor, Shirinlik, Banan, Gilos

3. Qaysi so‘z boshqacha:

Kvadrat, Uchburchak, To‘rtburchak, Aylana

4. Ketma-ketlikni top:

1, 3, 5, 7, 9, ?

5. Agar 1 ta kitob 5 ming so‘m bo‘lsa, 4 ta kitob necha so‘m turadi?

6. Ortiqcha sonni toping:

10, 20, 25, 30, 40

7. Soat 3 dan 2 soat oldinga vaqt olsak, soat nechani ko‘rsatadi?

8. Sifatli tartibni top:

Eng kichigi: 3, 9, 1, 7, 5

A) 1, 3, 5, 7, 9

B) 3, 1, 5, 7, 9

C) 1, 5, 3, 7, 9

9. 1 hafta necha kun?

10. Agar 1 ta kapalak 2 sekundda 1 guldan ikkinchisiga uchib o‘tsa, 5 ta gul orasidan uchib o‘tishi uchun nechta sekund ketadi?

11. Mantiqiy savol:

1 ta odamning 2 ta ko‘zi, 2 ta qulog‘i bor. 3 ta odamning nechta ko‘zi bor?

12. Quyidagi shakllardan qaysi biri boshqa?

● ▲ ■ ★

13. 5 ta olma bor, 2 tasini yeb qo‘ysa, nechta qoladi?

14. O‘xshash so‘zlar qatorini top:

A) kitob, daftar, ruchka

B) oy, quyosh, oqshom

C) stol, soat, telefon

15. 4 ta 2 ni qo‘shib 10 ni hosil qiling.

16. 3 ta mushuk 3 ta sichqonni 3 daqiqada tutsa, 1 ta mushuk 1 ta sichqonni nechta daqiqada tutadi?

17. Yulduz, oy va quyosh yig‘ilib o‘yin o‘ynashdi. Quyosh ketib qoldi. Nechta osmon jismi qoldi?

18. Nechta oyda 28 kun bor?

19. 2 ta ota va 2 ta bola baliq tutishga bordi. Ular 3 ta baliq tutishdi. Har biriga bittadan baliq to‘g‘ri keldi. Bu qanday bo‘lishi mumkin?

20. 1 ot oldinda, 1 ot orqada, 1 ot o‘rtada – jami nechta ot bor?

21. Necha marta 1 sonini yozmasdan 100 gacha sanab chiqish mumkin?

22. Agar 1 olma 100 so‘m bo‘lsa, 100 ta olma nechta so‘m turadi?

23. Ketma-ketlikni davom ettiring:

2, 3, 5, 8, 13, ?

Quyida nazorat va tajriba-sinov guruhlarida o‘tkazilgan yozma ishlarning tahlilini keltiramiz.

Og‘zaki hisoblashlar va masalalar yechishni tekshirish uchun arifmetik diktant o‘tkazildi. Diktant matnidan namuna tavsiya qilamiz:

Matematika fanidan diktant:

15 sonidan 7 ni ayir, natijaga 4 ni qo‘sh.

20 ning yarmini top, ustiga 9 ni qo‘sh.

36 sonidan 6 ga kamaytir, keyin 2 barobarga oshir.

100 dan 40 ni ayir, qolganini 5 ga bo‘l.

9 ta olma bor. 3 tasini yeb qo‘ydi. Qolganiga yana 7 ta olma qo‘shildi. Endi nechta olma bor?

50 ning  $\frac{1}{5}$  qismini top, so‘ng natijaga 12 ni qo‘sh.

4 ta do‘st har birida 3 tadan sharcha bor. Ularning hammasida jami nechta sharcha bor?

5 ta tovuq 5 kunda 5 ta tuxum qo‘yadi. 1 kunda 1 ta tovuq necha tuxum qo‘yadi?

30 ni 3 ga bo‘l, keyin natijani 6 ga ko‘paytir.

$7 \times 4$  natijasidan 8 ni ayir, keyin 5 ni qo‘sh<sup>154</sup>.

Tadqiqot ishimizning yuqoridagi pedagogik faoliyat bosqichlarida olib borilgan amaliyot natijalariga asoslanib boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ fikrlashini rivojlanganligi matematik-statistik metodlar yordamida tahlil qilindi.

---

<sup>154</sup> Matematika. Umumta’lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. / Bikbayeva N.U., Yangaboyeva E., Girfanova K. – T.: O‘qituvchi NMIU, 2017. – 208 b.

### 3.2-§. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ fikrlashini rivojlantirishga yo'naltirilgan tajriba-sinov ishlarining statistik tahlili

O'quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatining rivojlanganlik darajasini aniqlash maqsadida tajriba va nazorat sinflarida o'tkazilgan tajriba-sinov natijalari asosida, tajribadan oldingi va keyingi o'rtacha o'zlashtirishlar Student va Pirsonning  $\chi^2$  matematik-statistika metodlari yordamida tahlil qilindi.

Tajriba-sinovda 1-sinf o'quvchilaridan 914 nafar, 2-sinf o'quvchilaridan 926 nafar, 3-sinf o'quvchilaridan 906 nafar, 4-sinf o'quvchilaridan esa 955 nafar – jami 3701 nafar o'quvchi ishtirok etdi. Shundan tajriba sinfida 1892 nafar va nazorat sinfida 1809 nafar o'quvchi qatnashdi. Statistik ma'lumotlarni 420 nafar o'quvchidan iborat tanlanma asosida tahlil qildik.

Yuqoridagi jadvallar asosida o'qituvchilarning tajribadan keyingi va tajribadan oldingi hamda o'quvchilarning tajriba va nazorat sinflaridagi o'zlashtirishlari samaradorligini ko'rsatuvchi  $H_1$  gipoteza va unga zid bo'lgan  $H_0$  gipoteza tanlanadi.

Umumiy holda o'quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlanganlik darajasini aniqlash yuzasidan o'zlashtirish natijalari

**3.3-jadval**

Sinflar	O'quvchilar soni	O'zlashtirish darajalari		
		Yuqori	O'rta	Past
Tajriba sinfi (Tajriba boshida)	420	142	142	136
Nazorat sinfi (Tajriba boshida)	420	142	140	138
Tajriba sinfi (Tajriba oxirida)	420	224	122	74
Nazorat sinfi (Tajriba oxirida)	420	142	141	137

O'tkazilgan tajriba-sinov natijalariga asoslangan holda, o'quvchilarda kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlanganlik darajalari samaradorligini aniqlash yuzasidan o'tkazilgan tajriba-sinov natijalari bo'yicha tajriba va nazorat guruhlaridagi o'rtacha o'zlashtirishlarini Student kriteriysi yordamida tahlil etdik. Tajriba-sinov ishlari natijalarini tahlili qilishda jami 840 nafar o'quvchilar tasodifiy ravishda tanlandi. Shundan so'ng tajriba sinfida 420 nafar o'quvchi ishtirok tanlangan bo'lsa, nazorat sinfidan ham 420 nafar o'quvchi tanlab olindi.

Masalaning mohiyati quyidagicha: ikkita tanlanma to'plam mavjud – biri tajriba sinfidagi o'quvchilarning o'rtacha ballari, ikkinchisi esa nazorat sinfidagi o'quvchilarning o'rtacha ballari. Ushbu to'plamlar o'rtasidagi farq Student kriteriyasi yordamida tahlil qilinadi.

Gipotezalar:

0-gipoteza ( $H_0$ ):

- tajriba va nazorat guruhlaridagi o'quvchilarning o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichlari bir xil, ya'ni tajriba sinfida qo'llangan metodika o'quv natijalariga sezilarli ta'sir ko'rsatmagan.

Alternativ gipoteza ( $H_1$ ):

- tajriba va nazorat guruhlaridagi o'quvchilarning o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichlari farq qiladi, ya'ni tajriba sinfida qo'llangan metodika o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishda samarali bo'lgan<sup>155</sup>.

Tajribadan oldingi nazorat sinfidagi natijalarni quyidagi jadvalda aks ettiramiz:

O'quvchilarda kreativ fikrlash qobiliyatining rivojlanganlik darajalari samaradorligini aniqlash yuzasidan tajriba boshidagi o'zlashtirish natijalari

### 3.4-jadval

Bosqichlar	O'quvchilar soni	O'zlashtirish darajalari		
		Yuqori	O'rta	Past

<sup>155</sup> Расулов А.С., Раймова Г.М., Саримсакова Х.К. Эҳтимоллар назарияси ва математик статистика. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2006. – 272 б.

Tajriba sinfi	420	142	142	136
Nazorat sinfi	420	142	140	138

Tajriba sinfidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari va o'quvchilar sonini mos ravishda  $X_i$  va  $n_i$  kabi va nazorat sinfidagini esa  $Y_j$  va  $m_j$  orqali belgilab olib, quyidagi statistic guruhlangan variatsion qatorlarga ega bo'lamiz, shuningdek, yuqori ko'rsatkichni 3 ball bilan, o'rta ko'rsatkichni 2 ball bilan va past ko'rsatkichni esa 1 ball bilan belgilaymiz.


Tajriba sinfidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari:

$$\begin{cases} X_i & 3; & 2; & 1; \\ n_i & 142; & 142; & 136; \end{cases} \quad n = \sum_{i=1}^3 n_i = 420$$

Nazorat sinfidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari:

$$\begin{cases} Y_j & 3; & 2; & 1; \\ m_j & 142; & 140; & 138; \end{cases} \quad m = \sum_{j=1}^3 m_j = 420$$

Ushbu tanlanmalarga mos keluvchi diagrammalar 3.1-rasmda ko'rsatilgan kabi bo'ladi.



### 3.1-rasm. O'quvchilarni tajriba boshidagi o'zlashtirish diagrammasi

Mazkur ma'lumotlar asosida statistik tahlil o'tkazish maqsadida yuqoridagi variatsion qatorlardan  $n_i$  va  $m_j$  takroriylik (chastota)larini mos statistik ehtimollik formulalari yordamida hisoblaymiz.

$$p_i = \frac{n_i}{n} \text{ va } q_j = \frac{m_j}{m} \quad (3.1)$$

$$\begin{cases} X_i & 3; & 2; & 1; \\ p_i & 0,34; & 0,34; & 0,32; \end{cases} \quad \sum_{i=1}^3 p_i = 1$$

$$\begin{cases} Y_j & 3; & 2; & 1; \\ q_j & 0,34; & 0,33; & 0,33; \end{cases} \quad \sum_{j=1}^3 q_j = 1$$

Statistik tahlillarni har ikki guruh bo'yicha o'rtacha o'zlashtirishlarini hisoblagan holda, ularni o'zaro qiyoslash maqsadida hisoblaymiz. Hisoblash natijalari bo'yicha o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichlari quyidagicha:

$$\bar{X} = \sum_{i=1}^3 p_i X_i = 0,34 \cdot 3 + 0,34 \cdot 2 + 0,32 \cdot 1 = 1,02 + 0,68 + 0,32 = 2,02$$

$$\text{Foizda } \bar{X}\% = \frac{2,02}{3} \cdot 100\% = 67,3\%$$

$$\bar{Y} = \sum_{j=1}^3 q_j Y_j = 0,34 \cdot 3 + 0,33 \cdot 2 + 0,34 \cdot 1 = 1,02 + 0,66 + 0,33 = 2,01$$

$$\text{Foizda } \bar{Y}\% = \frac{2,01}{3} \cdot 100\% = 67\%$$

Demak, tajriba sinfidagi o'rtacha o'zlashtirish 67,3%–67 %□ 0.3%ga, ya'ni bu ko'rsatkich juda past. Bu esa o'z navbatida  $\frac{67,3\%}{67\%} \approx 1,004$  ga teng ekanligini anglatadi. Bu esa samaradorlikka erishish uchun juda past ko'rsatkich ekanligini bildiradi. Demak dastlab o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijasiga ko'ra tajriba va sinov guruhlarida o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari bir-biriga juda yaqinligini anglatadi.

Endi tajribadan keyin o'quvchilarda kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlanganlik darajalari samaradorligini aniqlashda qanday natijalarga erishilganini aniqlaymiz.

Tajribadan keyin o'quvchilarda kreativ fikrlash qobiliyatining rivojlanganlik darajalari samaradorligini aniqlash yuzasidan o'zlashtirish natijalari

### 3.5-jadval

Bosqichlar	O‘quvchilar soni	O‘zlashtirish darajalari		
		Yuqori	O‘rta	Past
Tajriba sinfi	420	206	156	58
Nazorat sinfi	420	143	138	139

Tajriba sinfidagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari va o‘quvchilar soni bo‘yicha mos ravishda yuqoridagi kabi belgilashlar kiritamiz.


Tajriba sinfidagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari:

$$\begin{cases} X_i & 3; & 2; & 1; \\ n_i & 206; & 156; & 58; \end{cases} \quad n = \sum_{i=1}^3 n_i = 420 \quad (3.2)$$

Nazorat sinfidagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari:

$$\begin{cases} Y_j & 3; & 2; & 1; \\ m_j & 143; & 138; & 139; \end{cases} \quad m = \sum_{j=1}^3 m_j = 420 \quad (3.3)$$

Oxirgi hisoblashlarga mos kejuvchi diagrammalar ushbu 3.2-rasmdagi holatda bo‘ldi:



### 3.2-rasm. O‘quvchilarni tajriba oxiridagi o‘zlashtirish diagrammasi

Statistik tahlil o‘tkazish maqsadida yuqoridagi variatsion qatorlardan  $n_i$  va  $m_j$  takroriylik (chastota)larini mos statistik ehtimollik formulalari (3.1) yordamida hisoblaymiz.

$$\begin{cases} X_i & 3; & 2; & 1; & \sum_{i=1}^3 p_i = 1 \\ p_i & 0,49; & 0,37; & 0,14; & \end{cases}$$

$$\begin{cases} Y_j & 3; & 2; & 1; & \sum_{j=1}^3 q_j = 1 \\ q_j & 0,34; & 0,33; & 0,33; & \end{cases}$$

Statistik tahlillarni har ikki guruh bo'yicha o'rtacha o'zlashtirishlarini hisoblagan holda, ularni o'zaro qiyoslash maqsadida hisoblaymiz. Hisoblash natijalari bo'yicha o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichlari quyidagicha:

$$\bar{X} = \sum_{i=1}^3 p_i X_i = 0,49 \cdot 3 + 0,37 \cdot 2 + 0,14 \cdot 1 = 1,47 + 0,74 + 0,14 = 2,35$$

$$\text{Foizda } \bar{X}\% = \frac{2,35}{3} \cdot 100\% = 78,3\%$$

$$\bar{Y} = \sum_{j=1}^3 q_j Y_j = 0,34 \cdot 3 + 0,33 \cdot 2 + 0,33 \cdot 1 = 1,02 + 0,66 + 0,33 = 2,01$$

$$\text{Foizda } \bar{Y}\% = \frac{2,01}{3} \cdot 100\% = 67\%$$

Demak, tajriba sinfidagi o'rtacha o'zlashtirish nazorat sinfidagiga nisbatan  $(78,3 - 67)\% \square 11,3\%$  ga yuqori ekanligi aniqlandi. Bu esa o'z navbatida  $\frac{78,3\%}{67\%} = 1,168$  barobar ortiqqligini ko'rsatadi.

O'zlashtirishlarni aniqlash natijasida yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatoliklarni aniqlash uchun oldin o'rtacha kvadratik va standart xatoliklarni aniqlashda boshlaymiz.

O'rtacha kvadratik xatoliklar:

$$S_x^2 = \sum_{i=1}^3 p_i X_i^2 - (\bar{X})^2 = 0,49 \cdot 3^2 + 0,37 \cdot 2^2 + 0,14 \cdot 1^2 - 2,35^2 =$$

$$= 0,49 \cdot 9 + 0,37 \cdot 4 + 0,14 \cdot 1 - 5,5225 =$$

$$= 4,41 + 1,48 + 0,14 - 5,5225 = 6,03 - 5,5225 = 0,5075$$

$$\begin{aligned}
S_y^2 &= \sum_{j=1}^3 q_j Y_j^2 - (\bar{Y})^2 = 0,34 \cdot 3^2 + 0,33 \cdot 2^2 + 0,33 \cdot 1^2 - 2,01^2 = \\
&= 0,34 \cdot 9 + 0,33 \cdot 4 + 0,33 \cdot 1 - 4,0401 = \\
&= 3,06 + 1,32 + 0,33 - 4,0401 = 4,71 - 4,0401 = 0,6699
\end{aligned}$$

Shuningdek standart xatoliklar:

$$S_x = \sqrt{0,5075} = 0,71 \quad S_y = \sqrt{0,6699} = 0,82$$

Bu ma'lumotlarga asosan nazorat sinfidagi standart xatolik qiymati tajriba sinfidagi xatolik ko'rsatkichlariga nisbatan katta bo'ldi, ya'ni  $0,82 > 0,71$ .

Bu holatlarni yanad aniqroq ko'rsatish maqsadida, har ikki statistic tanlanma bo'yicha o'rtacha qiymatlarni variatsiya koeffitsientlari orqali, ya'ni  $C_x$  va  $C_y$  formulalar orqali hisoblaymiz:

$$\begin{aligned}
C_x &= \frac{S_x}{\bar{x}} \cdot 100\% = \frac{0,71 \cdot 100\%}{2,34} = \frac{71\%}{2,34} = 30,3\% \\
C_y &= \frac{S_y}{\bar{y}} \cdot 100\% = \frac{0,82 \cdot 100\%}{2} = \frac{82\%}{2} = 41\%
\end{aligned}$$

Endi ikkita bosh to'planning noma'lum o'rta qiymatlari tengligi tog'risidagi  $H_0: \mu_x = \mu_y$  gipotezani Styudent mezoni asosida tekshiramiz. Bu yerda  $H_1: \mu_x \neq \mu_y$

Shunga asoslanib quyidagi hisoblashlarni bajaramiz:

$$\begin{aligned}
T_{x,y} &= \frac{\bar{x} - \bar{y}}{\sqrt{\frac{S_x^2}{n} + \frac{S_y^2}{m}}} = \frac{2,35 - 2,01}{\sqrt{\frac{0,5075}{420} + \frac{0,6699}{420}}} = \frac{0,34}{\sqrt{0,0012 + 0,0015}} = \frac{0,34}{\sqrt{0,0027}} \\
&= \frac{0,34}{0,052} = 6,54
\end{aligned}$$

Styudent mezoni asosida erkinlik darajasini quyidagi formula orqali hisoblaymiz:

$$k = n + m - 2 = 420 + 420 - 2 = 838$$

Shartga ko'ra konkurent gipoteza  $\mu_x \neq \mu_y$  ko'rinishga ega, shu sababli kritik soha ikki tomonlamadir.

Statistik alomatning qiymatdorlik darajasini  $\alpha = 0.05$  deb olsak, u holda  $p = 1 - \alpha/2 = 0,975$  ga hamda ozodlik darajasi  $k = 838$  ga teng bo'ladi. Student taqsimoti kvantillari jadvalidan kritik nuqtani topamiz<sup>156</sup>:

$$t(838, 0.025) = 1.9632$$

Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, statistikaning tanlanma qiymati kritik nuqtadan katta ekan:

$$T_{x,y} = 6,54 > 1,96$$

Demak, bosh o'rtacha qiymatlari tengligi haqidagi  $H_0$  nolinchgi gipoteza rad etiladi. Buni 95% aniq ishinchlilik bilan aytish mumkinki, tajriba sinfidagi o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichlari nazorat sinfidagi o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichidan farqlanadi.

Endi tajriba-sinov guruhlaridagi va nazorat guruhlaridagi o'zlashtirish taqsimoti xilma-xilligi to'g'risidagi gipotezani tekshiramiz:

$K_0 : F_x = F_u$  va alternativ gipoteza  $K_1 : F_x \neq F_u$

Mazkur gipotezani tekshirishda, Pirsonning  $\chi^2$  kriteriysidan foydalanamiz:

$$\chi_{n,m}^2 = n \cdot m \sum_{i=1}^3 \frac{\left(\frac{m_i}{m} - \frac{n_i}{n}\right)^2}{\frac{m_i + n_i}{m + n}}$$

Endi  $\chi^2$  kriteriysining mos tanlanmalar bo'yicha qiymatlarini hisoblaymiz:

$$\begin{aligned} \chi_{n,m}^2 &= 420 \cdot 420 \left( \frac{(0,49 - 0,34)^2}{206 + 143} + \frac{(0,37 - 0,33)^2}{156 + 138} + \frac{(0,14 - 0,33)^2}{58 + 139} \right) \\ &= 176400 \left( \frac{0,0225}{349} + \frac{0,0016}{294} + \frac{0,0361}{197} \right) \\ &= 176400(0,000064 + 0,000054 + 0,000183) \\ &= 176400 * 0,0002524 = 32,281 \end{aligned}$$

Erkinlik darajasi  $v=3-1=2$  bo'lgan  $\chi^2$  - taqsimotining kritik nuqtasini topamiz.

$r = 0,95$  uchu ishonchlilik ehtimolligi uchun:

$$\chi_{0,95}^2 = 5,991 \text{ ga teng.}$$

<sup>156</sup> Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika [matn]: O'quv qo'llanma / A.A.Abdushukurov [va boshq.]. – T.: "Tafakkur Bo'stoni", 2015. – 378 b.

Endi kriteriyning tanlanma qiymatini kritik qiymat bilan taqqoslaymiz:

$$\chi^2_{n,m} = 32,281 > 5,991$$

ekanligidan, ya'ni  $\chi^2$  statistikasining tanlanma bo'yicha qiymati kritik nuqtadan katta bo'lgani uchun "tajriba o'tkazilgandan keyingi tajriba va nazorat sinflarining o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichlaridagi farqlarning ishonchliligini 95% bilan tasdiqlash mumkin". Demak, tajriba o'tkazilgandan keyin tajriba va nazorat guruhlarining o'zlashtirish holati farq qiladi. Xulosa qilib aytish mumkinki, o'zgarishlarning ta'siri aniq eksperimental o'qitish usullaridan foydalanganligi bilan bog'liq.

Endi baholashning samaradorlik ko'rsatkichini aniqlash uchun ishonchli intervalni topamiz:

$$\Delta_x = t_\gamma \cdot \frac{S_x}{\sqrt{n}} = 1,96 \cdot \frac{0,71}{\sqrt{420}} = 1,96 \cdot \frac{0,71}{20,49} = \frac{1,3916}{20,49} \approx 0,07$$

ga teng, nazorat sinfidagi esa:

$$\Delta_y = t_\gamma \cdot \frac{S_y}{\sqrt{m}} = 1,96 \cdot \frac{0,82}{\sqrt{420}} = 1,96 \cdot \frac{0,81}{20,49} = \frac{1,6072}{20,49} \approx 0,08$$

ga teng bo'ldi. Topilgan natijalardan tajriba sinfi uchun ishonchlilik intervalini topsak:

$$\bar{X} - \Delta_x \leq a_x \leq \bar{X} + \Delta_x$$

$$2,35 - 0,07 \leq a_x \leq 2,35 + 0,07$$

$$2,28 \leq a_x \leq 2,42$$


nazorat sinfi uchun ishonchli interval:

$$\bar{Y} - \Delta_y \leq a_y \leq \bar{Y} + \Delta_y$$

$$2,01 - 0,08 \leq a_y \leq 2,01 + 0,08$$

$$1,93 \leq a_y \leq 2,09$$

Olingan natijalarni geometrik tasvirlasak:



Bundan  $\alpha = 0,05$  qiymatdorlik darajasi bilan aytish mumkinki, tajriba sinfidagi o'rtacha baho nazorat sinfidagi o'rtacha bahodan yuqori va oraliq intervallari ustma-ust tushmayapti. Demak, matematik-statistik tahlillarga asosan, o'zlashtirish ko'rsatkichini ahamiyatli darajada oshganligini ko'rishimiz mumkin.

Yuqoridagilarga asoslangan holda, tajriba-sinov ishlarining sifat ko'rsatkichlarini hisoblaymiz.

Ma'lumki,  $\bar{X}=2,35; \bar{Y}=2,01$   $\Delta_x = 0,07; \Delta_y = 0,08$  ga teng.

Bundan sifat ko'rsatkichlari:

$$K_{y\text{c6}} = \frac{(\bar{X}-\Delta_x)}{(\bar{Y}+\Delta_y)} = \frac{2,35-0,07}{2,01+0,08} = \frac{2,28}{2,09} = 1,09 > 1;$$

$$K_{\delta\text{d6}} = (\bar{X} - \Delta_x) - (\bar{Y} - \Delta_y) = (2,35 - 0,07) - (2,01 - 0,08) = 2,28 - 1,93 = 0,35 > 0$$

Olingan statistik ma'lumotlar va tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, tajriba sinfidagi o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi nazorat sinfidagiga nisbatan sezilarli darajada ya'niy 11,3 foizga yuqori. Bu shuni anglatadiki, o'quvchilarda kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda ijodiy mazmundagi mashqlardan foydalanish metodikasi samarali bo'lib, uning qo'llanilishi ta'lim jarayonining metodik sifatini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

### **Uchinchi bob bo'yicha xulosalar**

O'tkazilgan tajriba-sinov ishlarining asosiy maqsadi boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ fikrlash qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirishda ijodiy mazmundagi mashqlardan foydalanish metodikasining samaradorligini aniqlash edi. Tajriba ishlari to'rt bosqichda amalga oshirildi: aniqlashtiruvchi, ta'kidlovchi, shakllantiruvchi va yakunlovchi bosqichlar.

Aniqlashtiruvchi bosqichda o'quvchilarning mavjud kreativ fikrlash darajasi va o'qituvchilarning bu boradagi tayyorgarligi o'rganildi. Bu bosqichda dastur va darsliklar tahlili, kuzatishlar, anketa va so'rovlar orqali o'quvchilarning o'quv faoliyati va tafakkur rivojlanish xususiyatlari aniqlashtirildi.

Ta'kidlovchi va shakllantiruvchi bosqichlarda ijodiy mazmundagi mashqlar tizimi ishlab chiqilib, tajriba sinflarida amaliyotga tatbiq etildi. Ushbu mashqlar o'quvchilarda kreativ fikrlashni rag'batlantirish, mustaqil va ijodiy yondashuvlarni shakllantirishga qaratilgan bo'lib, metodikaning nazariy va amaliy modeli yaratildi. Shakllantiruvchi bosqichda modelning amaliy samaradorligi sinovdan o'tkazilib, ijodiy mashqlar tizimi va o'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalar ishlab chiqildi.

Yakunlovchi bosqichda esa tajriba va nazorat sinflarida olingan natijalar statistika metodlari yordamida tahlil qilindi. Tajriba sinfi o'quvchilarining o'zlashtirish darajasi nazorat sinfi bilan solishtirganda sezilarli darajada yuqori ekanligi aniqlanib, ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligi tasdiqlandi. Shu bilan birga, o'quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyati doirasida mustaqil fikrlash, muammolarni hal etish va ijodiy yondashuvlarni shakllantirish imkoniyati kengaydi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, o'tkazilgan tajriba-sinov ishlarining natijalari o'quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirish bo'yicha ijodiy mazmundagi mashqlardan foydalanish metodikasining amaliy samaradorligini isbotladi hamda boshlang'ich ta'lim jarayonida ushbu metodikaning tatbiqi uchun ilmiy asos yaratdi.

## XULOSA

“Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari kreativ fikrlashini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish” mavzusidagi falsafa doktorlik (PhD) dissertatsiyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

Mazkur dissertatsiya tadqiqotida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ fikrlashni rivojlantirish muammosi zamonaviy ta‘lim talablari, kompetensiyaviy yondashuv va shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim paradigmasi asosida ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan chuqur tahlil qilindi. Tadqiqot davomida erishilgan asosiy xulosalar quyidagilardan iborat:

1. Boshlang‘ich ta‘lim jarayonida kreativ fikrlashni rivojlantirish zarurati zamonaviy ta‘limning ustuvor vazifalaridan biri ekanligi ilmiy asoslandi. Kreativ fikrlash o‘quvchilarning mustaqil, moslashuvchan, original va variativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiruvchi muhim intellektual salohiyat sifatida talqin qilindi.

2. Kreativ fikrlash tushunchasining pedagogik-psixologik mohiyati aniqlashtirilib, uning boshlang‘ich sinf yoshidagi o‘quvchilarda shakllanishi o‘quv faoliyatining mazmuni, metodlari va didaktik shart-sharoitlari bilan uzviy bog‘liqligi asoslab berildi. Kreativ fikrlash ravonlik, moslashuvchanlik va o‘ziga xoslik kabi tarkibiy komponentlar orqali namoyon bo‘lishi ilmiy jihatdan asoslandi.

3. Boshlang‘ich sinf amaliyotini tahlil qilish natijasida o‘qituvchilarning kreativ fikrlashni rivojlantirish bo‘yicha metodik tayyorgarligi yetarli darajada emasligi, ijodiy mazmundagi mashqlardan tizimli foydalanilmayotgani aniqlandi va mazkur holat metodikani takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirishi isbotlandi.

4. Tadqiqot doirasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ fikrlashni rivojlantirishga yo‘naltirilgan takomillashtirilgan metodika ishlab chiqildi. Mazkur metodika evristik va kognitiv metodlar uyg‘unligiga asoslangan bo‘lib, ijodiy mazmundagi mashqlar, muammoli vaziyatlar, munozara va reflektiv faoliyatni o‘z ichiga qamrab oladi.

5. Kreativ fikrlashni rivojlantirishning muhim didaktik shart-sharoitlari sifatida quyidagilar aniqlandi:

- o'quv materialini ijodiy qayta ishlashga yo'naltirish;
- topshiriqlarning variativ va ochiq yechimli bo'lishi;
- o'quvchilarning nutqiy va tafakkur faoliyatini faollashtirish;
- o'qituvchining kreativ pedagogik pozitsiyasi va metodik tayyorgarligi.

6. Ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligini aniqlash maqsadida pedagogik tajriba-sinov ishlari to'rt bosqichda (aniqlashtiruvchi, ta'kidlovchi, shakllantiruvchi va yakunlovchi) tashkil etildi. Tajriba jarayonida ijodiy mazmundagi mashqlardan tizimli foydalanish o'quvchilarning kreativ fikrlash faolligini sezilarli darajada oshirgani kuzatildi.

7. Tajriba va nazorat guruhlarini natijalari matematik-statistik tahlil (Student kriteriyasi, Pirson  $\chi^2$  metodi) asosida qayta ishlanib, tajriba sinfidagi o'quvchilarning kreativ fikrlash darajasi nazorat sinfiga nisbatan yuqori ekanligi ilmiy jihatdan isbotlandi. Bu esa ilgari surilgan ilmiy farazning to'g'riligini tasdiqladi.

8. Tadqiqot natijalari asosida o'qituvchilar uchun metodik tavsiyalar va amaliy qo'llanmalar ishlab chiqildi. Ular boshlang'ich ta'lim amaliyotida kreativ fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali vosita sifatida tavsiya etildi.

9. Umuman olganda, dissertatsiya tadqiqotida ishlab chiqilgan metodika boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual va ijodiy rivojlanishini ta'minlash, ta'lim jarayonining sifat va samaradorligini oshirish imkonini berishi bilan ilmiy va amaliy ahamiyatga ega ekanligi asoslab berildi.

Yakuniy xulosa sifatida ta'kidlash joyizki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ fikrlashni rivojlantirishda ijodiy mazmundagi mashqlarga asoslangan takomillashtirilgan metodikani ta'lim jarayoniga joriy etish pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq bo'lib, u zamonaviy ta'lim talablari va kompetensiyaviy yondashuvga to'liq mos keladi.

## TAKLIF VA TAVSIYALAR

Mazkur dissertatsiya tadqiqotida erishilgan nazariy xulosalar va tajriba-sinov natijalari asosida boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish samaradorligini oshirishga qaratilgan quyidagi ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Boshlang'ich ta'lim fanlari (ona tili, o'qish, matematika, tabiatshunoslik, texnologiya va tarbiya) o'quv dasturlari va darsliklari mazmuniga ijodiy va ochiq yechimli topshiriqlar, muammoli vaziyatlar hamda evristik mashqlar ulushini bosqichma-bosqich oshirish tavsiya etiladi;

2. O'quv materiallarini o'zlashtirish jarayonida bir masalaga bir nechta yechim topish, muqobil fikrlarni asoslash va kreativ yondashuvni talab qiluvchi mashqlar tizimini joriy etish maqsadga muvofiq;

3. Boshlang'ich sinf darslarida evristik va kognitiv metodlarni uyg'unlashtirgan holda ijodiy mazmundagi mashqlardan muntazam foydalanish, dars jarayonida munozara, savol-javob, taqqoslash, analogiya va refleksiya kabi interaktiv metodlardan foydalanish orqali o'quvchilarning mustaqil va kreativ fikrlash faolligini oshirish zarur;

4. O'qituvchilarga har bir mavzu doirasida minimal va maksimal murakkablik darajasiga ega ijodiy topshiriqlarni rejalashtirish tavsiya qilinadi;

5. O'quvchilarning yosh va individual psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda shaxsga yo'naltirilgan ta'limni keng joriy etish, darslarda o'quvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish, ya'ni o'z fikrini erkin bayon qilish, asoslash va himoya qilishga o'rgatish lozim hamda kreativ fikrlashni rivojlantirish jarayonida guruhli va jamoaviy faoliyat shakllaridan samarali foydalanish tavsiya etiladi;

6. O'quvchilarning kreativ fikrlash darajasini aniqlash uchun diagnostik topshiriqlar, rivojlantiruvchi testlar va kuzatuv mezonlari asosida baholash tizimini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish va baholash jarayonida faqat natijaga

emas, balki fikrlash jarayoni, yechimlar xilma-xilligi va ijodiy yondashuv darajasiga ham e'tibor qaratish tavsiya etiladi;

7. Boshlang'ich sinf ta'lim jarayonida kreativ fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan takomillashtirilgan metodikani tizimli ravishda joriy etish, ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirish va ularni zamonaviy jamiyat talablariga mos shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

### I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2023-yil 30-aprel, 50-moddasi. <https://lex.uz>
2. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. <https://lex.uz>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi “2017–2021-yillarda ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori / [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
